


A. TO'XTAYEV, Y. ABRAMYAN

# MASHINASOZLIK CHIZMACHILIGIDAN

## MA'LUMOTNOMA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**A. TO'XTAYEV, Y. ABRAMYAN**

**MASHINASOZLIK  
CHIZMACHILIGIDAN  
MA'LUMOTNOMA**


O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
bakalavrlar chiqaruvchi oliy texnika o'quv yurtlarining  
talabalari uchun o'quv qo'llanma  
sifatida tavsiya etgan

Ushbu o‘quv qo‘llanmada chizmalarni taxt qilish uchun zarur ma’lumotlar, geometrik yasashlar, tasvirlar yasash, ko‘rinishlar, qirqim-kesimlar, tishli uzatmalar, rezba parametrlari, ajraladigan va ajralmaydigan birikmalar, protatlangan po‘lat profillari, shuningdek, chizmalarni bajarishda qo‘llaniladigan turli soddalashtirishlar va shartli belgilashlar keltirilgan.

Qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining talabalariga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, undan maxsus o‘rta o‘quv yurtlarining talabalari, turli sohalarning muhandislari ham foydalanishlari mumkin.

*Taqrizchi:* **T.D. AZIMOV** — Toshkent Davlat texnika universiteti kafedra mudiri, professor.

20866/4



## **SO‘ZBOSHI**

Mazkur qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi tasdiqlagan «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanining namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va ta’lim standarti talabalarini inobatga olgan holda konstrukturlik hujjatlarining yagona tizimi (ЕСКД) qoidalari asosida yozildi.

Qo‘llanmaning ushbu nashrini tayyorlashda mashinasozlik sohasidagi ayrim materiallar va detallarga 2003-yilgacha joriy etilgan Davlat standartlaridagi yangi o‘zgarishlar e’tiborga olindi.

Ushbu qo‘llanmada chizmalarni va loyiha-konstrukturlik hujjatlarni tuzish uchun zarur bo‘lgan «Chizmalarni taxt qilish», «Geometrik yasashlar», «Ko‘rishlar, qirqimlar va shartli grafik tasvirlar», «Ajraladigan va ajralmaydigan birikmalar» va «Qo‘sishimcha ma’lumotlar» kabi mavzularga keng o‘rin berilgan.

Qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining talabalariga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, undan maxsus o‘rtalik o‘quv yurtlarining talabalari, sanoat korxonalarining muhandislari, loyihalash tashkilotlarining konstrukturlari ham foydalanishlari mumkin. Mualliflar ushbu qo‘llanma xususida fikr va mulohazalarini bildirganlarga o‘z minnatdorchiliklarini izhor qiladi.

---

## **I-bob. KONSTRUKTORLIK HUJJATLARINING YAGONA TIZIMI**

### **1.1. UMUMIY QOIDALAR**

Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi kompleksi standartlariga qo'yilgan vazifalar, ularning ta'sir doirasi, klassifikatsiyasi, belgilanishiga oid umumiy qoidalar GOST 2.001—68 da belgilangan.

### **1.2. STANDARTLARNING TA'RIFI VA VAZIFASI**

Konstruktorlik hujjatlarining yagona sistemasi — korxona va tashkilotlar ishlab chiqarayotgan va foydalanayotgan konstruktorlik hujjatlarini tayyorlash, rasmiylashtirish va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan tartib va qoidalarni belgilovchi davlat standartlari kompleksidir.

ECKД standartlarining asosiy vazifasi — korxona va tashkilotlarda konstruktorlik hujjatlariga rioya qilish, rasmiylashtirish hamda ulardan foydalanishda yagona tartib va qoidalarni joriy etishdan iborat. Bu tartib va qoidalarni yordamida:

1. Korxona va tashkilotlar o'zaro konstruktorlik hujjatlarini qayta rasmiylashtirmay turib, ular o'rtasida bu hujjatlarni almashtira olish imkonini yaratiladi.

2. Ishlab chiqarishda keraksiz hujjatlarning takror ishlab chiqarilishining oldi olinadi hamda komplektlari barqarorlashtiriladi.

3. Sanoat buyumlarining konstruktorlik loyihamonini ishlashda unifikatsiyalash imkonini kengaytiradi.

4. Konstruktorlik hujjatlarining formalari va grafikaviy tasvirlarining soddalashtirilishi, sanoat buyumlarining mashaqqatli, sermehnat loyiha-konstruktorlik ishlarini kamaytiradi.

5. Texnikaviy hujjatlar va ulardagi ma'lumotlarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish imkonini yaratiladi.

6. Ishlab chiqarishning texnikaviy tayyorlik sharoiti yaxshilanadi.
7. Sanoat buyumlarining ishlatilish sharoiti yaxshilanadi.
8. Ishlab turgan korxonalarini qayta sozlashda zarur hujjatlarni tezlikda tayyorlash imkonini yaratiladi.

### **1.3. STANDARTLARNING TA'SIR DOIRASI**

1. Hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish va ulardan foydalanishda ECKД standartlarida belgilangan tartib va qoidalar quyidagi-larga ta'sir etadi: a) konstruktorlik hujjatlarining barcha turlariga; b) konstruktorlik hujjatlariga o'zgartirishlar kirituvchi va hisobga oluvchi hujjatlarga; d) «Texnikaviy-normativ va texnologik» hujjatlarga.

2. ECKД standartlari konstruktorlik hujjatlarini tuzish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar hamda texnikaviy-normativ adabiyotlarni nashr etish uchun asos bo'ladi. Masalan, bunday hujjatlarda: a) korxonalar texnika bo'limlarining (texnikaviy hujjatlar bo'limi, norma nazorat xizmati va h.k.) strukturasi va vazifalarini belgilovchi qoidalar; b) sanoat va korxonalarning tarmoqlari o'rtasida konstruktorlik hujjatlarining harakati hamda kelishib olish tartibi to'g'risidagi qoidalar; d) texnikaviy hujjatlarni tayyorlash, saqlash, komplektlash va gruppash bo'yicha ko'rsatmalar va qoidalar belgilanadi.

### **1.4. ECKД STANDARTLARINING TARKIBI, KLASSIFIKATSIYASI VA BELGILANISHI**

ECKДga kiruvchi standartlarning tarkibi Davlat standartlar qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda e'lon qilinadigan ro'yxatlarda ko'rsatiladi. ECKД standartlarining klassifikatsiya gruppalari bo'yicha bo'linishi 1-jadvalda keltirilgan.

ECKД standartlari klassifikatsiyalash gruppasi asosida belgilanadi.

ECKД standartlari 2-klassga kiritilgan bo'lib, standartlarning nomeri nuqtali 2. raqami bilan boshlanadi: nuqtali ikkidan keyingi bitta raqam standartlarning klassifikatsiya gruppasini, undan keyingi ikki xonali son esa mazkur gruppadagi standartning tartib nomerini va tire chizig'idan keyingi ikki xonali son standartning tasdiqlangan yilini ko'rsatadi. Quyida ECKД standartining belgilanishiga misol keltiriladi: «Konus tishli g'ildiraklar chizmasini bajarish» (GOST 405-75).

GOST	2.	4	05	-75	Standartning tasdiqlangan yili
Gruppadagi standartning tartib nomeri					
Standartlarning klassifikatsiya gruppasi					
Standartlar klassi (ЕСКД standartlari)					
Texnikaviy-normativ hujjatlarning kategoriysi (davlat standarti)					

*Eslatma*: texnikaviy-normativ hujjatlarning yagona klassifikatsiyasi va belgilanishi joriy etilguncha, mazkur klassifikatsiya va standart nomerini tuzish sistemasi o'z kuchini saqlab qoladi.

*I-jadval*

### Standartlarning klassifikatsiya guruhlari


Shifri	Gruppadagi standartlar mazmuni	Raqami
0	Umumiy qoidalari	GOST 2.001-93 GOST 2.034-83
1	Asosiy qoidalari	GOST 2.101-68 GOST 2.121-73
2	Konstrukturlik hujjatlarida buyumning belgilanishi va klassifikatsiyasi	GOST 2.201-80
3	Chizmalar bajarishning umumiy qoidalari	GOST 2.301-68 GOST 2.317-69
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati buyumlarining chizmalarini bajarish qoidalari	GOST 2.401-68 GOST 2.426-74
5	Konstrukturlik hujjatlaridan foydalanish (hisobga olish, saqlash, nusxa ko'chirish, o'zgarishlar kiritish)	GOST 2.501-68 GOST 2.503-74
6	Ekspluatatsiya va ta'mirlash hujjatlarini bajarish qoidalari	GOST 2.601-80 GOST 2.607-72
7	Sxemalarni bajarish qoidalari	GOST 2.701-80 GOST 2.792-74
8	Qurilish va kemasozlik hujjatlarini bajarish qoidalari	GOST 2.801-74 GOST 2.857-75
9	Boshqa standartlar	

## **2-bob. CHIZMALARNI TAXT QILISH**

### **2.1. FORMATLAR (GOST 2.301-68)**

Barcha chizmalar standart formatli chizma listlarida bajariladi. Listlarning formatlari, tashqi ramka chiziqlarining o'lchamlari bilan belgilanadi (*1-shakl*). Tomonlarining o'lchami 1189x841 mm, sathi 1 m<sup>2</sup>ga teng bo'lgan format va bu formatning hamda uning keyingi formatlarining ensiz tomoniga parallel chiziq o'tkazib, teng ikkiga bo'lishdan hosil qilingan boshqa formatlar — *asosiy formatlar*, deb ataladi.

GOST 2.301-68 ga ko'ra asosiy va qo'shimcha formatlarning belgilari va o'lchamlari 2-jadvalda keltirilgan. Asosiy formatlar A harfi va 0 dan 5 gacha arab raqamlari bilan belgilanadi. Zarur bo'lgan holarda qo'shimcha formatlardan foydalанилди.



*1-shakl.* Chizma formati.

Qo'shimcha formatlar, asosiy formatning qisqa tomoni o'lchamini  $\ll n \gg$  karrali orttirib hosil qilinadi. Qo'shimcha formatning belgisi, asosiy format hamda  $n$  karrali ( $n$  — butun son) orttirish belgisidan iborat bo'ladi. Masalan, A0×n. Ayrim hollarda A5 formatdan foydalanishga ruxsat etiladi.

*2-jadval*

**Asosiy va qo'shimcha formatlarning belgilanishi va o'lchamlari  
(GOST 2.301-68)**

Asosiy formatlar		Qo'shimcha formatlar	
Belgilanishi	Tomonlar o'lchami, mm	Belgilanishi	Tomonlar o'lchami, mm
A0	841×1189	A0×2 A0×3	1189×1682 1189×2523
A1	594×841	A1×3 A1×4	841×1783 841×2378
A2	420×594	A2×3 A2×4	594×1261 594×1682
A3	297×420	A3×3 A3×4 A3×5	420×891 420×1189 420×1486
A4	210×297	A4×3 A4×4 A4×5 A4×6	297×630 297×841 297×1051 297×1261
A5	148×210	—	—

*Eslatma:* jadvalda qo'shimcha formatlar qisqartirib berilgan.

## 2.2. MASSHTABLAR (GOST 2.302-68)

Tasvirlar quyidagi masshtabda chiziladi:

1. Haqiqiy kattaligi — 1:1.
2. Kichraytirish masshtablari — 1:2; 1:2,5; 1:4; 1:5; 1:10; 1:15; 1:20; 1:25; 1:40; 1:50; 1:75; 1:100; 1:200; 1:400; 1:500; 1:800; 1:1000.
3. Kattalashtirish masshtablari — 2:1; 2,5:1; 4:1; 5:1; 10:1; 20:1; 40:1; 50:1; 100:1.

Bulardan tashqari, GOST 2.302— 68 ga ko‘ra, yirik obyektlar uchun quyidagi mashtablar tavsiya etiladi:

1. Kichraytirish mashtabi 1:2000; 1:5000; 1:10000; 1:20000; 1:250000; 1:50000.

2. Ko‘proq kattalashtirish uchun (100xn):1 mashtabidan foyda-Janish mumkin, bu yerda  $n$  — butun son. Agar mashtab asosiy yozuvning belgilangan grafasiga yozilsa, M harfi tushirib qoldirilib, 1:1; 1:2; 5:1 ko‘rinishlarda yoziladi.

Boshqa hollarda M 1:1, M 1:2; M 5:1 ko‘rinishda yoziladi. Agar tasvirning mashtabi chizmaning asosiy yozuvidagi mashtabidan farq qilsa, uning mashtabi shu tasvirga tegishli yozuv ostida ko‘rsatiladi, masalan, A (2:1) yoki A (5:1).

Jadval chizmalarda, shuningdek, eskizlarda mashtab ko‘rsatilmaydi. Ularda asosiy yozuvning mashtab uchun belgilangan grafasiga chiziqcha chizib qo‘yiladi.

### **2.3. CHIZIQLAR (GOST 2.303-68)**

Chiziqlarning turlari, vazifalari va ularning yo‘g‘onliklari orasidagi nisbatlar 3-jadvalda keltirilgan. Chizmalarni chizishda quyidagilarga amal qilish lozim.

1. Aynan ushbu chizma uchun qabul qilingan mashtabda tanlab olingan chiziq yo‘g‘onligi chizmaning barcha tasvirlari uchun bir xil bo‘lishi kerak.

2. Murakkab qirqim va kesimlar uchun uzuq chiziqlarning uchlari ingichka shtrix-punktir chiziqlar bilan tutashtirilishi mumkin.



3. Aylana markazi barcha hollarda ham shtrixlarning kesishishi bilan belgilanadi (2-shakl). O‘q va markaz chiziqlarining uchlari tasvir konturidan ko‘pi bilan 5 mm chiqib turishi mumkin (3, 4-shakllar).


4. Aylana diametri chizmada 12 mm.dan kichik bo‘lsa, markaz sifatida qo‘llanayotgan shtrix-punktir chiziqlar o‘rniga ingichka tutash chiziqlar o‘tkazish lozim (3-shakl).

## Chiziqlarning turlari va o'ichamlari (GOST 2.303-68)


T/r	Chizmadagi poz. №	Chizmaning nomi	Chizilishi	Yo'g'onligi	Vazifikasi	Shakl nomeri
1	1	Asosiy tutash chiziq	—	$S=0,5 \pm 1,4 \text{ mm}$	Ko'rinar kontur chizig'i Ko'rinar o'tish chizig'i Cheunga chiqarilgan kesim konturi: qirqim tarkibiga kiruvchi kesim konturi	2, 3, 4 3
2	2	Ingichka tutash chiziq	—	$S_{\frac{1}{3}} \pm S_{\frac{1}{2}}$	Sirt va yuzalarning tozaligini ko'rsatuvchi belgi chiziqlari. Chizma iadvali, asosiy yozuv va spetsifikasiya ramlkalarini ichidagi chiziqlar. Ustiga chizilgan kesimlar konturi. O'icham va chiqarish chiziqlari. Shrixlash chiziqlari: ternik ishlov berilgan sohalar chegarasi	4 2, 3, 4

3	3	Tutash to'jinq chiziq		$S_{j_3}+S_{j_2}$	Uzilgan joy chizig'i Ko'rimish va qirqinlarni chegaralash chiziqlari	2, 4
4	4	Shtrix chiziq		$S_{j_3}+S_{j_2}$	Ko'rimmaydigan kontur va o'tish chiziqlari	
5	5	Ingichka shtrix-punktir chiziq		$S_{j_3}+S_{j_2}$	O'q va markaz chiziqlari Chetga chiqarilgan yoki ustiga chizilgan kesimlarning simmetriya o'q chiziqlari	2, 3, 4
6	6	Yo'g'on shtrix-punktir chiziq		$S_{j_3}+S_{j_2}$	Kesuvchi tekislik oldida joylashgan elementlarni tasvirlash turlicha termik ishllov berildigani yoki qoplanadigan sirtlarni chegaralash chiziqlari	3


7	7	Uzuq chiziq		$S/I_{\frac{1}{2}}S$	Kesim chiziqlari	2, 3
8	8	Ingichka tutash siniq chiziq		$S_{j^+}S_{\frac{1}{2}}$	Uzun detailarning uzilgan qismini tekislash chiziqlari	2
9	9	Ikki nuqtali ingichka shtrix-punktir chiziq		$S_{j^+}S_{\frac{1}{2}}$	Yoyilmadagi bukilish chiziqlari. Ko'rnish bilan ustma-ust joylashtirilgan yoyilmani tasvirlash, bumat qismalarining eng chetki yoki oraliqdagi vaziyatlarini tasvirlash	2, 3



2-shakl. Chizma chiziqlarining turlari va qo'llanish joylari.



3-shakl. Ingichka va yo'g'on shtrix-punktir chiziqlarning ishlatalishi.




4-shakl. Chetga chiqarilgan elementlar va turli g'adir-budurlikdagи zonalarning chegara hamda belgi chiziqlari.

## 2.4. CHIZMA SHRIFTLARI (GOST 2.304-81)


1. Qurilish va sanoatning barcha tarmoqlariga tegishli chizmalar-dagi va texnikaviy hujjatlardagi yozuvlar GOST 2.304-81 da belgi-langan standart harf va raqamlarda yoziladi. Shriftlarning *A* (ensiz) va *B* (enli) turlari joriy etilgan bo'lib, ular o'zaro parametrлari bilan farqlanadilar. Satr chizig'iga nisbatan perpendikular yo'nalishda o'lchangan bosh harfning millimetrik hisobidagi *h* balandligi uning asosiy o'lchami deyiladi. Shriftning boshqa o'lchamlari uning balandligi (*h*) ga nisbatan olinadi (5, 6-jadval).

2. Davlat standartida harf va raqamlarning quyidagi o'lchamlari belgilangan: (1,8)\*; 2,5; 3,5; 5; 7; 10; 14; 20; 28; 40 *A* va *B* turidagi shriftlar, satr chizig'iga nisbatan  $75^\circ$  qiyalatib yoki  $90^\circ$  burchak ostida yozilishi mumkin.

3. Aniq shakldagi harflar olish uchun ularni yordamchi chiziqlardan tuzilgan to'rlar ustiga yozish kerak. To'r chiziqlarining qadami *A* turidagi harflar uchun  $d = (1/14)h$ , *B* turi uchun esa  $d = (1/10)h$  nisbatlarda olinadi (5, 6-shakllar). Harf va raqamlarning standart shakli 7, 9-shakllarda va o'lchamlari 5—6-jadvalda keltirilgan.



5-shakl. Qiylatmay va qiylatib yozilgan shriftlarning o'lcham belgilari.



6-shakl. Yordamchi to'rlardan foydalanib shriftlarning yozilishi:

- a — qiylatmay yoziladigan shriftlar uchun;
- b — qiylatib yoziladigan shriftlar uchun;
- d — shriftning A turi;
- e — shriftning B turi.



7-shakl. A turdagи kirill harflarining: a — qiyalatib va  
b — qiyalatmay yozilishi.



**а б в г д е ж з и и к л м н**  
**о п р с т у ф х ч ч и ш**  
**ы ъ э ю я**  
**1 2 3 4 5 6 7 8 9 0 3**

8-shakl. B turdag'i kirill harflari va arab raqamlarining yozilishi.

**A B C D E F G H I U K L M N**  
**D P Q R S T U V W X Y Z**  
**a b c d e f g h i j k l m n o p**  
**g r s t u v w x y z**  
**I II IV V VI VIII IX V**  
**I III IV VI VII IX V**

9-shakl. B turdag'i lotin harflari va rim raqamlarining yozilishi.

4. Harf va sonlardagi murtaklar bilan belgilar harflar hamda qatorlar orasidagi bo'sh joylar hisobiga qo'yiladi. (Masalan, *D*, *S*, *Q*, *SH*, ; *G*' harflari va 4 raqami hamda *o*', *y* harflarining belgilari.)

5. Harf va sonlarning balandligi, tushda bajariladigan chizmlar uchun kamida 2,5 mm va qalamda bajariladiganlari uchun esa kamida 3,5 mm bo'lishi kerak.

6. Yozuvlar kichik harflar bilan yozilganda, bosh harflar chizig'ining yo'g'onligi kichik harf chiziqlarining yo'g'onligiga teng, ya'ni  $1/14$ ;  $1/10h$  bo'lishi kerak.

7. *G*, *T*, *R* bosh harflari *A*, *D*, *L* harflari bilan yonma-yon (*GA*, *TA*, *RA* va h.k.) kelganida yoki ayrim kichik harflar bilan yonma-yon (*Ga*, *Gl* va h.k.) kelganida, ular orasidagi masofa harf chiziqlarining yo'g'onligiga teng bo'lishi kerak.

8. Rim raqamlarini yozish uchun ayrim lotin imlosidagi harflar va ularning qo'shilmasidan foydalaniladi, masalan, *I*, *V*, *L*, *S* va h.k. (4-jadval.)

9. Rim raqamlarining ostiga va ustiga chiziqlar chizib yoziladi, masalan: *I*, *II*, *III* va h. k. 4-jadvalda rim va arab raqamlari orasidagi munosabat berilgan. Bir necha rim raqamlaridan tuzilgan son shu sonlar yig'indisidan iboratdir. Bu yig'indi arab raqamlarining to'plamiga teng bo'ladi.

Masalan,  $\frac{M}{I} \quad \frac{SM}{9} \quad \frac{LXXX}{8} \quad \frac{IX}{9}$ . Bu ifoda 1989 ni bildiradi.

*Eslatma*: 1,8 o'lchamdan faqat harfning *B* turida foydalanish mumkin.

4-jadval

Rim raqamlari	<i>I</i>	<i>II</i>	<i>III</i>	<i>IV</i>	<i>V</i>	<i>VI</i>	<i>VII</i>	<i>VIII</i>	<i>IX</i>	<i>X</i>	<i>L</i>	<i>C</i>	<i>D</i>	<i>M</i>
Arab raqamlari	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	50	100	500	1000

## 1. Shriftlarning turlari va o'lcamlari

Turi	Parametrlari, mm					
	<i>h</i>	<i>c</i>	<i>a</i>	<i>b</i>	<i>e</i>	<i>d</i>
<i>A</i>	2,5	1,8	0,35	4,0	1,1	0,18
	3,5	2,5	0,5	5,5	1,5	0,25
	5	3,5	0,7	8,0	2,1	0,35
	7	5	1,0	11	3,0	0,5
	10	7	1,4	16	4,2	0,7
	14	10	2,0	22	0,0	1,0
	20	14	2,8	31	8,4	1,4
<i>B</i>	1,8	1,3	0,35	3,1	1,1	0,18
	2,5	1,8	0,5	4,3	1,5	0,25
	3,5	2,5	0,7	6,0	2,1	0,35
	5	3,5	1,0	8,5	3,0	0,5
	7	5	1,4	12	4,2	0,7
	10	7	2,0	17	6,0	1,0
	14	10	2,8	24	8,4	1,4
	20	14	4,0	34	12	2,0

*Eslatma*: belgilardan: *h* — shrift o'lcami (bosh harf balandligi); *c* — kichik harflar balandligi; *a* — harflar orasidagi masofa; *b* — satrlar qadami kamida; *e* — so'zlar orasidagi eng qisqa masofa; *d* — harf chiziqlarining yo'g'onligi.

## 2. Parametrlarning qiymatlari (*h* — o'lcamga nisbatan olingan)

Parametrlar	Nisbiy o'lcamlar	
	<i>A</i> turi	<i>B</i> turi
<i>h</i>	$(14/14) h = 14 d$	$(10/10) h = 10 d$
<i>c</i>	$(10/14) h = 10 d$	$(7/10) h = 7 d$
<i>a</i>	$(2/14) h = 2 d$	$(2/10) h = 2 d$
<i>b</i>	$(22/14) h = 22 d$	$(17/10) h = 17 d$
<i>e</i>	$(6/14) h = 6 d$	$(6/10) h = 6 d$
<i>d</i>	$(1/14) h = d$	$(1/10) h = d$

3. B turdagi harf va raqamlarning o'ichamlari ( $d=h/10$ )

Aniqlamadigan kattalik	Bel-gisi	O'ichamlar nisbati	Harflarning o'ichamlari, mm						
			2,5	3,5	5,0	7,0	10	14	
1. Bosh harflar va raqamlar Harf va raqamning balandligi Д, Ж, М, Ф, Ш, А, Б1 lardan boshqa harflarning eni Д, Б1, ЙО, М, А, harflarning eni Ш, ІІ, Ф, Ж harflarning eni Г, С, 3 harflarning eni	<i>h</i>	(10/10) <i>h</i>  <i>g</i> <i>g<sub>1</sub></i> <i>g<sub>2</sub></i> <i>g<sub>3</sub></i>	10 <i>d</i>  6 <i>d</i> 7 <i>d</i> 8 <i>d</i> 5 <i>d</i>	2,5 1,45 1,75 2,0 1,25	3,5 2,1 2,45 2,8 1,75	5,0 3,0 3,5 4,0 2,5	7,0 4,2 4,9 5,6 3,5	10 10 7,0 8,0 5,0	14 8,4 9,8 11,2 7,0
2. Kichik harflar Ҷ, В, ё, Р, У, Ф lardan boshqa harflarning balandligi Ҷ, В, Д, Р, У, Ф harflar balandligi Ж, Т, Ш, Ш, Ф, 3 lardan boshqa harflarning eni Ж, Т, ІІ, Ш, Ф harflarning eni М, Ы, ю harflarning eni С, 3 harflarning eni harf va raqam chiziqlarining yo'g'onligi	<i>c</i>  <i>h</i>	(7/10) <i>h</i>  (10/10) <i>h</i>  <i>g<sub>4</sub></i> <i>g<sub>5</sub></i> <i>g<sub>6</sub></i> <i>g<sub>7</sub></i>	7 <i>d</i> 10 <i>d</i>  5 <i>d</i> 6 <i>d</i> 7 <i>d</i> 4 <i>d</i> <i>d</i>	2,5 3,5 1,75 2,5 1,25 1,5 1,75 1,0 0,25	2,45 3,5 2,45 3,0 1,75 2,45 3,5 1,4 0,35	3,5 5,0 2,5 3,0 2,1 3,5 4,9 2,0 0,5	4,9 7,0 7,0 4,2 2,8 4,0 7,0 0,7	7,0 10 10 5,0 6,0 7,0 4,0 1,0	9,6 14 7,0 7,0 8,4 9,8 5,6 1,4

## 2.5. TURLI MATERIALLARNING GRAFIKAVIY BELGILANISHI (GOST 2.306-68)





Qurilish va sanoat korxonalarining barcha tarmoqlari chizmalarida tasvirlangan materiallarning kesim yuzalari uning turiga qarab, GOST 2.303-68 talab va qoidalariga muvofiq, grafika ko‘rinishda belgilanadi. Kesim yuzasining grafika belgisi chizmani o‘qishni yengillashtiradi, detal materialining turini aniqlashga yordam beradi.

Kesim yuzasini shtrixlash chiziqlari kontur chizig‘iga yoki asosiy yozuvga nisbatan  $45^\circ$ ,  $30^\circ$ ,  $60^\circ$  qiyalatib chiziladi. Parallel shtrixlash chiziqlari orasidagi masofa  $1+10$  mm, chiziqlar yo‘g‘onligi SG‘3. Yonma-yon joylashgan turli materiallarning kesim yuzalari qarama-qarshi tomonga shtrixlanadi. Chizmada tushuntirish sharti bilan materiallarni qo‘s himcha grafikaviy belgilaridan foydalanish mumkin. Turli materiallarning grafika belgilari 7, 8-jadvalda keltirilgan.

*7-jadval*

### **Materiallarning turiga qarab, ularning kesim yuzalarini shtrixlash**

T/r	Materiallarning nomi	Materialning grafika ko‘rinishida belgilanishi	Shtrix bo‘yicha ko‘rsatmalar
1	Metallar va qattiq qotishmalar		Shtrixlash chiziqlarining yo‘g‘onligi S/3, oralig‘i $1+10$ mm va qiyaligi $45^\circ$ .
2	Jadvaldagilardan boshqa, tolali monolit, presslangan va metallmas materiallar		Shtrixlash chiziqlarining yo‘g‘onligi S/3, oralig‘i $1+10$ mm va qiyaligi $45^\circ$ .
3	Yog‘och		Shtrixlash chiziqlari qo‘lda bajariladi. Chiziqlar yo‘g‘onligi S/2, oralig‘i ixtiyoriy. Bu belgidan tolalar yo‘nalishini ko‘rsatish zarur bo‘lgan joyda foydalilanadi.

4	Tabiiy tosh		Shtrixlash chiziqlari yo'g'onligi S/3, oralig'i 1 ÷ 10 mm. gacha, qiyaligi 45°, shtrixlar uzunligi va orasidagi masofasi chizmaga qarab ixtiyoriy tanlab olinadi.
5	Teriladigan kermik va silikat materiallar		Shtrixlash chiziqlari yo'g'onligi S/3, parallel oralig'i 2÷3 mm, qiyaligi 47°.
6	Beton		Kesim yuzalari shtrixpunktir chiziqlarda shtrixlanadi. Chiziqlar yo'g'onligi S/3, qiyaligi 45°.
7	Shisha va boshqa shaffof materiallar		Shtrixlash chiziqlarining yo'g'onligi S/3, qiyaligi 45°, orasidagi masofa ixtiyoriy.
8	Suyuqliklar		Suyuqlikning kesim yuzalari shtrix chiziqlarda tasvirlanadi, chiziqlar yo'g'onligi S/3 + S/2, uzunligi va orasidagi masofalar ixtiyoriy.
9	Tabiiy grunt		Shtrixlash chiziqlari qo'lda bajariladi.
10	To'kilgan grunt va boshqa materiallar		Shtrixlash chiziqlari va nuqtachalari qo'lda bajariladi.
11	To'r		Shtrixlash chiziqlari 90° burchak ostida parallel qilib chiziladi. Chiziqlar yo'g'onligi S/3.

**Shtrixlashni bajarish yuzasidan qo'shimcha ko'rsatmalar**

T/r	Ko'rsatmalar	Misollar
1	Kesim yuzalarining chizmada qanday joylashishidan qat'i nazar, parallel shtrixlash chiziqlari chizma ramkasiga nisbatan $45^\circ$ burchak ostida qiyalatib o'tkazilishi shart.	
2	Agar shtrixlash chiziqlari ning yo'nalishi kontur yoki o'q chiziqlar yo'nalishiga to'g'ri kelib qolsa, shtrixlash chiziqlari $30^\circ$ va $60^\circ$ burchak ostida qiyalatib o'tkazilishi mumkin.	
3	Chetga chiqarilgan kesim yuzalari kesim chizig'iga nisbatan $45^\circ$ burchak ostida qiyalatib shtrixlanishi mumkin.	
4	Chizmada eni 2 mm va undan kam bo'lgan kesim yuzalari bir tekis qoraytirib ko'rsatiladi, yondosh kesim yuzalari orasida kamida 0,8 mm joy qoldirilishi lozim.	

## 2.6. O'LCHAMILAR QO'YISH (GOST 2.307-68)

1. O'lchamlar va chekli chetga chiqishlar GOST 2.307-68 talab va qoidalari asosida bajariladi. O'lchamlar chizmalarda o'lcham chiziqlari va o'lcham sonlari yordamida ko'rsatiladi. O'lcham sonlari tasvirlanuvchi buyum va uning elementlarining kattaligini aniqlashga asos bo'ladi. O'lcham sonlarini chizmada 3, 5; 5 shrift bilan yozish tavsiya etiladi.


2. Mashinasozlik chizmalarida chiziqli o'lchamlar hamma vaqt millimetrik hisobida qo'yiladi, biroq u chizmada ko'rsatilmaydi.

3. Chizmaning qanchalik aniq bajarilishidan va masshtabidan qat'i nazar, hamma vaqt chizmada detalning haqiqiy o'lchami yozilishi kerak.


4. Chizmadagi har bir o'lcham faqat bir marta ko'rsatiladi. Chizmada o'lchamlar mumkin qadar kam bo'lishi va shu bilan birga, buyumni tayyorlash hamda nazorat qilish uchun yetarli bo'lishi zarur.

5. O'lcham sonlari o'lcham chizig'i ustiga  $75^\circ$  qiyalatib yoziladi. O'lcham chizig'i strelkalar bilan tugallanadi. O'lcham chizig'inining strelkalari o'zining o'tkir uchi bilan kontur, chiqarish va o'q chiziqlariga tegib turishi lozim. Strelkalar o'lchami asosiy tutash chiziqlar yo'g'onligiga nisbatan  $L = (6 \div 10) S$ ;  $h = 2S$  olinadi (10-shakl).

6. Kesmalarga o'lcham qo'yishda o'lcham chiziqlari bu kesmaga parallel ravishda, chiqarish chiziqlari esa o'lcham chiziqlariga perpendikular holda o'tkaziladi (11-shakl).



10-shakl. Strelkaning o'lchami.



11-shakl. Chiqarish va o'lcham chiziqlari shakli va oralig'i.


7. Burchaklar o'lchami shu burchak uchidan chiqarilgan radial chiqarish chiziqlariga o'tkazilgan yoyda ko'rsatiladi (12-shakl).

8. Yoy o'lchami aylana yoyiga parallel o'tkazilgan o'lcham chizig'ida ko'rsatiladi, chiqarish chiziqlari esa burchak bissektrisasiiga parallel chiziladi va o'lcham soni ustiga yoy belgisi « $\cap$ » qo'yiladi (13-shakl).

Yoy o'lchamining chiqarish chiziqlari radial ravishda joylashtilishi mumkin. Agar shunday konseptrik yoymalar yana bo'lsa, o'lcham qaysi yoya tegishli ekanligi ko'rsatilishi zarur (14-shakl).

9. Chiqarish chiziqlari o'lcham chiziqlarining strelkalari uchidan 1—5 mm chiqib turishi kerak. O'lcham chiziqlari tasvir konturining tashqarisiga chiqarib qo'yilgani ma'qul.


10. Parallel o'lcham chiziqlari oraliq'i 7 mm.dan kam bo'lmasligi, shuningdek, o'lcham chizig'idan kontur chiziqlargacha bo'lgan masofa esa 10 mm.dan kam bo'lmasligi kerak (11-shakl).



12-shakl. Burchak o'lchamini qo'yish.



13-shakl. Yoy o'lchamini qo'yish.




14-shakl. Aylana yoyining o'lchamini qo'yish.


11. O'lcham chizig'ida ketma-ket joylashgan strelkalarni qo'yish uchun joy yetarli bo'lmasa, strelkalar nuqta yoki  $45^\circ$  ostida o'tkaziladigan shtrix chiziqchalari bilan almashtirilishi mumkin (15-shakl a, b).

12. Diametr belgisi « $\emptyset$ » barcha hollarda ham diametr o'lchami soni oldiga qo'yiladi (16, 21-shakllar).


Belgi aylanasining diametri aynan shu chizma uchun qabul qilin-gan o'lcham sonlari balandligining taxminan  $5/7h$  qismiga teng. Aylana o'rtasidan o'tuvchi chiziq asosiy yozuvga yoki o'lcham chizig'iga nisbatan  $75^\circ$  qiyalatib o'tkaziladi (16-shakl).



15-shakl. Joy yetishmagan hollarda strelkani nuqta yoki chiziqcha bilan almashtirish.



16-shakl. Diametr belgisining shakli va o'lchami.




17-shakl. O'lchamlar qo'yish.


13. Radius o'lchami oldiga barcha hollarda ham  $R$  bosh harfi qo'yiladi (14, 17, 21-shakllarga qarang).

14. Aynan 18-shaklda ko'rsatilgan hollardagidek o'lchanayotgan kesma bilan chiqarish chiziqlari parallelogramm hosil qilsin.


15. Chiziqli o'lchamlarning o'lcham chiziqlari har xil qiyalikda chizilgan bo'lsa, o'lcham sonlari 19-shaklda ko'rsatilgandek, bur-chaklar esa 20-shaklda ko'rsatilgandek yozilishi zarur. Agar chiziqli va



18-shakl. O'lcham chiziqlariga perpendikular bo'lmagan chiqarish chiziqlarini o'tkazish.



19-shakl. Qiya vaziyatdagi o'lcham chiziqlarining va sonlarning joylashuvi.




20-shakl. Burchak o'lchamlari.

burchak o'lchamlari 20-shaklda shtrixlab ko'rsatilgan zona oralig'ida qiya vaziyatda joylashgan bo'lsa, o'lcham sonlari va harfli belgilari chiqarish chizig'i tokchalariga yozib ko'rsatilishi mumkin.

16. Agar o'lcham sonini yozish uchun o'lcham strelkalari orasida joy yetarli bo'lmasa, u holda o'lcham raqamlarini 21-shaklda ko'rsatilganidek joylashtirish kerak.


17. O'lcham sonlarini boshqa biror chizma chiziqlari bilan kesish yoki bo'lib qo'yishga yo'l qo'yilmaydi. O'lcham chiziqlari kesishgan joyda o'lcham sonlarini yozish mumkin emas. O'lcham sonlari yozilgan joyda o'q va shtrixlarini uzish lozim (22-shakl).




21-shakl. Tor joylarga o'lcham sonlarining yozilishi.

18. Bir necha o'lcham chiziqlari chizilganda chiqarish va o'lcham chiziqlarining o'zaro kesishuviga yo'l qo'yilmaydi. O'lcham chiziqlari kontur o'q markaz yoki chiqarish chiziqlarining davomi sifatida bo'imasligi hamda bir-birlari bilan kesishmasliklari zarur. Bir qancha parallel o'lcham chiziqlari o'tkazilganda ular orasidagi o'lcham sonlari shaxmat tartibida yozilishi lozim (17-shakl).

19. Aylana yoyi markazining vaziyatini ko'rsatish zarur bo'limasa, radius o'lcham chizig'i uzib ko'rsatilishi mumkin (23-shakl, a). Aylana radiusi katta bo'lgan hollarda uning markazi yoyiga yaqinroq olinadi. Bunday hollarda radius o'lcham chizig'i,  $90^\circ$  burchak ostida sinib o'tuvchi parallel to'g'ri chiziq kesmasi shaklida ko'rsatiladi (23-shakl, b).



22-shakl. Shtrixlangan yuzaga o'lcham sonining yozilishi.




23-shakl. Markazi chizmadan tashqari bo'lgan radius o'lcham chiziqlarini o'tkazish.



20. Yumaloqlash radiuslari mazkur chizmaning barcha joyida bir xil bo'lsa yoki biror radius bir necha marta takrorlansa, bu radiuslarning o'lchamlarini bir joyda, ya'ni chizmaning ochiq joyida (asosiy yozuv yuqorisida) quyidagicha ko'rsatish tavsiya etiladi: «Yumaloqlash radiuslari 4 mm», «Ichki yumaloqlash radiuslari 8 mm», «Ko'rsatilmagan radiuslar 3—5» va h. k.

21. Sferaning diametri yoki radiusini ko'rsatuvchi o'lcham sonlarining oldiga  $\emptyset$  ( $R$ ) belgisi qo'yilganda «Sfera» so'zi yozilmaydi (24-shakl, a). Chizmada sferani boshqa sirtlardan ajratish qiyin bo'lsa, o'lcham sonlari oldiga: Sfera so'zi yoki sfera belgisi «O» qo'shib yoziladi, masalan: «Sfera  $\emptyset 25$ », «Sfera  $R10$ », «OR10». Sfera belgisining «O» diametri chizmadagi o'lcham sonlarining balandligiga teng olinadi.


22. Kvadrat yoki kvadrat shaklli teshiklarning o'lchamlari 25-shaklda ko'rsatilgandek qo'yildi. Kvadrat «□» belgi bilan ifodaلانди va u o'lcham sonidan oldin qo'yildi. Tomonlari teng bo'limgan to'g'ri burchakli shakllar va teshiklarning o'lchamlarini bitta strelkali o'lcham chiqarish chizig'ining tokchasiga ikki tomonning ko'paytmasi tarzida yozish mumkin. O'lcham chizig'i to'g'ri burchakning qaysi tomoniga qadalib turgan bo'lsa, o'sha tomonning o'lchami birinchi bo'lib yoziladi (25-shakl, b).



24-shakl. Sferaning o'lchamlarini ko'rsatish.




25-shakl. Kvadrat va to'g'ri burchakli shakllarga o'lchamlar qo'yish.



26-shakl. Murakkab shakllarga o'lchamlar qo'yish.

23. Murakkab shakldagi silindrik buyumlarning diametr o'lchamlarini 26-shakl, *a* da ko'rsatilganidek qo'yish mumkin. Bir markazdan chizilgan turli radiuslarning o'lcham chiziqlarini markazgacha yetkazmaslik mumkin (26-shakl, *b*). Kontur, o'q, markaz va chiqarish chiziqlaridan o'lcham chiziqlari sifatida foydalanishga ruxsat etilmaydi. Aylananing to'la (27-shakl, *a*) yoki qisman (27-shakl, *b*) chizilishidan qat'i nazar, diametrining o'lcham chizig'i aylana markazidan biroz o'tkazib ko'rsatishga ruxsat etiladi (27-shakl, *a*, *b*).




27-shakl. Diametr o'lcham chiziqlarini uzib tasvirlash.

24. Chizmada detalning bir qismi uzib tasvirlanganda, uning o'lcham chiziqlari uzilmasdan to'liq o'tkaziladi (28-shakl).


25. Simmetrik predmetning ko'rinishi yoki qirqimi uzib ko'rsatilsa yoki faqat simmetriya o'qigacha chizilsa, o'lcham chiziqlarini simmetriya o'qidan yoki uzish chizig'idan biroz o'tkazib uzib qo'yiladi (29-shakl).

26. Faqat bir elementga (ariqcha, qovurg'a, teshiklar va shunga o'xshash joylarga) tegishli o'lchamlar, shu element qaysi tasvirda aniqroq ko'rindigan bo'lsa, uni o'sha joyning o'zida ko'rsatish tavsiya etiladi (30-shakl).



27. Strelkalar qo'yish uchun kontur chiziqlari oralig'i torlik qilsa, strelka o'tgan joyda kontur chizig'ini uzib ko'rsatish mumkin (31-shakl).





28-shakl. Uzib tasvirlangan detalning o'lcham chizig'i.






29-shakl. Uzib yoki qirqib tasvirlangan simmetrik detalning o'lcham chiziqlari.



30-shakl. O'lchamlarni gruppab tsvirlash.



31-shakl. O'lcham strelkalari uchun joy yetarli bo'lmaganida kontur chizig'ini uzatish.




32-shakl. Konuslikning belgilanishi.

28. Konuslik o'lchami soni oldiga, uchinining yo'nalishi konus uchi tomon yo'nalgan shartli « $\triangle$ » belgi qo'yiladi (32-shakl).

29. Qiyalik o'lchami soni oldiga uchinining yo'nalishi qiyalik uchi tomon yo'nalgan «>» belgi qo'yish kerak (33-shakl).

30. Qiyalik va konusliklar: oddiy nisbatlarda; o'nlik nisbatda; gradusda va foizda ifodalanishi mumkin. Masalan, qiyalik  $1:10 = 2^\circ 51' 45'' = 10\%$ ; konuslik  $1:3 = 18^\circ 55' 29'' = 33,5\%$ .



33-shakl. Qiyalikning belgilanishi.

GOST 8593-81 ga ko'ra, mashinasozlikda foydalilaniladigan qiyalik va konusliklar 9-jadvalda ko'rsatilgan.


9-jadval

#### Konuslik va qiyaliklar (GOST 8593-81)


Konuslik	Konuslik burchagi $2 \alpha$	Qiyalik burchagi $\alpha$	Boshlang'ich qiyamatlar (Q yoki $2 \alpha$ )
$1 : 200$	$0^\circ 17'11''$	$0^\circ 8'36''$	$1 : 200$
$1 : 100$	$0^\circ 34'23''$	$0^\circ 17'11''$	$1 : 100$
$1 : 50$	$1^\circ 08'45''$	$0^\circ 34'23''$	$1 : 50$
$1 : 30$	$1^\circ 54'35''$	$0^\circ 57'17''$	$1 : 30$
$1 : 20$	$2^\circ 51'51''$	$1^\circ 25'56''$	$1 : 20$
$1 : 15$	$3^\circ 49'6''$	$1^\circ 54'33''$	$1 : 15$
$1 : 12$	$4^\circ 46'19''$	$2^\circ 23'09''$	$1 : 12$
$1 : 10$	$5^\circ 43'29''$	$2^\circ 51'45''$	$1 : 10$
$1 : 8$	$7^\circ 09'10''$	$3^\circ 34'35''$	$1 : 8$
$1 : 7$	$8^\circ 10'16''$	$4^\circ 05'08''$	$1 : 7$
$1 : 5$	$14^\circ 25'16''$	$5^\circ 42'38''$	$1 : 5$
$1 : 3$	$18^\circ 55'29''$	$9^\circ 27'44''$	$1 : 3$

1 : 1,866	30°	15°	30°
1 : 1,207	45°	22°30'	45°
1 : 0,866	60°	30°	60°
1 : 0,652	75°	37°30'	75°
1 : 0,500	90°	45°	90°
1 : 0,289	120°	60°	120°

31. Qiyaligi  $45^\circ$  li faska o'lchamlari 34-shaklda ko'rsatilganidek qo'yiladi. 1 mm. dan kichik faska o'lchamlari chiqarish chizig'i tokchasida ko'rsatiladi (34-shakl). Bundan o'zgacha burchakli faskalarining o'lchamlari umumiy qoidaga binoan ikki chizig'i o'lcham yordamida yoki biri chiziqli, ikkinchisi burchak o'lchami orqali ko'rsatiladi (35-shakl).




34-shakl.  $45^\circ$  burchakli faskaning belgilanishi.



35-shakl.  $45^\circ$  ga teng bo'lmagan burchakli faska o'lchamini qo'yish.

32. Detalning tasviri bir proyeksiyada berilsa, uning qalinligi chiqarish chizig'ining tokchasida ko'rsatiladi (36-shakl, a, b; s 0,5).




36-shakl. Detal qalinligining yoki bir xil elementlarining belgilanishi.

33. Chizmada detalning bir necha xil elementlari (teshik qo‘yiq, paz, faska va h.k.) mavjud bo‘lsa, har qaysi element o‘lchamini shunday elementlar soni bilan birga berish lozim (36-shakl, a, b, d).

34. Chizmada bir xil tasvirlangan, ammo o‘lchamlari turlicha bo‘lgan bir necha gruppaga elementlari mavjud bo‘lsa, bir xil elementlarni shartli belgililar bilan ko‘rsatib, har bir turdagiga element uchun faqat bir marta o‘lcham qo‘yish tavsiya etiladi (36-shakl, b).

35. Detalda baravar masofalarda joylashgan bir xil elementlar (masalan, paz va teshiklar) orasiga o‘lchamlar qo‘yishda, takrorlanuvchi uzunlik (burchak) o‘lchamlari zanjir shaklida emas, balki ko‘paytma tarzida yozilishi lozim, bunda birinchi o‘rinda elementlar oraliqlari sonini, ikkinchi o‘rinda esa oraliqlar o‘lchami yoziladi (37-shakl, a va b).



37-shakl. Oraliqlari bir xil bo‘lgan elementlarga o‘lcham qo‘yish.

36. Predmetda aylana bo‘ylab joylashgan bir xil elementlar (masalan, teshiklar) oralig‘i o‘zaro bir xil uzoqlikda bo‘lsa, bu elementlarning zanjirsimon (yoki burchak) o‘lchamlari o‘rniga teshiklari soni va o‘lchamini ko‘rsatish mumkin (38-shakl).


37. Detallar talab qilingan aniqlikda tayyorlanishi uchun o‘lchamlar quyidagi usullarda qo‘yilishi mumkin:

1. Z a n j i r u s u l i — detalga tegishli barcha elementlarning o‘lchamlari ketma-ket zanjir shaklida qo‘yib chiqiladi (39-shakl, a).


2. K o o r d i n a t u s u l i — bunda barcha o‘lchamlar tanlab olingan biror nuqta, chiziq yoki yuzalar (bazalar) dan boshlab qo‘yiladi (39-shakl, b).

3. K o m b i n a t i y a l a sh g a n u s u l — bunda o‘lcham qo‘yishning zanjir va koordinat usullaridan aralash holda foydalilanadi (39-shakl, b). O‘lcham qo‘yishning bu usuli — ratsional hisoblanadi.

38. Detalga ishlov berishda foydalanilmaydigan, ammo chizmani o'qishni osonlashtiradigan va uning o'lchamini aniqlashga yordam beradigan o'lchamlar *spravka o'lchamlari* deyiladi. Chizmada spravka o'lchamlari «\*» yulduzcha bilan belgilanadi, texnikaviy talabnomalarda esa «spravka o'lchamlari» deb yozib qo'yiladi. Spravka o'lchamlariga yopiq zanjir usulida qo'yiladigan o'lchamlardan birortasi: aynan detalga nisbatan ishlov berilmaydigan detal elementlarining vaziyatini ko'rsatuvchi o'lchamlar; yig'ish chizmasidagi ayrim vaziyatlarini belgilovchi va shu kabi o'lchamlar kiradi (57-shaklga qarang).



38-shakl. Aylana bo'ylab joylashgan bir xil teshiklarga o'lcham qo'yish.



39-shakl. O'lcham qo'yish usullari.

## 2.7. YUZALARING G'ADIR-BUDURLIGI VA ULARNI CHIZMALARDA BELGILASH (GOST 2789-73 VA GOST 2.309-73)

Ish sharoitiga yoki birikish xarakteriga qarab, detallarning yuzalari ma'lum bir talabga javob berishi lozim. Yuzalar sifatini, ularning g'adir-budurligi (tozaligi) xarakterlaydi. Detallar mexanik ishlov berib

yoki boshqa usullar bilan tayyorlanganida, ular yuzasida mikronotekis (mayda o'yiq chiziq) izlar hosil bo'ladi. Bu mikronotekisliklar dettalar yuzasining g'adir-budurligi hisoblanadi. GOST 2789-73 ga muvofiq yuzalarning g'adir-budurligi quyidagi ikki parametrdan birining yordamida aniqlanishi mumkin.


1. Profilning o'rtacha arifmetik chetga chiqishi  $R_a$ :

$$R_a = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (U)_i \quad \text{yoki}$$

2. G'adir-budurliklar balandligi  $R_z$ :

$$R_z = \frac{(h_1 + h_3 + \dots + h_9) - (h_2 + h_4 + \dots + h_{10})}{5}.$$

G'adir-budurlikning sonli qiymatini profil o'rta chizig'i «m» ga nisbatan belgilanadi (40-shakl). O'rta chizig'i ixtiyoriy «b» baza uzunligi chegarasida o'tkaziladi va bu chiziqning har ikki tomonida chiziqqacha joylashgan yuzalar yig'indisi o'zaro teng bo'lishi lozim.



40-shakl. Yuzalar g'adir-budurligining sxematik tasvirlanishi:

$$F_1 + F_3 + \dots + F_{n-1} = F_2 + F_4 + \dots + F_n.$$


Yuzalarning tozalik darajasi undagi g'adir-budurlik parametrlerining ( $R_a$ ,  $R_z$ ) katta-kichikligi bilan ifodalanadi.

GOST 2789-73 da 14 ta tozalik klassi qabul qilingan. Yuzalarning 6÷4 tozalik klasslari qo'shimcha razryadlarga bo'linadi (10-jadval). Tozalik klasslari yuza g'adir-budurligining son qiymati bilan belgilanadi. Yuzalar tozaligi maxsus etalonlarga taqqoslab aniqlanadi. GOST 2.309-73 da yuzalar g'adir-budurliklarini chizmada belgilash qoidalari keltirilgan. Yuzalarning g'adir-budurligini belgilash uchun 41-shaklda tasvirlangan belgilarning biridan foydalaniadi. Agar sirtlarga ishlov berish usuli konstruktor tomonidan belgilanmagan (ya'ni texnologga havola qilingan) bo'lsa, 41-shakl, *a* da ko'rsatilgandek belgi qo'llanadi.

Yo'nish, frezalash, parmalash, protyajkalash va razvyortkalash, jilvirlash toshi bilan pardozlash va shu kabi usullar bilan material qatlamini olib tashlash natijasida hosil bo'lgan bunday sirtlarning tozaligi 41-shakl, *b* da tasvirlangan belgi bilan ko'rsatiladi.

Quyish, bolg'alash, shtamplash, prokatlash va shu kabi usullar bilan yuzalarga ishlov berilganida sirtlar g'adir-budurligi, 41-shakl, *d* da ko'rsatilgan belgi bilan ko'rsatiladi. Aynan shu belgi bilan mazkur chizma bo'yicha ishlov berilmaydigan sirtlar ham belgilanadi.

Beglarning balandligi *h* aynan shu chizma uchun qabul qilingan o'lcham sonlarining balandligiga teng. Balandlik  $H=(1,5-3)/h$  olinadi (41-shakl).



41-shakl. Yuzalar g'adir-budurligini ko'rsatuvchi belgilar.

Standartga muvofiq ishlov berish usulini ko'rsatish va tushuntirish tafsilotini yozish uchun 42-shaklda tasvirlangan tokchali belgidan foydalaniadi. O'quv chizmalarida tokchali belgilardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Tozalik belgilarini kontur, chiqarish chiziqlari yoki chiqarish chiziqlarining tokchalariga qo'yish mumkin (43-shakl).

GOST 2789-73 bo'yicha g'adir-budurlik parametri

Pardozlash turi va boshqa qo'shimcha ko'rsatmalar

Belgi

Beiginining tokchasi


GOST 2789-73 bo'yicha baza uzunligi

G'adir-budurlikning yo'nalishini ko'rsatuvchi shartli belgi

42-shakl. Yuzalar g'adir-budurligini ko'rsatuvchi tokchali belgi.

Belgi qo'yilayotgan chiziqqa tozalik belgisining o'tkir uchi tegib turishi va uning burchak bissektrisasi esa yuza chizig'iga perpendikular bo'lishi lozim. Sirtlar g'adir-budurligini GOST 2789-73 ga ko'ra belgilashda tegishli parametr qiymatlari chizmada quyidagicha ko'rsatiladi, masalan,  $R_a$  parametri uchun faqat sonli qiymatlarni  $\checkmark$ ,  $R_z$  parametri uchun harfli belgisi va sonli qiymatlar

$R_z \checkmark$  (43-shakl).



43-shakl. G'adir-budurlik parametrlarini va belgilarini chizmada tasvirlash.

Parametrlar qiymati 10-jadvaldan olinadi. Detall yuzalarining g'adir-budurligi ularning ish sharoitiga va bajaradigan vazifasiga qarab belgilanadi. O'quv chizmalarida sirtlar g'adir-budurligi detalga ishlov berish turi (44-shakl)ga hamda quyidagi mulohazalarga qarab tubandagicha aniqlanishi mumkin:

1. Detallar sirti bir-biriga tegib tursa va ular o'zaro siljisa, bunday sirtlarning g'adir-budurligi taxminan 6÷9-klassga mos keladi.

2. Detaliar sirti bir-biriga tegib tursa va o'zaro siljimasa, bunday sirtlarning g'adir-budurligi taxminan  $3+6$ -klassga mos keladi.

3. Boshqa sirtga tegib turmaydigan detallar sirti, taxminan  $3+4$ -klassga mos g'adir-budurlikka ega bo'lishi mumkin.

4. Estetik jihatdan ko'r kam bo'lishi uchun sirtlar  $5+7$ -klassga mos g'adir-budurlikka ega bo'lishi kerak.

5. Rezbalar sirtining g'adir-budurligi  $4+7$ -klassga mos keladi.


*JO-jadval*

### **Yuzalarning tozalik klasslari va g'adir-budurliklari**

(GOST 2789-73)

T/r	Toza-lik klassi	Raz-ryad-lari	G'adir-buduriiklar parametri				Baza uzunligi				
2	1	—	80	dan	40	gacha	320	dan	160	gacha	8,0
	2	—	40	»	20	»	160	»	80	»	
	3	—	20	»	10	»	80	»	40	»	
2	4	—	10	»	5,0	»	40	»	20	»	2,5
	5	—	5,0	»	2,5	»	20	»	10	»	
3	6		2,5	»	2	»	10	»	8,0	»	
			2	»	1,6	»	8,0	»	7,4	»	
			1,6	»	1,25	»	7,5	»	6,3	»	
4	7		1,25	»	1,0	»	6,3	»	5,0	»	
			0,1	»	0,8	»	5,0	»	4,0	»	0,8
			0,8	»	0,63	»	4,0	»	3,2	»	
5	8		0,63	»	0,5	»	3,2	»	2,5	»	
			0,5	»	0,4	»	2,5	»	2,0	»	
			0,4	»	0,32	»	2,0	»	1,6	»	
6	9		0,32	»	0,25	»	1,6	»	1,25	»	
			0,25	»	0,2	»	0,25	»	1,00	»	
			0,8	»	0,16	»	1,00	»	0,80	»	

7	10		0,16 » 0,125 » 0,125 » 0,1 » 0,1 » 0,08 »	0,80 » 0,63 » 0,63 » 0,50 » 0,50 » 0,40 »	
8	11		0,08 » 0,063 » 0,063 » 0,05 » 0,05 » 0,04 »	0,40 » 0,32 » 0,32 » 0,25 » 0,25 » 0,20 »	0,25
9	12		0,04 » 0,032 » 0,032 » 0,025 » 0,025 » 0,02 »	0,20 » 0,160 » 0,16 » 0,125 » 0,125 » 0,100 »	
10	13	<i>a</i>	0,020	0,1 » 0,08 »	
		<i>b</i>	0,016	0,08 » 0,63 »	
		<i>d</i>	0,010	0,063 » 0,05 »	0,88
11	14	<i>a</i>	0,010	0,05 » 0,04 »	
		<i>b</i>	0,008	0,04 » 0,032 »	
		<i>d</i>	—	0,032 » 0,025 »	




44-shakl. Turli xil asboblarda ishlangan yuzlarning taxminiy g'adir-budurligi.

45-shakl, *a*, *b* da g'adir-budurlikning tokchali va tokchasisiz belgilarini chizmalarda ko'rsatish tasvirlangan. Agar sirtlar  $30^{\circ}$  burchakli shtrixlangan zonada joylashgan bo'lsa, tozalik belgilari strelkali chiqarish chizig'ning tokchasi ustiga qo'yiladi. Detalning barcha sirtlari bir xil g'adir-budurlikka ega bo'lsa, tozalik klasining belgisi chizmaning yuqorigi o'ng burchagiga qo'yiladi (46-shakl, *a*). Tasvirdagi qaraganda chizmaning yuqorigi o'ng burchagiga qo'yilgan belgining o'lchamlari taxminan 1,5 marta katta va ramka chiziqlaridan 5—10 mm narida turishi kerak (46-shakl, *b*).


Buyum sirti ma'lum qismining tozaligi bir xil bo'lsa, chizmaning yuqorigi o'ng burchagiga sirtlarning tozaligini ko'rsatuvchi belgi va uning yonida qavsda ko'rsatilgan shartli ( $\checkmark$ ) belgi yoziladi. Qavs ichidagi belgi buyum tasvirida belgilangan sirtlardan tashqari qolgan barcha yuzalar, qavs oldida tasvirlangan belgi g'adir-budurligidek tozalikka ega ekanligini ko'rsatadi (46-shakl, *b*).

Qavs ichidagi va detal tasviridagi belgilar o'lchami bir xil bo'ladi. Agar buyum sirtining ma'lum bir qismi pokovka holida qolishi zarur bo'lsa, tozalik belgisi 46-shakl, *d* da ko'rsatilganidek chizmaning o'ng burchagiga qo'yiladi. Ushbu chizmaga muvofiq detalning biror sirtiga ishlov berilmaydigan bo'lsa, chizmaning o'zida uning tozalik belgisi ko'rsatiladi (46-shakl, *e*). Detallardagi tish, paz, teshik va shu kabi elementlarning tasviri chizmada necha bor takrorlanishidan qat'i nazar ular tozaligi bir joyda faqat bir marta ko'rsatiladi (47-shakl, *b*). Shlitsalar, g'ildirak tishlari ish yuzalarining g'adir-budurlik belgilari bo'luvchi aylana chiziqlariga qo'yiladi (47-shakl, *a*, *b*, *d*). Globoidal chervyaklarda esa tozalik belgisi hisoblash aylanisiga qo'yiladi (47-shakl, *f*).


Detaldagi ma'lum bir sirtning turli qismlarida tozalik turlicha bo'lsa, bu uchastkalar bir-biridan tutash ingichka chiziq bilan ajratib



45-shakl. Turli vaziyatdagi yuzalarga g'adir-budurlik belgilarining qo'yilishi.



46-shakl. Chizmalarda g'adir-budurlik belgilarining qo'yilishi.




47-shakl. Takrorlanuvchi elementlar yuzalarining g'adir-budurligining belgilanishi.


qo'yiladi. Har bir uchastka uchun tegishli o'lcham va tozalik belgilari alohida-alohida qo'yib chiqiladi (48-shakl, a). Zonalar chegara chizig'i shtrixlangan joydan o'tkazilmaydi (48-shakl, b).

Detal yuzasi ayrim qismlarining g'adir-budurligi har xil bo'lsa, bu uchastkalar ingichka chiziq bilan chegaralanib, tegishli o'lcham va tozalik klasslari har bir uchastka uchun alohida-alohida qo'yiladi (48-shakl).

Detal konturi bo'yicha tozaligi bir xil bo'lsa, sirtlarning tozalik belgisi bir joyda bir marta, kontur bo'yicha degan «O» belgi bilan belgilanadi (49-shakl, a). Yordamchi belgining diametri  $4 \div 5$  mm olinadi. O'zaro ravon egri chiziqlar bilan tutashgan har xil tozalikdagi sirtlarga «kontur bo'yicha» belgisi qo'yilmaydi. Murakkab shakldagi sirtlarning g'adir-budurligi 49-shakl, b da ko'rsatilganidek tasvirlanadi. Bunda tozalik parametrlari chizmaning texnikaviy shartlarida: «A sirtning g'adir-budurligi A —  tipida yozib qo'yiladi.




48-shakl. Bitta yuzanining turli uchastkalaridagi g'adir-budurligining belgilanishi.



49-shakl. Konturi bo'yicha tozaligi bir xil bo'lgan detal sirtlarining belgilanishi.

Rezba sirtlarining g'adir-budurligi shartli ravishda chiqarish yoki o'lcham chizig'iga (50-shakl, b, d, e, f, g, h), agar rezba profili orqali tasvirlangan bo'lsa, belgi umumiy qoidaga muvofiq qo'yiladi (50-shakl, a).



50-shakl. Rezba sirtlari g‘adir-budurligining belgilanishi.

## 2.8. MASHINASOZLIKDA ISHLATILADIGAN MATERIALLAR

Sanoatning va qurilishning barcha sohalarida materiallarning juda ko‘p turlaridan: po‘lat, cho‘yan, rangli metallar, metallmas va to‘qimachilik sanoatining mahsulotlaridan foydalaniлади. Chizmalarda esa, materiallarning nomini, belgisini va sifat ko‘rsatichilarini asosiy yozuvning maxsus grafasiga, materiallarni belgilashning yagona sistemasi (*ECOM*)<sup>1</sup> talablari asosida yoziladi. Materiallar:

1. EHMda ishlov beriladigan hujjalarning uchun, mahsulotning davlat klassifikatori talabiga muvofiq raqamli yozuvlarda belgilanadi.
2. Texnikaviy-normativ hujjalarda esa harf va raqamli belgililar yordamida belgilanadi.

Materialning belgisiga: materialning nomi, markasi, kimyoviy tarkibi, mexanik xossasi va standart nomeri kiradi. Agar material shartli *St*, *Sch*, *Br* va hokazo belgilarga ega bo‘lsa, u holda materialning nomi to‘liq yozilmaydi.

*I. Po‘lat.* Tarkibida temir va 2 % gacha uglerod hamda boshqa elementlar bo‘lgan qotishma *po‘lat* deyiladi. Kimyoviy tarkibiga qarab

<sup>1</sup>*ECOM* — Единая система обозначения материалов.

uglerodli va legirlangan po'latlarga, vazifasiga ko'ra esa konstruksion, asboboszlik va maxsus po'latlarga bo'linadi. Oddiy sifatli po'latlar GOST 380-88 ga muvofiq ishlanadi. Uglerodli konstruksion sifatlari po'latlar GOST 1050-88 ga muvofiq, legirlangan po'latlar esa GOST 4543-71 ga muvofiq tayyorlanadi. Bunday po'latlarning xarakteristika va ishlatish joylari 11-jadvalda keltirilgan.

*II. Tarkibida temir* va 2 % dan ortiq (3—5 % gacha) uglerod bo'lган qotishma cho'yan deyiladi. Cho'yan quymalaridan: kulrang cho'yan GOST 1412-85 ga muvofiq, bolg'alanuvchi cho'yan GOST 1215-79 ga muvofiq, antifriksion cho'yan GOST 1585-79 ga muvofiq va yuqori puxtalikdagi (VCh) cho'yan GOST 7293-85 ga muvofiq ishlanadi. Cho'yan belgisi ikki xil raqamdan iborat bo'lib, birinchisi cho'zilishga bo'lган mustahkamlik chegarasi ( $\text{kgs}/\text{mm}^2$ ), ikkinchisi esa egilishga bo'lган mustahkamlik chegarasi ( $\text{kgs}/\text{mm}^2$ ). Cho'yanlarning xarakteristikasi, ishlatilish joylari va belgilanishi 11-jadvalda keltirilgan.

*III. Rangli metallar:*

1. *Jez (latun)* — misning rux (39 % gacha) va boshqa metallar bilan qotishmasi. Bu metall GOST 17711-80 ga muvofiq ishlanadi.
2. *Bronza*. Ko'p komponentli qotishma bo'lib, uning tarkibida mis, rux, qalay, qo'rg'oshin, temir kabi elementlar bo'ladi. Bu qotishma GOST 493-79 va GOST 613-79 ga muvofiq ishlanadi.
3. *Babbit* qo'rg'oshin yoki qalayning mis va surma qo'shilgan qotishmasidir. Babbit tarkibida rux asosiy qismni tashkil etadi. Babbit GOST 1320-74 ga muvofiq ishlanadi.
4. *Aluminiy*. Boshqa metallarga qaraganda yengil bo'lgani uchun samolyotlar yasashda ishlatiladi. Aluminiyning quyma qotishmalari GOST 2685-75 ga, list ko'rinishidagi qotishmalari GOST 4784-74 ga muvofiq ishlab chiqariladi. Rangli metallarning ishlatilish joylari va belgilanishi 11-jadvalda keltirilgan.

*IV. Metallmas materiallar.* Bunday materiallarga plastmassalar, pressmateriallar, yog'och, texnik rezinalar, voloknitlar, shisha-paxtalar va shunga o'xshashlar kiradi. Bu materiallarning standartlari, ishlatilish joylari va belgilanishi 11-jadvalda keltirilgan.

## Mashinasozlikda ishlataladigan materiallar xarakteristikasi

T/r	Materiallarning nomi	Materiallar markasi	Ishlatilishi
1	Uglerodli od-diy sifatli po'lat (GOST 380-88)	St.0	Qistirma, halqa, burchaklik (tirsak), shayba va plankalar uchun
		St.1	Suv, bug' va gaz trubalari, qistirma hamda g'iloflar
		St.2	Payvandlab yasalgan detal, alanga o'tadigan truba, parchin mix, shayba, shplintlar va boshq.
		St.3	Richag, qopqoq, changak, valik, o'q, tortqi, halqa, bolt, shpilka, vint, gayka va shaybalar
		St.4	Val, o'q, tortqi, flanes, tashlama bolt va qurilish konstruksiyalari
		St.5	Val, o'q, krivoshin barmog'i, tishli g'ildirak, traversa, richag, tortqi, yulduzcha, mas'uliyatli ishlarga mo'ljallangan bolt, shpilka, gayka hamda shtiftlar
2	Konstruksion sifatli uglerodli po'lat (GOST 1050-88)	15	O'q, valik, barmoq, ilmoq, halqa, payvandlab yasalgan detal, traversa, flanes, parchin mix, vint va gaykalar
		20	Taqsimlash vali, tormoz va tezlik qutisining valigi, o'qi va richagi, podshipnik hamda klapanlar korpusi, shatun bar-moqchasi, vtulka, stutser, bolt va shaybalar
		25 30	Silindr, shpindel, val, o'q, shtok-vilka, bolg'alab va shtamplab yasalgan richag hamda boshq.
		35 40	Val, shpindel, shtok, tishli g'ildirak, yulduzcha, dasta o'rnatish vinti, mas'uliyatli boltlar va boshq.

		45 50	Tirsakli val, kardan vali, tishli gildirak, porshen, shatun, fiksator, shtiftlar va boshq.
		50 G	Spiral prujina, shlitsali val, shesterna, friksion disk va ishqalanishga ishlaydigan boshqa detallar
		60 G 65 G	Spiral prujina, tormoz hamda friksion disk, prujina shaybasi, tirak halqa, tishli g'ildirak, o'ta elastik puxtaligi yuqori boshqa detallar
3	Uglerodli po'lat qo'y-malari (GOST 977-75)	20 L 25 L	Stanina, rama va podshipnik korpusi, porshen, kronshteyn, maxovik, yuqori issiqlikda ishlaydigan armatura detallari va boshq.
		30 L 35 L	Reduktorlar korpusi, tishli g'ildirak, qiyin sharoitda ishlatiladigan detallar hamda umumiy mashinasozlikda ishlatiladigan mayda, o'rtacha va yirik quyma detal va boshq.
		30 L 35 L	Tishli g'ildirak, mufta, kranlar yurgizish g'ildiragi, valiklar
4	Konstruksion legirlangan po'lat (GOST 4543-71)	15 X 20 X	Tirsakli val, kulachokli mufta, tishli g'ildirak, chervyak, porshenlar halqasi bilan barmoqchalar, shpindellar, gilza va boshq.
		40 X 45 X	Tirsakli val, o'q, tishli g'ildirak, yulduzcha, chervyaklar vali, kulachokli mufta, krivoshin, zanjirlar zvenosi, kulachok, reyka va boshq.
		20 XGR 20 XGNR	Tishli g'ildirak, val, chervyak, kulachokli mufta, valik, vtulka va boshqalar
		40 XNMA	Tirsakli val, klapan, shatun, tishli g'ildirak, shakli murakkab qiyin sharoitda ishlatiladigan detal va boshq.
		38XYU 38XMYUA	Aniq mashinasozlikda, turbina va motor-sozlikda qo'llanadigan mas'uliyatlidetallar, tishli g'ildirak, ichki yonuv dvigateli silindrining gilzasi, shpindel, klapanlar shtogi, stakan hamda boshq.

5	Kulrang cho'yan quymalari  GOST 1412-85	<i>SCH00</i> <i>SCH12</i>	Muhim bo'limgan quymalar, plita, ustun, mayda shkiv, chambarak, flanes va boshq.
		<i>SCH15</i> <i>SCH20</i>	Nasos, vintel, podshipnik, klapanlar korpusi, qopqoq, shkiv, maxovik, tishli g'ildirak, porshen halqasi, armatura va boshq.
		<i>SCH25</i> <i>SCH30</i>	Muhim quyma: silindr bloki, porshen, katta nagruzkada ishlaydigan tishli g'ildirak, tirsakli val, klapan va boshq.
6	Bolg'alanuv- chan quyma cho'yan  (GOST 1215-79)	<i>KCH30-6</i>	Mufta, klapan, xomut va kam nagruzka tushadigan detallar
		<i>KCH33-8</i>	Qopqoqlar, quti, kronshteyn, changak, sobachka va o'rtacha nagruzka tushadigan detallar
		<i>KCH45-6</i>	Tirsakli val, mufta, vilka, yulduzcha va katta nagruzka tushadigan detallar
7	Qalayli bronzalar  (GOST 631-79)	<i>BrOSSZ</i> 12-5	Antifriksion detal chuchuk suv va bug'muhitida ishlatiladigan armatura detallari
		<i>BrOSS-5-5</i> <i>BrOSS6-6-3</i>	Armatura detali, sirpanish podshipnigi va boshqa antifriksion detallar
8	Qalaysiz bronzalar  (GOST 493-79)	<i>BrAJ9-4</i>	Chiviqdan yasalgan buyumlar, chervyak g'ildiraklari
		<i>BrAJN</i> 10-4-4	Truba, pokovka, shakldor quyma, chiviq buyum va boshq.
		<i>BrA11-6-6</i>	Mas'uliyatli joyda ishlatiladigan shakldor quymalar
9	Latun (jez)lar  (GOST 15527-70)	<i>L62</i>	Parchin mix, shayba, qistirma, chiviq va boshq.
		<i>L68</i>	Polosa list, lenta, truba, sim va boshq.
		<i>LS59-1</i>	List, chiviq, truba, sim, vtulka, kran, shtutser, vintlar va korroziyalanib qolishi mumkin bo'lgan muhitlarda ishlatiladigan boshqa detallar
	GOST 17711-80	<i>LMsS</i> 58-2-2	Podshipnik, vtulka va boshqa antifriksion detallar

		<i>LMSOS</i> 58-2-2	Tishli g'ildiraklar
		<i>LAJ60-11L</i> <i>LKS</i> 80-3-3	Armatura, podshipnik, vtulka va boshq. Quyma podshipnik, vkladish, tormoz zolotnigining detali va boshq.
		<i>LKS 80-3L</i>	Tishli g'ildirak, quyma armatura, dengiz suvi muhitida ishlataladigan asboblar-ning detallari va boshq.
		<i>LAJMs</i> 66-6-3-2	Vintlar gaykasi, qiyin sharoitda ishlataladigan yirik chervyaklar vinti
10	Babbitlar (GOST 1320-74)	<i>B83, B16,</i> <i>BN, BT</i>	Quyma podshipnik uchun
11	Deformat- siyalanadi- gan (GOST 4784-74)	<i>D1</i> <i>DIP</i>	List, sim, korroziyaga chidamsiz, shakli murakkab bolg'alah va shtamplash yo'li bilan tayyorlangan detallar
		<i>AK2</i> <i>AK4</i>	Korroziyaga bardoshli qoniqarli, o'ta issiq sharoitda ishlataladigan detal va boshq.
	Aluminim qotishmalari	<i>AL2</i> <i>AL4</i>	Shakli murakkab korroziyabardosh detallar: karter, korpus, silindrlar bloki, dvigatel porshenlari, rotor, polzun va boshq.
12	Vinniplast (GOST 9689-71)	<i>VN, VP,</i> <i>VNE</i>	Nasos va ventilator detallari, tishli g'ildirak, podshipnik, vkladish, disk, shkiv, qopqoq, dastalar; turli xil elektrik, izolatsiya detallari: shayba, qistirma, vtulka, knopka va boshq.
13	Getinakslar (GOST 2718-74)	<i>ON,</i> <i>ONT,</i> <i>TAT</i>	Korpus detallari, qopqog'i, paneli; radio apparatura detallari va boshq.
14	Plastik yog'och qatlamlari (GOST 8797-58)	<i>DSP-G</i>	Vtulka, podshipnik, vkladishi (babbit o'rniga)
15	Kapron	—	Ventilator parragi, sirpanish podshipnigi chervyaklar, korpussimon detallar, trubalarni ulash muftasi, truba, manjet, zolotnik va boshq.

16	Poliamidlar	68	Nasoslar parragi, podshipnik, ventil, shkiv, shesterna, klapan egari, vint, armatura va boshqa ishqalanish uzellaring detallari
17	Polietilen (GOST 16337-70)	<i>PE150</i> <i>PE300</i> <i>PE450</i> <i>PE500</i>	Nasoslar detali, kichik nagruzka tushadigan shesterna bilan yulduzcha, himoya qutisi va qopqog'i, trubalarni ularash muftasi, kabellar izolatsiyasi, trubalar, shlang va boshq.
18	Tekstolit (GOST 5-78)	<i>PT</i> <i>PT-1</i> <i>PTK</i>	Tutqich, halqa, sirpanish podshipnigi, shovqinsiz ishlaydigan shesterna, uza-tish vintlari, elektrik izolatsiya detali (qistirma bilan shayba) va boshq.
19	Fenoplastlar (GOST 5689-79)	<i>K-17-2,</i> <i>K-18-2,</i> <i>K-18-56</i>	O'lchov apparati va turli xil asboblar korpusi, qopqog'i, flaneslar, chambarak, qistirma, tugma va boshq.
20	Fenoplastlar (GOST 14906-77)	<i>SH, L</i> <i>E, T</i>	Sirpanish podshipnigi, vtulka, vkladish, radioapparatlarning izolyatsiya detallari va boshq.
21	Selluloidlar (GOST 428-79)	—	Asboblarning shaffof detali va boshq.
22	List ko'rini-shidagi texnik rezina (GOST 7338-77)	<i>KSH,</i> <i>T, M,</i> <i>MB, P</i>	Qistirma, klapan, zichlagich, amorti-zator va boshq.
23	List ko'rini-shidagi fibra va to'qima rezinalar(GOST 14163-79)	<i>FSB, FT,</i> <i>FE, FP,</i> <i>FPK</i>	Kimyo mashinasozligi apparatlarining korpusi bilan qopqog'i tutashgan joyida germetiklik hosil qilish uchun ishlatalidigan detallar
24	Poronitlar (GOST 481-80)	<i>PON,</i> <i>NMB,</i> <i>PA, PE,</i>	Qistirma va boshq.
25	Tabiiy texnika-viy charmlar (GOST1898-80)	<i>KG, KB,</i> <i>KS</i>	Qistirma, manjet va boshq.
26	Salnik zich-lagichi (GOST 5152-84)	<i>PS, PP,</i> <i>AS, AP</i>	Germetiklik hosil qilish uchun

## **2.9. ASOSIY YOZUV VA UNING FORMATLARDA JOYLAshUVI (GOST 2.104-68)**

Ishlab chiqarishning asosiy va yordamchi buyumlari chizmalarining hamda boshqa texnikaviy hujjatlarining asosiy yozuvlari, shuningdek, ularni to‘ldirish tartibi GOST 2.104-68 da belgilangan. Asosiy yozuvlarning mazmuni, joylashuvi va grafalarining o‘lchamlari, shuningdek, sxema va chizmalarining ramka o‘lchamlari 1-namunaga muvofiq (51-shakl), yozma ravishdagi konstrukturlik hujjatlarining asosiy yozuvlari joylashgan birinchi (bosh) listi 2-namunaga muvofiq (52-shakl), keyingi listlari esa 2(a)-namunaga muvofiq (53-shakl) to‘ldiriladi.

Asosiy yozuv hamda ramka chiziqlari GOST 2.303-68 ga ko‘ra, asosiy tutash va ingichka tutash chiziqlarda (51, 53-shakllar) bajariladi. 54,55-shakllarda chizma listini formatlarga bo‘lish va asosiy yozuvlarni joylashtirish ko‘rsatilgan.


GOST 2.104-68 ga muvofiq *A4* formatli (297x210 mm) chizma listidagi asosiy yozuv listning faqat qisqa tomoni bo‘yicha joylashtiriladi (54-shakl), *A4* formatdan katta listlarning asosiy yozuvlari, chizma listining uzun tomoni bo‘ylab ham (54, 55-shakl), qisqa tomoni bo‘ylab ham joylashtirilishi mumkin. Chizmada (sxemalarda) buyum tarkibiy qismlarini tez topish uchun chizma sathini zonalarga bo‘lish tavsiya etiladi. Chizmani zonalarga ajratuvchi belgilar oraliq‘i *A4* formatning tomonlaridan biriga teng qilib olinishi tavsiya etiladi (56-shakl, *a*, *b*). Zonalar belgisi gorizontal bo‘yicha arab sonlari bilan o‘ngdan chapga qarab, vertikal bo‘yicha lotin alifbesidagi harflar bilan pastdan yuqoriga qarab qo‘yiladi.

Zonalar harf va sonlar bilan birgalikda belgilanadi, masalan, *A1*, *A2*, *A3*, *B1*, *B2*, *B3* va h. k Chizma maydonini chegaralab turgan ramka chizig‘i qog‘oz chetlaridan 5 mm ichkarida asosiy tutash chiziqlarda o‘tkaziladi (55-shaklga qarang). Agar chizma albom qilib tikiladigan bo‘lsa, ramka chizig‘i chizma qog‘ozining chap tomonidan 20 mm, boshqa tomonlarida 5 mm ichkarida o‘tkaziladi (54-shaklga qarang).

Asosiy yozuv grafalarining to‘ldirilishi (grafa nomerlari chizmada qavsda ko‘rsatilgan).


*1-grafa* — GOST 2.107-68 talablariga muvofiq buyumning, shuningdek, shifrlangan, texnikaviy hujjatlarning nomi:

*51-shakl.* Asosiy yozuvning mazmuni, graflarining joylashuvini va o'lcamlari (*l-namuna*).




52-shakl. Yozma konstrukturlik hujjatlarning asosiy yozuvlari (2-namuna).


20	(19-25) gruzalalar									
	GOST 2.104-68 bo'yicha qo'shimcha									
	8x5=40									
	8x5=40									
	(2)									
	(1)									
	(31)									
	50									
	15 15 15 15 15 15 15 15 15 15									
	5 5 5 5 5 5 5 5 5 5									
	185 120 10 23 15 10 7 10 15 10 15									
	5 5 5 5 5 5 5 5 5 5									
	Listlar Listlar Listlar Listlar Listlar									
	(7) (8) (9) (10) (11) (12) (13) (14) (15) (16)									
	Sano Imzo Hujjat № Dizgi List									
	Bajardi Tekshir. N. kontir. Tashiql.									




53-shakl. Yozma konstrukturlik hujatlarning asosiy yozuvি (keyingi listlar uchun (2 a-namuna)).



54-shakl. Albom qilib tikilesigən formatlar və asosiy yozuvlarının  
joyashtırılması.



55-shakl. Albom qılıb tikilmaydigan formatlar və asosiy  
yozuvlarını joylashtırish.



56-shakl. Chizma maydonini zonalarga bo'lish.

*2-grafa* — GOST 2.201-80 ga ko'ra texnikaviy hujjatning nomi yoki belgisi.

*3-grafa* — detal materialining shartli nomi (faqat detal chizmalari uchun to'ldiriladi).

*4-grafa* — GOST 2.103-68 ga muvofiq mazkur hujjatga berilgan literi (chapki eng chetki katakdan boshlab to'ldiriladi).

*5-grafa* — GOST 2.100-73 ga ko'ra buyumning massasi, kg.

*6-grafa* — ayni buyumning GOST 2.302-68 va GOST 2.100-73 larga ko'ra masshtabi.

*7-grafa* — listning tartib nomeri. Bitta listda chizilgan hujjatlar uchun ushbu grafa to'ldirilmaydi.

*8-grafa* — hujjat umumiy listlari soni faqat birinchi listda to'ldiriladi.

*9-grafa* — hujjat chiqarilgan korxonaning farqlanish indeksi (agar hujjat belgisida korxonaning farqlanish indeksi mavjud bo'lsa, bu grafa to'ldirilmaydi).

*10-grafa* — 1 va 2-namunaga muvofiq, hujjatga imzo qo'ygan shaxslar mansabi. Bo'sh qatorlar hujjatni bajaruvchi tashkilot xohishi bilan to'ldiriladi, masalan, «Bo'lim boshlig'i», «Laboratoriya boshlig'i hisoblab chiqdi».

*11-grafa* — hujjatga imzo qo'ygan shaxslarning familiyasi.

*12-grafa* — 11-grafada familiyasi ko'rsatilgan shaxslar imzosi.

*13-grafa* — hujjatga imzo qo'yilgan sana (kun, oy va yil).

*14, 18-grafa* — o'zgartirishlar jadvalining grafalari bo'lib, GOST 2.503-74 ga muvofiq to'ldiriladi.

*19, 25-grafalar* — o'zgarishlar yozib qo'yiladi.

*26-grafa* — hujjatning belgisi yoziladi. Agar A4 va undan katta formatlarning asosiy yozuvi listing uzun tomoni bo'ylab joylash-tirilsa, bu grafa 180° ga burilgan holatda ko'rsatiladi.

*27, 30-grafalar* — buyurtmachi tomonidan to'ldiriladi.

*31-grafa* — chizmani ko'chirgan kishining familiyasi.



## **2.10. CHIZMALARDA BUYUM TARKIBIY QISMLARIGA POZITSIYA NOMERLARINI QO'YISH (GOST 2.109-73)**

Yig'ish chizmalarida yig'ma birlikning barcha tarkibiy qismlari ayni yig'ma birlik spetsifikatsiyasida ko'rsatilgan pozitsiya nomerlariga muvofiq nomerlab chiqiladi. Pozitsiya nomerlari tarkibiy qismlar tasviridagi chiqarish chiziqlarining tokchasida ko'rsatiladi (57-shakl). Pozitsiya nomerlari buyumning asosiy ko'rinishlarida, shuningdek, uning tarkibiy qismlari yaqqol ko'ringan qirqim yoki chetga chiqarish elementlarida ko'rsatiladi. Buyum tarkibiga kiruvchi har bir detal yoki yig'ma birliklar pozitsiya nomeri chizmada faqat bir marta yoziladi.

Buyumning takrorlanuvchi bir xildagi tarkibiy qismlari pozitsiya bilan bir xil bo'lgan nomer yoki belgi bilan ko'rsatiladi, shuningdek, detallar takror ko'rsatilganida pozitsiya nomeri tokchasining ostiga chiziqcha chizib ko'rsatish tavsiya etiladi. Pozitsiyalarning nomerlarini yoki belgilarini chizmaning asosiy yozuviga parallel holda gorizontalla yoki vertikaliga bir qator qilib joylashtiriladi. Detalning pozitsiya nomerlari mazkur chizma uchun qabul qilingan o'lcham sonlarining shriftlariga qaraganda bir-ikki o'lchamga kattaroq shriftda yoziladi.


Chiqarish va tokcha chiziqlari ingichka tutash (S/3) chiziqlarda bajariladi. Chiqarish chiziqlari kesishmasligi, shtrixlash chiziqlariga

MCH.12.02.00.00.SB



ʃəkəl. Yig'uv chizmasida pozisiya nomerlarning ko'satilishi

parallel tokchalariga yoziladi (agar shaxsiyengän yuzadar chiziqiga bo'sa) hamda chizmarining o'liham chiziqlarini va buyumning boshqa tarkibiy qismlari tasvirini mumkin qadar kesib o'tmasligi kerak. Chiqarish chiziqlarining bir uchi detaillring ko'rnadigan tasvirida nuqta bilan, "kinch" uchi esa chizma konturidan tashqasida tokcha uchi bilan birlashtiriladi. Mahkamash joyiga tegishli mahkamlash detallari gruppasi uchun pozitsiya nomeriari chiqarish chizig'ida (vertikal) ustun shaklidá joylashgar parallel tokchalarga yoziladi (58-shakl).



58-shakl. Mahkamash gruppasiga pozitsiya nomerlarini o'yish.

## 2.11. SPETSIFIKATSIYA

Sanoatning barcha tarmoqlari ishiab chiqarayotgan buyumiarining konstruktoriik hujjatlaridagi spetsifikatsiya namunasi va uni to'ldirish tartibi GOST 2.108-68 da belgilangan. Spetsifikatsiyasi tuzilayotgan mazkur buyum tarkibiga kiruvchi barcha asosiy tarkibiy qismlarning ro'yxati, shu bilan birga, buyum tarkibiy qismlariga tegishli bo'igan konstruktoriik hujjatlari kiritilgan jadva — *spetsifikatsiya* deyiladi.

Spetsifikatsiya alohida A4 formatda tuziladi. Yig'ma birlik kompleks va komplektlar spetsifikatsiyasi 1-namuna (bosh list) ga muvofiq va qolgan listlar esa i a-namunaga muvofiq tuziladi (59, 60-shakllar). Bosh listdag'i asosiy yozuv 2-namuna bo'yicha, keyingi listlardagi yozuv esa 2 a-namunaga muvofiq bajariladi (52, 53-shakllar).

Spetsifikatsiya — yig'ma birlik kompleks va komplektlar tarkibini aniqlash, konstruktoriik hujjatlarini komplektlash, ko'rsatilgan buyumlarni ishlab chiqarishga joriy etishni rejalashtirish uchun zarur.

Spetsifikatsiya quyidagi bo'limlardan iborat: «Hujjatlar», «Komplekslar», «Yig'ma birliklar», «Detallar», «Standart buyumlar», «Boshqa buyumlar», «Materiallar», «Komplektlar». Spetsifikatsiya jadvalida u yoki bu bo'limning mavjudligi spetsifikatsiyasi tuzilayotgan buyumning tarkibiga bog'liq. Har bir bo'limning nomi, spetsifikatsiyaning «Nomi» grafasida sarlavha sifatida ko'rsatiladi va ostiga ingichka chiziq chizib qo'yiladi (61-shaklda mustanining tasviri hamda

210	6	6	8	70	70	63	63	10	22	5
20	6	6	8	70	70	63	63	10	22	5
Format	Zona	Poč.								
Formati	Zona	Poč.								
Sana										
E5-kama										
Nomi										
Belgisi										
Sana										
E5-kama										

210	6	6	8	70	70	63	63	10	22	5
20	6	6	8	70	70	63	63	10	22	5
Format	Zona	Poč.								
Formati	Zona	Poč.								
Sana										
E5-kama										
Nomi										
Belgisi										
Sana										
E5-kama										

210	6	6	8	70	70	63	63	10	22	5
20	6	6	8	70	70	63	63	10	22	5
Format	Zona	Poč.								
Formati	Zona	Poč.								
Sana										
E5-kama										
Nomi										
Belgisi										
Sana										
E5-kama										

GOST 2 104-68 bo, picha qo shimcha grifqa

297

60

GOST 2 104-68 asosiy yozuv (2a-namuna)

GOST 2 104-68 asosiy yozuv (2-namuna)

59-shakl. Spetsifikatsiya (keyimi listlar  
(1-namuna). (1 a-namuna).

60-shakl. Spetsifikatsiya (keyimi listlar  
uchun) (1 a-namuna).

60

62-shaklda uning spetsifikatsiyasini to'ldirish tartibi ko'rsatilgan). Har bir sarlavha osti va ustida bittadan bo'sh qator qoldiriladi. Spetsifikatsiya grafalari yuqorida pastga qarab quyidagi tartibda to'ldiriladi:

1. «Format» grafasi. Bu grafada spetsifikatsiyada nomi yozilgan hujjatlarning formati keltiriladi, uning belgisi esa «Belgisi» grafasiga yoziladi. Agar hujjatlar har xil formatlarda bir necha listlarda bajarilsa, bu grafaga yulduzcha belgisi qo'yilib, «Eslatma» grafasiga esa hamma formatlar yoziladi.


«Standart buyumlar» va «Boshqa buyumlar» hamda «Materiallar» bo'limlariga yozilgan hujjatlар uchun grafa to'ldirilmaydi. Chizmasi bajarilmagan detallar uchun bu grafaga «ChY» (chizmasi yo'q) degan shartli belgi yoziladi.

2. «Zona» grafasi. Agar chizma sathi GOST 2.104-68 ga ko'ra zonalarga bo'linsa, buyumning tarkibiy qismlari joylashtirilgan zonalari A1, S3 kabi harf va raqamli belgilarda ko'rsatiladi.

3. «Pozitsiya» (Poz) grafasi. Bu grafada spetsifikatsiyasi yozilayotgan buyum tarkibiga bevosita kiruvchi qismlarning tartib nomerlari spetsifikatsiyada yozilgan tartibda ko'rsatiladi. «Hujjatlar» va «Komplektlar» bo'limlari uchun bu grafa to'ldirilmaydi.

4. «Belgisi» grafasi. Bu grafada «Hujjatlar» bo'limida GOST 2.201-68 ga ko'ra yoziladigan hujjatlarning belgisi ko'rsatiladi. «Standart buyumlar», «Boshqa buyumlar» va «Materiallar» bo'limlari uchun bu grafa to'ldirilmaydi.

5. «Nomi» grafasi. Bu grafada quyidagi ma'lumotlar beriladi:



61-shakl. Mufta.

Format	Zona	Po.e.	Beigisi	Nomi	Sana	Es-latma
				Hujjatlar		
22			MCH 12.02.00.00.SB	Yig'ish chizmasi		
				Detallar		
12	1		MCH 12.02.00.00.01	Korpus	1	
11	2		MCH 12.02.00.00.02	Gilza	1	
11	3		MCH 12.02.00.00.03	Vtulka	1	
11	4		MCH 12.02.00.00.04	Qisirma	1	
11	5		MCH 12.02.00.00.05	Zichlagich	1	
11	6		MCH 12.02.00.00.06	Xomut	2	
11	7		MCH 12.02.00.00.07	Bolt	2	
11	8		MCH 12.02.00.00.08	Prujina	2	
11	9		MCH 12.02.00.00.09	Gayka	2	
				Standart buyumlar		
	10			Bolt M12GOST 7796-70	2	
	11			Gayka M12GOST 5915-70	2	
	12			Shayba12GOST 11371-68	2	
				MCH 12.02.00.00.		
D'zg	List	Hujjal №	Imzo	Sana	Lit	List
Bajardi						Listfar
Tekshir.					Y	
N. kontr.						1
Tasdiql.						
				Mufta		
						KMT

62-shakl. Spetsifikatsiyaning to'ldirilishi.

1) «Hujjatlar» bo'limida spetsifikatsiyasi tuzilayotgan buyumning asosiy konstrukturlik hujjatlari komplektiga kiruvchi va mazkur buyumning o'zi uchun tuzilgan hujjatlarning nomi, masalan, «Yig'ish chizmasi», «Gabarit chizmasi», «Montaj chizmasi», «Teknikaviy shartlar» va shunga o'xshashlar keltiriladi;

2) Spetsifikatsiyaning «Komplekslar», «Yig'ish birliklari», «Detallar» va «Komplektlar» bo'limlarida buyumning nomi konstrukturlik hujjatlarining asosiy yozuvidagi nomiga ko'ra to'ldiriladi, masalan, detallar uchun «Vtulka», «O'q», «Kran korpusi», «Qopqoq» va sh.k.

Ikki va undan ortiq so'zlardan tuzilgan nomlarni yozishda «Колесо зубчатое» o'zbek tilida birinchi o'rinda sifat, keyin ot yoziladi, masalan, «Tishli g'ildirak».

Buyumning vazifasi va uning tutgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar, odatda, buyumning nomiga qo'shilmaydi. Buyum chizmasida uning detallari nomi va materiali hamda yasash uchun kerakli o'lchamlari beriladi:

3) «Standart buyumlar» grafasida standartlar tomonidan buyumga berilgan nomer va belgilari keltiriladi, masalan: Bolt M12x60.58. GOST 7085-70;

4) «Boshqa buyumlar» grafasida mazkur buyumlar bilan ta'minlash to'g'risidagi hujjatlarga muvofiq ularning nomi va belgisi hamda bu hujjatlar belgisi keltiriladi;

5) «Materiallar» bo'limida standart va texnikaviy shartlarda mazkur materiallarga berilgan belgilari yoziladi. Agar spetsifikatsiyaga yoziladigan buyum va materiallar bitta o'sha hujjat bo'yicha o'tib umumiyligi nomga ega bo'lsa, buyum va materialning umumiyligi nomi sarlavha sifatida spetsifikatsiyaning har bir listida bir marta yozilishi mumkin. Ko'rsatilgan buyum va materiallardan har biri uchun faqat ularning parametrlari va o'lchamlari umumiyligi (sarlavha) nom ostida yoziladi. Agar buyum yoki materialning asosiy parametrlari faqat bitta son yoki harf bilan belgilansa, u holda ko'rsatilgan soddashtirishni qo'llashga ruxsat etilmaydi. Bunday hollarda quyidagicha yozish mumkin:

Shaybalar GOST 11371-80

Shayba 3

Shayba 4 va h. k.

Gaykalar GOST 5915-70

M10-5 H.

M14-5 H. va h. k.

6) «Soni» grafasida:

1. Buyumning tarkibiy qismlari uchun spetsifikatsiyasi yozilayotgan bitta buyumdagagi detallarning soni ko'rsatiladi.

2. «Materiallar» grafasida spetsifikatsiyasi tuzilayotgan mazkur materialning umumiyligi soni va o'lchov birligi yozib ko'rsatiladi. O'lchov birligini «Soni» grafasi yaqinidagi «Eslatma» grafasida ko'rsatishga ruxsat etiladi.

3. «Hujjatlar» bo'limi uchun bu grafa to'ldirilmaydi.


7. «Eslatma» grafasida: ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirishga oid qo'shimcha ma'lumotlar va shu bilan birga, spetsifikatsiyada yozilgan buyumlar, materiallar hamda hujjatlarga tegishli qolgan ma'lumotlar, masalan, chizmasi berilmagan detallarning massasi va shu kabi turli ma'lumotlar keltiriladi. Ikki va undan ortiq listlarda va turli formatlarda bajarilgan hujjatlar uchun bu grafada formatlar belgisi ko'rsatiladi. Bunday hollarda format belgisining yuqorigi o'ng tomoniga yulduzcha (\*) qo'yiladi, masalan, *A4\**, *A3\**. Spetsifikatsiyaning har bir bo'limidan keyin qo'shimcha yozuvlar uchun bo'sh qatorlar qoldiriladi. Shuningdek, rezerv pozitsiyasi nömierlari yoziladi.

Agar yig'ish birliklari *A4* formatli qog'ozda bajarilgan bo'lsa, tasvir bilan spetsifikatsiya bir listda joylashtirilishi mumkin. Bu listdagi asosiy yozuv GOST 2.104-68 ga ko'ra 1-namunaga muvofiq to'ldiriladi. Uning spetsifikatsiyasi alohida qog'ozda bajarilgan spetsifikatsiya kabi to'ldiriladi. Spetsifikatsiyasi bilan bir listda joylashtirilgan yig'uv chizmasiga shifr berilmaydi. Bu to'g'rida GOST 2.108-68 dan mukammal ma'lumot olish mumkin.

### *3-bob. GEOMETRIK YASASHLAR*

#### **3.1. PARALLEL TO‘G‘RI CHIZIQLAR O‘TKAZISH**


Geometrik yasashlar: reysshina, chizmachilik uchburchakliklari ( $45^\circ$  burchakli,  $30^\circ$  va  $60^\circ$  burchakli), gotovalniy, po‘lat lineyka va boshqa moslama hamda mashinalardan foydalanib bajariladi. Reysshina yordamida gorizontal parallel to‘g‘ri chiziqlar o‘tkaziladi. Vertikal va qiya chiziqlarni esa chizmachilik uchburchaklari vositasida o‘tkaziladi (63-shakl).



63-shakl. Turli qiyalikda parallel to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazish.

#### **3.2. BERILGAN MASOFADA KESMAGA PARALLEL TO‘G‘RI CHIZIQ O‘TKAZISH**

Berilgan  $AB$  to‘g‘ri chiziqning istalgan ikki nuqtasidan berilgan masofada  $R$  radiusga teng aylana yoylari chiziladi (64-shakl). Har ikkala yoyga urinma qilib o‘tkazilgan  $CD$  to‘g‘ri chiziq  $AB$  ga parallel bo‘ladi.




64-shakl. Parallel to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazish.

### 3.3. PERPENDIKULAR TO‘G‘RI CHIZIQLAR O‘TKAZISH

I.  $AB$  kesmaning o‘rtasidan perpendikular to‘g‘ri chiziq o‘tkazish (65-shakl, a).  $A$  va  $B$  nuqtalarini markaz qilib olib,  $C$  va  $D$  nuqtalar topiladi. Topilgan nuqtalardan o‘tkazilgan  $CD$  to‘g‘ri chiziq  $AB$  kesmaga perpendikular va uni teng ikkiga bo‘ladi.

II.  $AB$  to‘g‘ri chiziqda yotuvchi  $C$  nuqtadan unga perpendikular o‘tkazish (65-shakl, b). Markazini berilgan  $C$  nuqtada olib,  $AB$  kesmani 1 va 2 nuqtalarda kesib o‘tuvchi ixtiyoriy  $R$  radius bilan aylana yoyi chiziladi; 1 va 2 nuqtalarda 1— $C$  dan kattaroq radiusda yoylar o‘tkaziladi. Bu yoylarning o‘zaro kesishgan  $D$  nuqtasini  $C$  nuqta bilan tutashtirib,  $CD$  to‘g‘ri chiziq hosil qilinadi. U  $AB$  ga perpendikular.


III.  $C$  nuqtadan  $AB$  to‘g‘ri chiziqqa perpendikular o‘tkazish (65-shakl, d). Markazini berilgan  $S$  nuqtada olib,  $AB$  kesmani 1 va 2 nuqtalarda kesib o‘tuvchi ixtiyoriy  $R$  radiusi bilan aylana yoyi o‘tkaziladi. Topilgan 1 va 2 nuqtalardan 12 kesmaning yarmidan kattaroq radius bilan aylana yoylari chiziladi va bu yoylar kesishgan nuqta  $D$  bilan belgilanadi.  $C$  va  $D$  nuqtalarni tutashtirib hosil qilgan  $CD$  to‘g‘ri chiziq  $AB$  kesmaga perpendikulardir.



65-shakl. Berilgan to‘g‘ri chiziqqa perpendikular o‘tkazish.

### **3.4. O'TKIR BURCHAK OSTIDA KESISHUVCHI TO'G'RI CHIZIQNING KESISHUVCHI NUQTASINI YASASH**


O'tkir burchak ostida kesishuvchi  $AB$  va  $CD$  to'g'ri chiziqlarning kesishuv nuqtasini aniqlash uchun  $AB$  kesmaning  $A$  va  $B$  uchlaridan parallel to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. Bu parallel to'g'ri chiziqlarga  $CD$  kesmaning  $C$  uchidan  $AC$  ga teng va  $D$  uchidan  $BD$  ga teng ixtiyoriy kesmalar qo'yib chiqiladi. So'ngra topilgan bir nomli (masalan, 4—4) nuqtalar tutashtirilib, berilgan chiziqlarning kesishuv nuqtasi topiladi (66-shakl).



*66-shakl.* O'tkir burchak ostida kesishuvchi chiziqlar nuqtasini aniqlash.

### **3.5. TO'G'RI CHIZIQ KESMASINI TENG BO'LAKLARGA BO'LISH**


Berilgan  $AB$  kesmani teng bo'laklarga bo'lish uchun uning bir uchida ixtiyoriy burchak ostida yordamchi  $AK$  kesmasi o'tkaziladi.  $AK$  ga ixtiyoriy uzunlikda, lekin o'zaro teng qilib talab qilingan miqdordagi kesmalar (masalan, 6 ta kesma, 67-shaklda) qo'yib chiqiladi.  $AK$ dagi 6' nuqtani  $B$  nuqta bilan tutashtiriladi. Bo'luvchi nuqtalar ( $1'$ ,  $2'$ ,  $3'$  va h.k.) orqali  $6'B$  ga parallel chiziqlar o'tkaziladi. Ular  $AB$  ni  $1$ ,  $2$ ,  $3$  va h.k. nuqtalarda kesadi. Bu nuqtalar  $AB$  ni teng bo'laklarga bo'luvchi  $1$ ,  $2$ ,  $3$  va h.k. nuqtalardir.




*67-shakl.* Kesmani teng bo'laklarga bo'lish.

### **3.6. BURCHAKLARNI BO'LISH**

Burchakni teng ikkiga bo'lish (68-shakl).  $ABC$  burchakning  $B$  uchidan ixtiyoriy radiusda  $ABC$  ning tomonlarini  $1$  va  $2$  nuqtalarda kesib o'tuvchi aylana yoyi o'tkaziladi. So'ngra  $1$  va  $2$  nuqtalarni markaz qilib olib,  $1-2$  vatar yarmidan kattaroq radius bilan o'zaro  $E$  nuqtada



68-shakl. Burchakni teng ikkiga bo'lish.



69-shakl. Uchi chizmadan tashqarida joylashgan burchakni teng ikkiga bo'lish.


kesishuvchi aylana yoylari chiziladi.  $B$  va  $E$  nuqdalardan o'tkazilgan  $BE$  bissektrisa  $ABC$  burchakni teng ikkita bo'ladi.

*Uchi chizmadan tashqarida joylashgan burchakni teng ikkiga bo'lish* (69-shakl).  $CD$  (yoki  $AB$ ) to'g'ri chiziqda yotuvchi ixтиiyoriy  $E$  nuqta orqali  $AB$  ga parallel  $EF$  kesma o'tkaziladi. Shu  $E$  nuqtadan ixтиiyoriy  $R$  radius bilan yoy chizib  $H$  va  $F$  nuqtalar topiladi.  $H$  va  $F$  larni tutashtirib, uni  $G$  nuqtada  $AB$  ni kesib o'tguncha davom ettiriladi.  $GH$  kesmaning o'rtasidan  $GH$  ga perpendikular o'tkaziladi, bu perpendikular  $AB$  va  $CD$  chiziqlar orasidagi burchakni teng ikkiga bo'luvchi chiziqdir.

### 3.7. AYLANA YOKI AYLANA YOYI MARKAZINI ANIQLASH

Aylana markazini aniqlash uchun aylana ichida o'zaro parallel bo'limgan ixтиiyoriy  $AB$  va  $CD$  vatarlar o'tkaziladi (70-shakl, a).

Har bir vatarga o'rtasidan perpendikular o'tkaziladi, bu perpendikularlarning kesishgan joyida aylananing izlangan markazi  $O$




70-shakl. Aylana yoki aylana yoyi markazini aniqlash.

hosil bo'ladi. Berilgan aylana yoyining radiusini aniqlash uchun, bu yoda ixtiyoriy  $A$ ,  $B$ ,  $C$  nuqtalar olinadi (70-shakl,  $b$ ). Bu nuqtalar to'g'ri chiziqlar bilan tutashtirilsa,  $AB$  va  $BC$  vatarlar hosil bo'ladi. Vatarlar o'rtasidan ularga o'tkazilgan perpendikularlarning kesishuv nuqtasi  $O$  — yoy markazidir.  $R$  — berilgan yoy radiusidir.

### 3.8. AYLANA YOYINI TO'G'RILASH

Aylanadagi  $AB$  yoyning taxminiy uzunligi  $l$  ni quyidagicha aniqlash mumkin.  $AB$  vatarning o'rtasidan perpendikular o'tkaziladi va perpendikular aylana yoyini  $K$  nuqtada kesib o'tguncha davom ettiriladi (71-shakl, a). So'ngra markazlari  $C$  va  $D$  nuqtalarda yotuvchi va radiusi aylana diametriga teng, shu bilan birga, o'zaro  $M$  nuqtada kesishuvchi yoylar o'tkaziladi.  $K$  dan aylanaga o'tkazilgan urinma bilan  $MA$  va  $MB$  kesmalarning davomi kesishuvi natijasida hosil bulgan  $A_1$ ,  $B_1$ , nuqtalar orasidagi to'g'ri chiziqli masofa  $AB$  yoyning taxminiy uzunligiga teng.  $C$ , va  $D$ , nuqtalar orasidagi masofa esa taxminan yarim aylana uzunligiga teng. Aylana markazi noma'lum bo'lganda  $AB$  yoyning uzunligi 71-shakl,  $b$  da ko'rsatilgandek, vatar  $AB$  ni teng to'rt bo'lakka bo'lish orqali aniqlanadi. Buning uchun  $AB$  kesmaning to'rtdan bir qismi  $B$  nuqtadan boshlab  $AB$  yoyiga qo'yiladi. Hosil bo'lgan  $C$  nuqta bo'lish nuqtasi  $l$  bilan tutashtiriladi.

$I-C$  kesma  $AB$  yoyning yarmiga,  $CD$  kesma esa taxminan  $AB$  yoyning butun uzunligiga teng.



71-shakl. Aylana yoyini to'g'rakash.


### 3.9. QIYALIK VA KONUSLIKLARNI YASASH

$AB$  to‘g‘ri chiziqning  $AC$  chiziqqa nisbatan qiyaligi  $i$  deb,  $A$  va  $B$  nuqtalar orasidagi  $h$  farqning  $AC$  to‘g‘ri chiziq bo‘yicha o‘lchangan  $L$  ga nisbatiga yoki  $BC$  ning  $AC$  katetga nisbatiga aytildi (72-shakl).


Qiyalik  $i$  bilan belgilanadi va u  $i = \frac{h}{L} = \frac{BC}{AC} = \operatorname{tg} \alpha$  ifoda bilan aniqlanadi, bu yerda  $\alpha$  — qiyalik burchagi.

*Qiyalikni yasash.*  $AB$  to‘g‘ri chiziqda yotuvchi  $A$  nuqta orqali  $AB$  ga nisbatan berilgan  $i=1:n$  qiyalikda to‘g‘ri chiziq o‘tkazish uchun berilgan kesmaning  $A$  uchidan to‘g‘ri chiziq bo‘ylab o‘zaro teng bir nechta ( $n$  ta) kesma o‘lchab qo‘yiladi.  $M$  nuqtadan uzunligi bitta kesma uzunligiga teng bo‘lgan perpendikular  $MC$  o‘tkaziladi. Qurilgan  $\Delta MAC$  ning  $AC$  gipotenuzasi izlangan qiyalikni beradi (73-shakl).  $K$  nuqta orqali  $1:n$  qiyalikda o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq o‘tkazishning ikkita usuli 74-shaklda ko‘rsatilgan. Buni markasi  $R50$  bo‘lgan, tokchasingning qiyaligi  $1:4$  nisbatdagi temiryo‘l relsi misolida ko‘rib chiqamiz.


**1-usul.** Asosining kengligi  $B$  va tokchasingning balandligi  $m$  bo‘lgan rels chizmasini yasashda  $K$  nuqta hosil bo‘ladi. Asosining davomiga  $L$  nuqtadan boshlab to‘rtta  $M$  kesma o‘lchab qo‘yiladi va topilgan oxirgi nuqtasini  $E$  bilan belgilanadi.  $E$  va  $K$  nuqtalar orqali o‘tkazilgan chiziq izlangan qiyalikni ifoda laydi.



72-shakl. Qiyalik.



73-shakl.  $1:n$  nisbatdagi qiyalikni yasash.



74-shakl. Qiyalik yasash.


**2-usul.** Chizmadan chetrolqda katetlarning nisbati 1:4 bo'lgan to'g'ri burchakli  $DMC$  (yoki  $DM_1C$ ) uchburchaklik yasaladi. So'ngra  $K$  nuqta orqali  $MC$  ga (yoki relsning chap tomoni uchun  $OM_1$  ga) parallel chiziq o'tkaziladi. Bu chiziq izlangan qiyalik chizig'i bo'ladi (74-shakl).

Konuslik deb konus ikkita ko'ndalang kesimidagi diametrler ayirmasining ular orasidagi masofaga bo'lgan nisbatiga aytildi (75-shakl).

Konuslik  $K$  bilan belgilanadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K = \frac{D - d}{L} = \operatorname{tg} \alpha, \quad K = 2i.$$

**Konuslikni yasash.** Berilgan o'qqa nisbatan 1:p konuslikni yasash, konus o'qining har bir tomonida 1:2 n qiyaliklarni yasashdan iboratdir. Biror detalning konusligini yasash uchun uning konuslik nisbati, diametrleridan biri va konusli detalning uzunligi  $L$  berilishi lozim. Ikkinchisi diametrini esa konuslik formulasini bo'yicha aniqlash mumkin. Masalan, konusligi  $K=1:5$ , katta diametri  $D=40$  mm va uzunligi  $L=60$  mm bo'lgan konussimon detalning (75-shakl) kichik diametri  $d$  konuslik formulasiga binoan quyidagicha aniqlanadi:



75-shakl. Konuslik.

$$d = D - KL = 40 - \frac{1}{5} \cdot 60 = 28 \text{ mm.}$$

### 3.10. TUTASHMALAR

Detallarning chizmalarini bajarishda ko'pincha tutashmalar yasashga to'g'ri keladi. Bir chiziqdandan ikkinchisiga ravon o'tkazilgan egri chiziq *tutashma*, deb ataladi. Tutashmalarni aniq yasash uchun, avvalo, tutashuvchi yoy markazi va tutashish nuqtasini aniqlash, so'ngra tutashma yoyini o'tkazish kerak.



Tutashuvchi chiziqlardan barobar uzoqlikda turgan nuqta *tutashish markazi*, deb ataladi. Ikki tutashuvchi chiziqning urinish nuqtasi *tutashish nuqtasi*, deb ataladi. Tutashma yoyining markazini va tutashish nuqtasini yasash to'g'ri chiziqning aylanaga urinishi va aylanalarning o'zaro urinish xususiyatlariga asoslangan.

Quyida turflicha urinmalarning (13-jadval) o'tkazilishi bilan, so'ngra har xil tutashmalarning (14-jadval) yasalish usullari bilan tanishtirib chiqiladi.

### 3.11. MUNTAZAM KO'PBURCHAKLAR YASASH


Muntazam ko'pburchaklar yasash aylanalarni teng bo'laklarga bo'lish qoidalariga asoslangan

T/r	Bo'laklar soni	Ko'pburchaklar chizmasi	Burchakliklar soni
1	Uchta va to'rtta		O'zaro perpendikular $AB$ va $CD$ diametrlar o'tkaziladi. $D$ nuqtadan radiusi $R$ ga teng hamda aylanani 1 va 2 nuqtalarda kesib o'tuvchi yoy chiziladi. 12 kesma izlangan uchburchakning bir tomonini, $AC$ esa to'rburchaklikning bir tomonini beradi.
2	Beshta va o'nta		$B$ nuqtadan $R$ radius bilan yoy o'tkaziladi. Bu yoy aylanani $E$ va $F$ nuqtalarda kesadi. $EF$ kesma $AB$ va $K$ nuqtada kesib o'tadi; $K$ dan radiusi $CK$ ga teng bo'lgan va $AB$ ni $M$ nuqtada kesuvechi yoy o'tkaziladi; $MC$ chiziq beshburchaklikning bir tomonini, $MO$ — o'nburchaklikning bir tomonini beradi.
3	Oltita		Markazlari $D$ va $C$ larda yotgan hamda aylanani 1, 2, 3, 4 nuqtalarda kesib o'tuvchi $R$ radius bilan yoylar o'tkaziladi. $D$ va $C$ larni topilgan nuqtalar bilan tutashtiriladi. Muntazam oltiburchaklikning tomonlari aylana radiusiga teng.

4	Yettita		Aylananing istalgan, masalan, $D$ nuqtasidan $R$ radius bilan yoy o'tkaziladi. Bu yoy aylanani $E, F$ nuqtalarda kesadi. $EF$ vatarning yarmi ( $FK$ kesma) taxminan muntazam yettiburchaklikning bir tomoniga teng.
5	n ta		Aylana diametri $CD$ ni $n$ ta teng bo'lakka bo'linadi. $D$ nuqtadan $2R$ radius bilan yoy chiziladi. Bu yoy $AB$ ning davomini $K$ va $K'$ da kesib o'tadi. $K$ va $K'$ , lardan $CD$ ni teng bo'laklarga bo'luchchi nurlar o'tkaziladi. Bu nurlarning aylana bilan kesishuvidan izlangan nuqtalar hosil bo'ladi.


13-jadval

### 3.12. URINMALAR YASASH

T/r	Yasaladigan urinma	Shakllar	Urinmalar yasash
1	Aylanaga urinma to'g'ri chiziq o'tkazish		<p>Aylananing urinish nuqtasidan o'tkazilgan radius bilan urinma chiziq <math>90^\circ</math> burchakni tashkil etadi. Urinma chiziq yasash:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aylanada yotuvchi <math>K</math> nuqtadan <math>KP</math> urinma <math>KP \perp OK</math> o'tkaziladi.</li> <li>2. Berilgan <math>MN</math> kesmaga aylana markazi <math>O</math> dan tushirilgan perpendi-</li> </ol>


kular aylanada urinish nuqtasi  $K$  ni hosil qiladi.  $K$  dan o'tkazilgan  $KP$  urinma  $MN$  kesmaga parallel qilib o'tkaziladi.

- 2 To'g'ri chiziqqa urinma aylan a'tkazish




Berilgan  $KK_1$ , kesmaga parallel va undan  $R$  masofada o'tuvchi  $OO_1$ , kesmada  $KK_1$  ga urinib o'tuvchi  $R$  radiusli aylanalar markazi yotadi. Bu kesmada  $O$  va  $O_1$  markazlar belgilab olinadi va ulardan berilgan kesmaga perpendikular tushirilib urinish nuqtasi  $K$  yoki  $K_1$  topiladi.

- 3 Tashqi urinma aylanalar o'tkazish



Aylan tashqi uringanida markazlari orasidagi masofa radiuslarining yig'indisiga ( $R+R_1$ ) teng. Ularning urinish nuqtasi  $K$  markazlarni birlashtiruvchi  $OO_1$ , to'g'ri chiziqda yotadi.  $R+R_1$  radiusli yordamchi aylanani yasashda uning radiuslarini grafik usulda qo'shish tavsiya etiladi.


- 4 Ichki urinma aylanalar o'tkazish



Aylanlar ichki tomonidan uringanida ular markazlari orasidagi masofa radiuslar ayirmasi  $R-R_1$  ga teng. Aylanlarning urinish nuqtasi  $K$  aylan markazlaridan o'tuvchi  $OO_1$ , to'g'ri chiziqning davomida yotadi. Radiusi  $R-R_1$  bo'lgan yordamchi aylanani chizishda


radiuslar ayirmasini grafik usulda yashash tavsya etiladi.

5. Aylanadan tashqarida berilgan  $A$  nuqta orqali aylanaga urinma o'tkazish



Berilgan  $OA$  kesmaning o'rtasini topib, undan  $OA/2$  radius bilan aylana chizamiz. Bu aylana berilgan  $R$  radiusli aylanani  $K$  va  $K_1$  nuqtalarda kesib, urinish nuqtalarini hosil qildi. Bu nuqtalarni  $A$  bilan tutashtirsa,  $AK$  va  $AK_1$ , urinmalar hosil bo'ladi.  $OK$  va  $OK_1$ , radiuslar urinma chiziqlarga perpendikular bo'ladi.

6. Berilgan ikki aylanaga tashqi urinma o'tkazish



$O$  markazdan radiusi  $R - R_1$  bo'lgan yordamchi aylana o'tkaziladi.  $O1$  nuqtadan yordamchi aylanaga urinma o'tkazilib, yuqoridagi chizmadagidek,  $K_4$  va  $K_5$  urinish nuqtalari topiladi.  $O$  markaz  $K_3$  va  $K_2$  urinish nuqtalari bilan birlashtiriladi. Bu chiziqlarning davomi  $R$  radiusli aylanani  $K_3$  va  $K_4$  nuqtalarda kesib o'tadi. Topilgan  $K_3$  va  $K_4$  nuqtalar  $R$  radiusli aylanadagi urinish nuqtalaridir. Shuningdek,  $O_1 K_5 \parallel OK_3$  va  $O_1 K_6 \parallel OK_4$  o'tkazilib,  $R_1$  radiusli aylanadagi urinish nuqtalari topiladi, so'ngra  $K_3 K_5$  va  $K_4 K_6$  urinmalar o'tkaziladi.

7	Berilgan ikki aylanaga ichki urinma o'tkazish		<p><math>O</math> markaz orqali radiusi berilgan aylanalar radiuslarining yig'indisi <math>R+R_1</math> ga teng bo'lgan yordamchi aylana o'tkaziladi. Yasashlarning qolgan qismi esa oldingi misoldagidek bajariladi.</p>
8	Berilgan aylanaga $B$ nuqtada urinuvchi va $A$ nuqtadan o'tuvchi aylana o'tkazish	<li>a) tashqi, b) ichki.</li> <p>Har ikkala urinmaning yasalish tartibi bir xil. <math>AB</math> to'g'ri chiziqning o'trasidan unga perpendikular o'tkaziladi: <math>OB</math> perpendikular chiziq bilan kesishguncha davom ettiriladi. Ular kesishgan <math>O</math>, nuqta izlangan aylana markazi bo'ladi. Uning radiusi <math>O_B</math> yoki <math>O_A</math> ga teng.</p>	
7	Berilgan ikki aylanaga ichki urinma o'tkazish		<p><math>O</math> markaz orqali radiusi berilgan aylanalar radiuslarining yig'indisi <math>R+R_1</math> ga teng bo'lgan yordamchi aylana o'tkaziladi. Yasashlarning qolgan qismi esa oldingi misoldagidek bajariladi.</p>
8	Berilgan aylanaga $B$ nuqtada urinuvchi va $A$ nuqtadan o'tuvchi aylana o'tkazish	<li>a) tashqi, b) ichki.</li> <p>Har ikkala urinmaning yasalish tartibi bir xil. <math>AB</math> to'g'ri chiziqning o'trasidan unga perpendikular o'tkaziladi: <math>OB</math> perpendikular chiziq bilan kesishguncha davom ettiriladi. Ular kesishgan <math>O</math>, nuqta izlangan aylana markazi bo'ladi. Uning radiusi <math>O_B</math> yoki <math>O_A</math> ga teng.</p>	


14-jadval

### 3.13. TUTASHMALAR YASASH

T/r	Quriladigan tutashma	Tutashmalar chizmasi	Tutashmalar yasashning izohi
1	Kesishuvchi ikki to'g'ri chiziqni $R$ radiusli yoy vositasida tutashtirish		<p>Tutashma markazi <math>O</math> berilgan to'g'ri chiziqlarga parallel va ulardan tutashma yoyining radiusi <math>R</math> ga teng masofada o'tuvchi yordamchi kesmalarning kesishgan nuqtasida yotadi. <math>O</math> markazdan, berilgan to'g'ri chiziqlarga perpendikular tu-</p>


shirib, tutashish nuqtalari  $K_1$  va  $K_2$  aniqlanadi, so'ngra tutashma yoyi o'tkaziladi.

- 2 Berilgan tutashish nuqtasi  $M$  dan foy-dalanib, tutashma radiusi  $R$  ni aniqlash




Izlanayotgan tutashma markazi  $O$  berilgan to'g'ri chiziqlar orasidagi burchak bissektrisasi bilan  $MN$  perpendikularning kesishgan nuqtasida yotadi.

- 3 Kesishuvchi uchta to'g'ri chiziqlar urinuvchi yoy radiusi  $R$  ni aniqlash



Izlangan tutashmaning  $O$  markazi  $ABC$  va  $BCD$  burchakliklar bissektrisalarining kesishgan nuqtasida yotadi.  $O$  nuqta orqali berilgan kesmalardan biriga tusirilgan perpendikular  $OK_1$  yoki  $OK_2$  yoy radiusi bo'ladi.


- 4 Ikkita kesishuvchi to'g'ri chiziqlni berilgan  $R$  va  $R_1$  radiusli yoylar bilan tutash-tirish



$AB$  kesmaga o'tkazilgan perpendikularning  $B$  nuqtasidan  $R$  radius qo'yilib,  $O$  markaz topiladi.  $R_1$  ga teng masofada  $CD$  ga parallel  $EF$  o'tkaziladi.  $O$  markazdan  $R+R_1$  radius bilan yoy chizilib, uning  $EF$  kesishgan joyida  $O_1$  markazning vaziyati belgilanadi. Tutashish nuqtasi  $K_2$  markazlar orasidagi  $O$   $O_1$  to'g'ri chiziqda yotadi.


5	Parallel to'g'ri chiziqlarni berilgan $R$ va $R_1$ radiusli yoylar vositasida tutashirish		Agar parallel to'g'ri chiziqlar orasidagi masofa tutashma $R + R_1$ , radiuslari yig'indisiga teng bo'lsa, ularning tutashmasini yuqorida bayon etilgan usul bilan yasaladi.
6	Berilgan $B$ va $C$ tutashish nuqtalari vositasida parallel to'g'ri chiziqlarni tutashiruvchi ikkita yoy radiusini aniqlash		Berilgan $B$ va $C$ tutashish nuqtalari birlashtiriladi. $BC$ da ixtiyoriy $I$ nuqta tanlab olinadi. $IB$ va $IC$ larning o'rtasidan ularga perpendikular chiqarilib, bu perpendikularni berilgan kesmaga $B$ va $C$ dan o'tkazilgan perpendikular bilan kesishguncha davom ettiriladi. Ular kesishgan $O$ va $O_1$ nuqtalar izlangan markaz bo'ladi.
7	Aylana bilan to'g'ri chiziqning tashqi tutashmasini $R$ radiusli yoy yordamida yasash		Tutashma markazi $O$ radiusi $R + R_1$ yordamida chizilgan yoy bilan $R$ masofada berilgan kesmaga parallel ravishda o'tuvchi to'g'ri chiziqning kesishgan nuqtasida yotadi. $O$ va $O_1$ nuqtalarni birlashtirib, berilgan kesma $K_2$ va $O_2$ lardan perpendikular o'tkazib, tutashish nuqtasi $K_1$ topiladi.

- 8 Aylana bilan to'g'ri chiziqning ichki tutashmasini  $R$  radiusli yoy vositasida yasash




Ichki urinmalarda  $R - R_1$  radius bilan yordamchi aylana yoyi o'tkaziladi.

- 9 Berilgan  $A$  tutashish nuqtasi vositasida aylana bilan to'g'ri chiziq tashqi tutashmasining radiusi  $R$  ni aniqlash



Berilgan urinish nuqtasi  $A$  orqali aylanaga  $AB$  urinma chizildi.  $AB$  urinma bilan  $MN$  kesma oralig'ida hosil bo'lgan burchakni teng ikkiga bo'luvchi bissektrisa o'tkaziladi. Tutashma markazi  $O$  burchak bissektrisasi bilan radius  $O_A$  ning davomi kesishgan nuqtada yotadi.  $R$  radiusli yoy bilan to'g'ri chiziqning tutashish nuqtasi  $K$ ,  $O$  markazdan berilgan to'g'ri chiziqqa tutashtilgan perpendikularda yotadi.

- 10 Berilgan  $A$  tutashish nuqtasi vositasida aylana bilan to'g'ri chiziq ichki tutashmasining radiusi  $R$  ni aniqlash




Berilgan  $A$  nuqta orqali aylanaga  $AB$  urinma o'tkaziladi.  $AB$  urinma bilan  $MN$  kesma orasida hosil bo'lgan burchak bissektrisasi cho'ziladi. Bu bissektrisa bilan radius  $O_1 A$  ning davomi kesishgan nuqtada tutashmaning izlangan  $O$  markazi yotadi.

11	To‘g’ri chiziqda berilgan A tutashish nuqtasi vositasida to‘g’ri chiziq bilan aylananining tutashma yoyi radiusi $R$ ni aniqlash		A nuqtadan BC ga perpendicular o’tkaziladi. Bu chiziqda aylana radiusi $R_1$ ga teng AE kesma olinadi. Uning E nuqtasi $O_1$ bilan tutashtililadi. A nuqtadan $O_1$ , $E$ ga parallel $AK$ kesma o’tkazilgan, u aylanani $K$ nuqtadan kesib o’tadi. $K$ tutashish nuqtasidir. $O$ tutashma markazi $O_1K$ va $AE$ chiziqlarning davomi kesishgan nuqtada yotadi.
12	Ikki aylananining tashqi tutashmasini berilgan $R$ radiusli yoy vositasida yasash		O tutashma markazi $O_1$ va $O_2$ lardan $R+R_1$ va $R+R_2$ radiuslar bilan o’tkazilgan yoylarning kesishgan nuqtasida yotadi. Tutashish nuqtasi $K_1$ va $K_2$ lar $O_1$ va $O_2$ markazlarni $O$ bilan tutashtiruvchi chiziqlarda bo‘ladi.
13	Ikki aylananining ichki tutashmasini berilgan $R$ radiusli yoy vositasida yasash		O tutashma markazi $O_1$ va $O_2$ markazlardan $R-R_1$ va $R-R_2$ radiuslar bilan o’tkazilgan, yordamchi yoylarning kesishgan nuqtasida yotadi.
14	Ikki aylananining tashqi va ichki tutashmasini berilgan $R$ radiusli yoy vositasida yasash		O tutashma markazi $O_1$ markazdan $R+R_3$ radiusi bilan va $O_2$ markazdan $R-R_1$ radius bilan o’tkazilgan yordamchi yoylarning kesishgan nuqtasida yotadi.

### 3.14. LEKALO EGRI CHIZIQLARINING YASALISHI

Uchastkalariga mos keladigan yoy markazlarini topish yo‘li bilan sirkulda chizilishi mumkin (76-shakl). O’tkaziladigan yoyslar biridan ikkinchi-siga ravon o’tishi uchun ularning tutashish nuqtalari yoy markazlarini birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziqlarda yotishi kerak. Egri chiziqning, masalan,  $AB$  qismi uchun mos keladigan  $O_1$  markaz toplidi (76-shakl).

$BC$  qismi uchun  $O_2$  markaz  $BO_1$  radiusining davomida yotadi.  $CD$  qismi uchun olingan  $O_3$  markaz esa  $CO_2$  radiusning davomida moslab toplidi va h. k.



76-shakl. Lekalo yoyslarini sirkulda chizish.


### 3.15. SIRKUL VA LEKALO EGRI CHIZIQLARINING YASALISHI

Katta o‘qning yarmi  $AB$  ga teng kesma kichik o‘q bo‘ylab qo‘yiladi. Katta va kichik yarimo‘qlarning ayirmasi  $CF$  kesmanini  $AC$  ga qo‘yiladi.


Hosil bo‘lgan  $AE$  kesmaning o‘rtasidan unga perpendikular o’tkaziladi. Perpendikular bilan o‘qlarning kesishuvidan  $O_1$  va  $O_2$  markazlar hosil bo‘ladi. Qolgan  $O_3$  va  $O_4$  markazlar ham  $O_1$  va  $O_2$  larga simmetrik joylashgan nuqtalardek topiladi. Yoyslar tegishlicha  $O_1$  markazdan  $AO_1$  radius yordamida,  $O_2$  dan  $CO_2$  radius yordamida o’tkaziladi va h.k. Tutashish nuqtalari, markazlari tutashtiruvchi chiziqlarda yotadi.

Ikki o‘qi bo‘yicha ellips yasash (78-shakl). Ellipsni ikki o‘qi bo‘yicha quyidagi ikki usulda yasash mumkin.

*Birinchi usul* (78-shakl, a). Ellipsning berilgan o‘qlari kesishgan nuqtasidan diametri  $AB$



77-shakl. To‘rt markazli oval yasash.



78-shakl. Ellips yasash usullari.

va  $CD$  ga teng bo‘lgan ikkita konsentrik aylana o‘tkaziladi. Ulardan biri bir necha teng yoki teng bo‘lмаган bo‘laklarga bo‘linadi. Bo‘lish nuqtalari orqali radius chiziqlari o‘tkaziladi, ular, o‘z navbatida, ikkinchi aylanani ham shuncha bo‘laklarga bo‘ladi. Katta aylanadagi bo‘lish nuqtalari orqali  $CD$  ga parallel, kichik aylanadagini bo‘lish nuqtalari orqali esa  $AB$  ga parallel chiziqlar o‘tkaziladi. Bu o‘tkazilgan chiziqlar kesishib, ellipsning tegishli nuqtalarini hosil qiladi. Topilgan bu nuqtalar va berilgan  $A$ ,  $B$ ,  $C$ ,  $D$  nuqtalar o‘zaro lekalo yordamida ravon tutashtirilsa, ellips hosil bo‘ladi.

*Ikkinci usul* (78-shakl, b). Ellipsning istalgan nuqtasidan fokuslarigacha bo‘lgan masofalar yig‘indisi ellipsning katta o‘qiga teng bo‘lgan doimiy kattalikdir. Shunga ko‘ra  $C$  yoki  $D$  nuqtadan ellipsning katta yarimo‘qiga teng  $R=AO$  radius bilan yoy chizamiz. Bu yoyning ellips katta o‘qi  $AB$  bilan kesishgan  $F_1$  va  $F_2$  nuqtalari *fokuslar* deb yuritiladi.  $F_1$  fokusdan o‘qlar kesishgan  $O$  nuqtagacha bo‘lgan masofani o‘zaro teng bo‘lмаган,  $F_1$  dan markazga tomon ortib boruvchi ixtiyor (1, 2, 3, 4, 0) uzunlikdagi kesmalarga bo‘lib chiqamiz.

$F_1$  va  $F_2$  fokuslardan  $A1$  radius bilan va yana shu fokuslardan  $B1$  radius bilan yoylar chizamiz. Bu yoylar kesishgan joyda ellipsga tegishli nuqtalar hosil bo‘ladi. So‘ngra fokuslardan  $A2$  va  $B2$  radius bilan yoylar chizib, ellipsning navbatdagi nuqtalari topiladi va h. k. Topilgan barcha nuqtalar va o‘qlarning  $AB$ ,  $CD$  uchlari lekalo yordamida ravon egri chiziq bilan birlashtirilsa, izlangan ellips hosil bo‘ladi.


*Parabola*. Berilgan  $AB$  o‘qi,  $A$  uchi hamda  $C$  va  $D$  nuqtalari bo‘yicha parabola yasash (79-shakl).  $AB$  o‘qni hamda  $CB$  va  $CD$  kesmlarni bir xil uzunlikdagi teng bo‘laklarga bo‘lib chiqiladi.  $CB$  va  $BD$

kesmalardagi 1, 2, 3, ... nuqtalardan  $AB$  o'qqa parallel chiziqlar o'tkaziladi;  $C$  va  $D$  lardan esa  $AB$  o'qidagi 1, 2, 3, ... nuqtalar orqali o'tuvchi va tegishlichcha parallel chiziqlarni kesuvchi nurlar o'tkaziladi. Ularning kesishuvidan hosil bo'lgan  $I$ ,  $II$ ,  $III$ , ... nuqtalar parabolaga tegishlidir.


$I$ ,  $II$ ,  $III$  nuqtalarni  $A$ ,  $C$ ,  $D$  lar bilan lekalo yordamida ravon birlashtirilsa, parabola hosil buladi.

*Giperbola.* Teng tomonli giperbola yasash (80-shakl). Asimptotalari o'zaro perpendikular bo'lgan giperbola *teng tomonli* yoki *teng yonli giperbola*, deb ataladi.

Teng yonli giperbolaning  $OX$  va  $OZ$  asimptotalari hamda giperbolaga tegishli  $A$  nuqta berilgan.  $A$  nuqta orqali asimptotalarga parallel  $MN$  va  $CD$  chiziqlar o'tkaziladi.  $MN$  da ixtiyoriy 1, 2, 3, 4, 5, 6 nuqtalar tanlab olinadi va ular orqali gorizontal chiziqlar o'tkaziladi.




79-shakl. Parabola yasash.



80-shakl. Giperbola yasash.

Koordinatalar boshi  $O$  nuqtadan boshlab,  $MN$  da tanlab olingan nuqtalar orqali o'tuvchi va  $CD$  ni  $1, 2, 3$  va h.k. nuqtalarda kesuvchi nurlar o'tkaziladi.  $CD$  chiziqdagi nuqtalardan bir xil nomerli horizontal chiziqlarga perpendikular tushiriladi. Perpendikular va horizontal chiziqlarning kesishuvidan hosil bo'lgan  $I, II, \dots, VIII$  nuqtalar lekalo yordamida birlashtirilsa, izlangan giperbola hosil bo'ladi.


*Sinusoida* yasash (81-shakl). Berilgan aylana ixtiyoriy teng, masalan, 12 bo'lakka bo'linadi. Aylana uzunligi  $nd$  ga teng bo'lgan  $AB$  kesma ham shunday teng bo'laklarga bo'lib chiqiladi. Bo'linish nuqtalaridan vertikal va horizontal chiziqlar o'tkaziladi, ularning kesishuv nuqtalari lekalo yordamida birlashtirilsa, *sinusoida* hosil bo'ladi.



81-shakl. Sinusoida yasash.

*Aylana evolventasini yasash* (82-shakl). Avval berilgan aylanani ixtiyoriy teng (masalan, 12) bo'lakka bo'linadi. Bo'linish nuqtalari orqali aylana radiusiga perpendikular va bir tomonga yo'nalgan urinmalar o'tkaziladi. Oxirgi nuqtasidan o'tkazilgan urinmada aylana uzunligi  $nd$  ga teng bo'lgan kesma olinadi va uni ham aylanadagi kabi teng 12 bo'lakka bo'lib chiqiladi.


Birinchi urinmaga urinish nuqtasidan boshlab aylana uzunligining bir bo'lagi —  $01'$  qo'yilsa, ikkinchisiga —  $02'$ , uchinchisiga —  $03'$  va h.k. bo'laklar qo'yilishi natijasida  $0, I, \dots, XII$  nuqtalar hosil bo'ladi. Ularni lekalo yordamida ravon tutashtirilsa, aylana evolventasi hosil bo'ladi.



82-shakl. Aylana evolventasini yasash.

*Sikloida yasash* (83-shakl). Aylana nuqtalaridan birining qo‘zg‘almas to‘g‘ri chiziq bo‘ylab, sirpanmasdan yumalashi natijasida hosil bo‘lgan tekis ravon egrisi sikloida deyiladi. Sikloida yasash uchun  $A$  ning dastlabki vaziyatidan boshlab yo‘naltiruvchi to‘g‘ri chiziq  $OX$  bo‘yicha aylana uzunligi  $\pi \cdot d$  ga teng bo‘lgan  $AA'$ , kesma qo‘yiladi.

Yasovchi aylanani va  $AA'$ , kesmani teng, masalan, 12 bo‘lakka bo‘lib chiqiladi.  $OX$  da olingan 1, 2, 3, ... nuqtalardan  $O_1O_{12}$  ga



83-shakl. Sikloida yasash.

perpendikularlar chiqariladi. O'tkazilgan perpendikular berilgan aylana markazi orqali o'tuvchi va  $AA_1$  ga parallel bo'lgan  $O_1O_{12}$  to'g'ri chiziq bilan  $O_1$ ,  $O_2$ ,  $O_3$  va h. k. nuqtalarda kesishib, yasovchi aylana sirpanmasdan yumalaganda shu aylana markazining ketma-ket o'zgargan vaziyatini hosil qiladi.

Bu markazlardan  $\frac{d}{2}$  radius yordamida chizilgan aylana yoylari bilan berilgan aylananing bo'linish nuqtalaridan  $AA_1$  ga parallel o'tkazilgan kesmalarning kesishgan tegishli nuqtalari belgilab chiqiladi. Bunda aylanuning 1 nuqtasi orqali o'tuvchi gorizontal chiziq bilan  $O_1$  markazdan chizilgan yoy kesishgan joyda sikloidaning 1 nuqtasi hosil bo'ladi; aynan shunday aylanuning 2 nuqtasi orqali o'tuvchi gorizontal chiziq bilan  $O_2$  markazdan chizilgan yoy kesishgan joyda sikloidaning 11 nuqtasi topiladi va h.k. Topilgan nuqtalar lekalo yordamida ravon tutashtiriladi. Sikloida yoyining uzunligi  $AVI A_1 = 4d$ , sikloida va  $AA_1$  to'g'ri chiziq bilan chegaralangan maydon  $\frac{3}{4} \pi d^2$  ga teng.


*Episikloida va giposikloidalar yasash.* Episikloida va giposikloidalarни yo'naltiruvchi aylana yoyidan iborat bo'lgan sikloidaning xususiy hollari deb qarash mumkin.

Radiusi  $\frac{d}{2}$  bo'lgan yasovchi aylanadagi ixtiyoriy biror nuqta ning  $R$  radiusli qo'zgalmas yo'naltiruvchi aylana tashqi tomoni bo'yicha sirpanmay yumalashidan hosil bo'lgan tekis, ochiq va ravon egri chiziq — *episikloida* deyiladi (84-shakl).


Yasovchi aylanadagi nuqtaning yo'naltiruvchi aylana ichki tomoni bo'yicha sirpanmay yumalashidan hosil bo'lgan tekis, ochiq va ravon egri chiziq *giposikloida* deyiladi (85-shakl).  $AA_1$  yoyining uzunligi markazi burchak  $\alpha$  orqali aniqlanadi:

$$\alpha = \frac{d}{2R} \cdot 360^\circ.$$

Episikloida va giposikloidalarning nuqtalari ham aynan sikloida singari yasaladi. Faqat bu yerda  $AA_1$  ga parallel to'g'ri chiziqlar konsentrik yollar bilan,  $AA_1$  ga perpendikular chiziqlar esa radius



84-shakl. Episikloida yasash.



85-shakl. Giposikloida yasash.

chiziqlari bilan almashtiriladi. Yo'naltiruvchi aylanasining radiusi  $R = \frac{d}{2}$  ga teng bo'lgan episikloida *kardioida* deb ataladi. Yo'naltiruvchi aylanasining radiusi  $R=2d$  ga teng bo'lgan giposikloida *astroïda* deb ataladi. Radiusi  $R=d$  bo'lgan giposikloida yo'naltiruvchi aylana diametrini ifodalovchi to'g'ri chiziqqa aylanadi.


## 4-bob. TASVIRLAR, KO'RINISHLAR, QIRQIMLAR, KESIMLAR (GOST 2.305-68)

### 4.1. ASOSIY QOIDALAR

Mashinasozlik chizmalarida buyumlar (detal, yig'ish birligi va h.k.lar) to'g'ri burchakli proyeksiyalash usulida tasvirlanadi. Bunda buyum (detal) kuzatuvchi bilan proyeksiyalar tekisligi orasida joylashgan deb qaraladi. Asosiy proyeksiyalar tekisligi sifatida olti yoqli kub tomonlari olinadi (86-shakl).

Kubda joylashgan buyumning oltita ko'rinishi, kubning olti yog'ida tasvirlab ko'rsatiladi. Kub tomonlari 87-shaklda ko'rsatilganidek yaxlit bir tekislik vaziyatiga keltirib qaraladi.

Ko'rinishlarda tasvirlar sonini kamaytirish uchun buyumning ko'rinnmas qismlari shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilishi mumkin (88-shakl).




86-shakl. Buyumning asosiy proyeksiya tekisliklariga  
nisbatan joyalashuvi.

## 4.2. KO'RINISHLAR


Buyumning kuzatuvchiga ko'rinishib turgan qismlarining tasviri **ko'rinish**, deb ataladi. Injenerlik grafikasida: *asosiy*, *qo'shimcha* va *mahalliy* ko'rinishlar bo'ladi.

**Asosiy ko'rinishlar.** GOST 2.305-68 da oltita asosiy proyeksiyalar tekisligida olingan ko'rinishlarning nomlari quyidagicha belgilangan (87-shakl): 1 — olddan ko'rinish (bosh ko'rinish); 2 — ustdan ko'rinish; 3 — chapdan ko'rinish; 4 — o'ngdan ko'rinish; 5 — ostdan ko'rinish; 6 — orqadan ko'rinish.




87-shakl. Chizmada asosiy ko'rinishlarni joylashtirish.

Chizmada buyumning frontal proyeksiyalar tekisligidagi tasviri **bosh** (asosiy) ko'rinish deyiladi. Bosh ko'rinish buyumning shakli va o'lchamlari to'g'risida to'laroq tasavvur beradigart qilib tanlab olinadi. Masalan, silindrik sirtli (val, o'q, vtulka, shpilka va sh.k.) sodda detallar uchun bitta bosh ko'rinishning o'zi yetarli.



*88-shakl.* Chizmada ko'rinnmas kontur chizig'idan foydalanish.





*89-shakl.* Aylanish sirtlarini chizmada tasvirlash.

Bosh ko'rinishda silindrik detalning geometrik o'qi chizmaning asosiy yozuviga parallel yo'nalishi kerak (89-shakl). Bunday detallar chizmasining vaziyati ularning stanokdag'i texnologik holatiga mos bo'lishi lozim.

Chizmada barcha ko'rinishlar proyektion bog'lanishda tasvirlanadi. Agar ko'rinishlardan biri proyektion bog'lanishda joylashmagan bo'lsa, ya'ni bosh ko'rinishga nisbatan siljitim tasvirlangan bo'lsa, bu ko'rinish chizmada «*A*» — tipdag'i yozuv bilan belgilanadi (90-shakl, *a*).

Ko'rinishlar imloning bosh (*A*, *B*, *D* va h.k.) harflari hamda qarash yo'nalishini ko'rsatuvchi, strelka bilan ko'rsatiladi. Qarash yo'nalishini ko'rsatuvchi strelka o'lchamlari 90-b shaklda ko'rsatilgandek bo'lishi lozim.




*90-shakl.* Strelka va strelka bo'yicha ko'rinishning joylashtirilishi.

*Qo'shimcha ko'rinish.* Agar buyumning biror qismini asosiy oltita ko'rinishlardan birortasida ham aniq tasvirlash imkonи bo'lmasa, qo'shimcha ko'rinishlardan foydalaniladi. Asosiy proyeksiyalar tekisligidan birortasiga parallel bo'lman yordamchi tekislikka proyeksiyalab hosil qilingan tasvir — q o ' s h i m c h a k o ' r i n i s h deyiladi.

Buyum qo'shimcha ko'rinishining tasviri qarash yo'nalishini ko'rsatuvchi strelka va tegishli harflar bilan belgilanadi (91-shakl, 1-variant).

Qo'shimcha ko'rinishlar chizma qog'ozining bo'sh joyiga mumkin qadar asosiy ko'rinishga yaqinroq joylashtirilishi kerak. Qo'shimcha ko'rinish burib ko'rsatilishi ham mumkin, u holda burligan ko'rinishni ko'rsatuvchi harf yoniga qo'shimcha shartli grafik (○) belgi qo'yiladi. Burliganlikni ko'rsatuvchi (○) belgining hamda yoyilmani ko'rsatuvchi belgining (○) diametri kamida 5 mm olinadi (91-shakl, 2-variant). Agar qo'shimcha ko'rinish tegishli ko'rinishlar bilan bevosita proyeksiyon bog'lanishda bo'lsa, ko'rinish harf va strelka bilan belgilanmaydi.



91-shakl. Qo'shimcha ko'rinishlar.

*Mahalliy ko'rinish.* Buyum sirtining ayrim tor uchastkada chegaralangan bir qismining alohida tasviri — *mahalliy ko'rinish* deb ataladi. Bunday ko'rinish to'lqinsimon uzish chizig'i bilan chegaralangan (92-shakldagi (D) ko'rinish) yoki chegaralanmagan bo'lishi mumkin (91-shakl). Mahalliy ko'rinish chizmada qo'shimcha ko'rinish kabi tegishli strelka va yozuv bilan belgilanadi. Ko'rinish harfi yoniga elementning nomi yozib qo'yilishi mumkin, masalan, A (flanes).

Chizmada tasvirlar sonini mumkin qadar kam bo'lshiga va buyum elementlarining to'la yaqqolligini ta'minlashga harakat qilish kerak. Buning uchun qirqim va kesimlardan hamda shartlilik va soddalash-tirishlardan to'la foydalanish zarur.

### 4.3. QIRQIMLAR


Ichki tuzilishini chizmada tasvirlash uchun buyum tekislik bilan fikran kesiladi. Buyumning kesuvchi tekislik bilan kuzatuvchi oralig'i-dagi qismi fikran olib tashlanadi.

*Qirqim* — predmetning bir yoki bir necha tekislik bilan fikran kesib ko'rsatilgan tasviridir. Bunda predmetning fikran qirqilishi ayan shu qirqim uchun tegishli bo'lib, predmetning boshqa tasvirlariga hech qanday ta'sir qilmaydi. Qirqimda detalning kesuvchi tekislik kesib o'tgan joyi va tekislikning orqasida kuzatuvchiga ko'ringan qismlari ko'rsatiladi (92-shakl).

Kesuvchi tekislik oyna kabi shaffof deb qaraladi. Agar chizmaning yaqqolligi buzilmaydigan bo'lsa, buyumning kesuvchi tekislik orqasida joylashgan elementlarining ayrimlarini tasvirlash shart emas. Kesuvchi tekislikning gorizontal proyeksiyalar tekisligiga nisbatan vaziyatiga qarab qirqimlar uch xil bo'ladi: *gorizontal, vertikal* va *qiya*.

Buyumning gorizontal proyeksiyalar tekisligiga parallel tekislik bilan kesilishidan hosil bo'lgan qirqimi *gorizontal qirqim* deyiladi (92-shakl, A-A qirqim).


Buyumning gorizontal proyeksiyalar tekisligiga perpendikular tekislik bilan kesilishidan hosil bo'lgan qirqimi *vertikal qirqim* deyiladi.



92-shakl. Qirqim va mahalliy ko'rinishlarni tasvirlash.

Vertikal qirqim frontal va profil bo'lishi mumkin. Agar kesuvchi tekislik frontal proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lsa, *frontal qirqim* deyiladi (92-shakl). Kesuvchi tekislik profil proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lsa, *profil qirqim* deb ataladi (92-shakl, *B-B* qirqim).

Buyumning gorizontal proyeksiyalar tekisligiga nisbatan qiya vaziyatdagi tekislik bilan kesishdan hosil bo'lgan qirqimi *qiya qirqim* deyiladi (93-shakl, *B-B* qirqim). Kesuvchi tekisliklar soniga qarab qirqimlar *oddiy* va *murakkab* qirqimlarga bo'linadi:




93-shakl. Qiya qirqim va mahalliy ko'rinish.

1. *Oddiy qirqim* — buyumni bitta kesuvchi tekislik bilan kesishdan hosil bo'ladi (92-shakl).



2. *Murakkab qirqim* — buyumni ikkita yoki undan ortiq kesuvchi tekislik bilan kesib hosil qilinadi (94-shakl).

Murakkab qirqimlar pog'onali va siniq qirqimlarga bo'linadi.

*Pog'onali qirqimlar* murakkab qirqim bo'lib, narsalarni bir necha parallel kesuvchi tekisliklar yordamida kesib hosil qilinadi. 94-shaklda *A-A*



94-shakl. Pog'onali murakkab frontal qirqim.



95-shakl. Siniq murakkab qirqim.

tekislik detalning uzunligiga yoki balandligiga perpendikular yo‘nalishda kesib o‘tsa, bunday qirqim — *ko‘ndalang qirqim*, deb ataladi (96-shakl, A—A qirqim).

Ko‘rinish bilan qirqimni ajratish chizig‘i sifatida siniq va to‘l-qinsimon chiziqlardan yoki simmetriya o‘qlaridan foydalilanadi. Kesuvchi tekisliklarning vaziyati kesim chiziqlari orqali ko‘rsatiladi. Kesim chiziqlari uchun uzuq chiziqlardan foydalilanadi. Kesim chiziqlari tasvir konturini kesmasdan, unga tegmasdan, uning tashqarisidan o‘tkazilishi lozim.

Qirqimlarni ko‘rsatuvchi uzuq chiziqlarga qarash yo‘nalishini ko‘rsatuvchi strelkalar chiziqning chekka uchlaridan 2—3 mm tashlab o‘tkaziladi (97-shakl).

Murakkab qirqimlar uchun kesuvchi tekislikning sinish chizig‘i tasvir konturining ichida ko‘rsatilib, boshlang‘ich va oxirgi shtrixlari esa oddiy qirqimlardagi kabi kontur chizig‘idan tashqarida tegishli strelkalar bilan ko‘rsatiladi (94, 95-shakllar).

Strelkalar tutash ingichka chiziqlarda chiziladi. Kesim chiziqlarining boshlanish va oxirgi shtrixlariga hamda zarur bo‘lgan hollarda

murakkab pog‘onali frontal qirqim tasvirlangan. Siniq murakkab qirqim kesuvchi tekisliklarning o‘zaro kesishuvidan hosil bo‘ladi. Bunday qirqimni chizmada tasvirlash uchun kesuvchi tekisliklar bir tekislikka joylashguncha shartli ravishda buriladi.

Lekin bunda burish yo‘nalishi qarash yo‘nalishiga mos bo‘lmasligi mumkin. Agar burilgan tekisliklar asosiy proyeksiyalar tekisligidan biriga parallel bo‘lib qolsa, siniq qirqim o‘sha tekislikdagi tegishli ko‘rinish o‘rnida tasvirlanadi (95-shakl, A—A qirqim).

Agar kesuvchi tekislik detalning uzunligi yoki balandligi bo‘yicha kesib o‘tsa, bunday qirqimni *bo‘ylama qirqim* deb (96-shakl, bosh ko‘rinishdagi qirqim), agar kesuvchi te-


uning sinish joylariga alfa-vitining bir xil bosh harflari qo'yib chiqiladi. Qirqim tepasiga esa  $A-A$  ko'rinishdagi yozuv yoziladi. Chizmada qirqimlarni (shuningdek, kesim va ko'rinishlarni) belgilash uchun alfa-vitdagi barcha bosh harflardan foydalanish mumkin. Harfli belgilar imlo bo'yicha avval ko'rinishlarga, qirqimlarga, so'ngra kesimlarga qo'yiladi.

Harfli belgilarning o'l-chamlari shu chizmadagi o'l-cham sonlari shriftidan taxminan ikki marta katta bo'lishi lozim (GOST 2.316-68). Agar kesuvchi tekislik predmetning simmetriya tekisligi orqali o'tsa, tegishli tasvirlari proyeksiyon bog'lanishda bo'lsa, gorizontal, frontal hamda profil qirqimlar ustiga  $A-A$ ,  $B-B$  kabi yozuv yozilmaydi (92-shaklning «Bosh ko'rinishi» o'rnidagi qirqim).

Gorizontal, frontal va profil qirqimlarni tegishli ko'rinishlar o'rniда joylashtirish tavsiya etiladi (92-shakl). Agar qirqimlar asosiy ko'rinishlar o'rniда joylashmagan bo'lsa, u holda ularni mazkur detalning bosh ko'rinishiga xos vaziyatida (93-shakl,  $B-B$  qirqim) tasvirlash kerak.

Kesuvchi tekisligi frontal yoki profil proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'limgan vertikal qirqim, shuningdek, qiya qirqim strelkalar bilan ko'rsatilgan qarash yo'nalishi tomonida yoki chizmaning istalgan bo'sh joyida burib tasvirlanishi mumkin (93-shakl,  $B-B$  qirqim). Bunda qirqim belgisining o'ng yoniga «burilgan» belgisi  $\bigcirc$  ni qo'shib, masalan,  $B-B \bigcirc$  tarzida yoziladi. Ko'rinishning bir qismini tegishli qirqimning bir qismi bilan qo'shib chizish mumkin. Bunda ularni o'q yoki to'lqinsimon tutash chiziq bilan ajratib qo'yiladi (98-shakl).


Simmetrik shakldagi ko'rinishning yarmi qirqimning yarmi bilan qo'shib tasvirlansa, simmetriya o'qlaridan ularni ajratish chizig'i sifatida foydalaniladi (98-shakldagi  $A-A$ ,  $B-B$  qirqimlar).




96-shakl. Bo'ylama va ko'ndalang qirqim.



97-shakl. Kesuvchi tekislikning yo'nalishini ko'rsatish.




*98-shakl.* Ko'rinishning bir qismi bilan qirqimining bir qismini qo'shib joylashtirish.



*99-shakl.* Tasvirning kontur chizig'i simmetriya o'qi bilan ustma-ust tushib qolganda detal qirqimining bajarilishi.

#### 4.4. CHIQARISH ELEMENTLARI

*Chetga chiqarilgan elementlar* — buyum biror qismining shaklini, o'lchamlarini va shu elementga tegishli boshqa ma'lumotlarni tushuntirish uchun ko'pincha kattalashtirib, alohida bajarilgan qo'shimcha tasviridir (100-shakl). Chetga chiqarilgan elementlar tegishli tasvirlarda ko'rsatilmagan ma'lumotlarga ega bo'lishi va mazmun jihatidan undan farq qilishi mumkin (masalan, tasvir — ko'rinish bo'lishi, chetga chiqarilgan element esa qirqim bo'lishi mumkin).



*100-shakl.* Chetga chiqarish elementining tasvirlanishi.

Chiqarish elementlaridan foydalilanilda ko'rinish, qirqim yoki kesimda buyumning tegishli joyi yopiq ingichka tutash chiziq (aylana yoki oval) bilan ajratib ko'rsatiladi. Chiqarish elementi harfli belgi bilan belgilanib, chiqarish chizig'ining tokchasiga qo'yiladi. Chetga chiqarilgan elementning harfli belgisi va kattalashtirish mashtabi ko'rsatiladi. Masalan: A(2:1).

## 4.5. KESIMLAR

*Kesim* — predmetning bitta yoki bir nechta tekislik bilan fikran kesib hosil qilingan tasviri. Bevosita kesuvchi tekislikda nima hosil bo'lsa, kesimda ham shu narsa ko'rsatiladi (15-jadval).

Kesimlar ko'rinishdan chetga chiqarilib yoki bevosita ko'rinishning o'zida ko'rsatilgan bo'ladi. Bevosita ko'rinishning o'zida tasvirlangan kesim konturi s/3 yo'g'onlikda, chetga chiqarilgan kesim konturi esa asosiy tutash chiziqlarda chiziladi. Normal ko'ndalang kesimlar olish uchun kesuvchi tekislikni tanlab o'tkazish kerak.

## 4.6. CHAMBARAKLARNING TASVIRLANISHI (GOST 2.305-68)



Chambaraklar (shkivlar) uch xil elementni: gardish, gupchak va kegaylarni o'z ichiga oladi (101-shakl).

Chambaraklarni chizmada shunday joylashtirish kerakki, ularning bosh ko'rinishi 101, 102, 103-shakllardagidek, markaziy o'q chiziqlari chizmaning asosiy yozuviga parallel bo'lishi lozim. Chambarak (shkiv) lardagi kegaylarning simmetrik yoki nosimmetrik joylashuvidan qat'i nazar, ularning bosh ko'rinishida to'la qirqimi bajariladi va harf bilan belgilanmaydi. Bosh ko'rinish tasvirini soddashtirish maqsadida, kegaylor sonidan qat'i nazar ulardan ikkitasi qirqim tekisligida simmetrik ravishda ko'rsatiladi (103, 103-shakllar).

Chambarak qirqimini quyidagi tartibda bajarish tavsiya etiladi: gardishi bilan gupchagi kesib ko'rsatiladi: kegaylor qirqim tekisligiga bo'yamasiga tushib qolgan taqdirda kesilmay tasvirlanadi (101, 102-shakllar).

Kegayning ko'ndalang kesimlari uning uzunligi bo'yicha bir tekis bo'lmay, gupchakka yaqinlashgan sari kattalashib boradi. Agar kegayning gupchakka yaqin kesimining o'lchamlarini  $a$  va  $b$  deb qabul qilsak (101-shaklga qarang),  $b$  hisoblab topiladi,  $a \approx 0,4 \cdot b$  binobarin, kegay gardish yaqinidagi kesimining o'lchamlari  $b$ , va  $a$ , bo'lib, bunda  $b = 0,8 \cdot b$ ;  $a = 0,8 \cdot a$  ga teng olinadi. Chambarak (shkiv)larning diametri: quyidagi sonlar qatoridan tanlab olinishi tavsiya etiladi (o'lchamlar mm hisobida): 65, 80, 90, 100, 120, 125, 140, 160, 180, 225, 250, 280, 300, 400 va h.k. Chambarak gupchagidagi kvadrat kesimli teshikning o'lchamlarini gayka va bolt kallagining «kalitbop» o'lchamiga mos keladigan qilib tanlab olinadi.

## 4.7. KESİMLAR KLASİFIKATİYASI





T/r	Kesimler turi	Shakllar	Tavsiflanishi
1	Qırqım tarkibiga kinuvchi	98, 100-shakllarga qarang	Kesimlar qırqımlarning tarkibiy qismi bo'lib, ular 91—96-bettarda batafsil tushuntirilan. Kesim konturi asosiy yo'g' onlikdagitutash chizqlarda chiziladi.
2	Ko'rinishdan cheiga chiqarilgan kesimlar	 	<p>Kesimlar tasvir konturidan tashqaarida, kesim chizig'inning davomida (shakl, a) ko'rinishning uzilgan qismalari oralig'ida tasvirlanishi mumkin (shakl, b).</p> <p>Simmetrik shakldagi kesimlar, kesim chizig'i bilan belgilanmaydi. Kesim chizmaning istalgan bo'sh joyida, lekin iloji boricha buyurneksiyatotgan joyi yaqnida burmasdan (shakl, d) yoki burib joylashtirilishi mumkin. Bunday hollarda kesuvchi tekislikning yo'nalishi kesimi tegishli harflar bilan belgilanadi.</p> <p>Agar shakl burib tasvirlanayotgan bo'lsa, «burilgan» belgisi «O» qo'shib yoziladi. Kesim konturi asosiy tutash chizqlarda chizib chiqiladi.</p>




3	Bevosita ko'rinishning o'zida chizilgan kesimlar		Kesim ko'rinishning o'zida joylashtiriladi (shakl. a). Kesimi berilgan joyda tasvirining konturi uzilmaydi. Kesim shakli nosimmetrik bo'lsa, kesim chizig'i va qarash yo'nalishi strelnka bilan ko'rsatiladi (shakl, b).
4	Aynan bir detalga tegishli bir necha o'xshash kesimlar bo'lganida		Kesim konturi s/3 yo'g'onlikda ingichka tutash chiziqlarda chiziladi.
5	Kesuvchi tekistik, teshik yoki chuqurchani chegaralovchi aylanish stirning o'qil orgali o'tganida		Teshik yoki chuqurcha konturi qirqimdagidek to'liq ko'rsatiladi.


#### 4.8. CHIZMALARDAGI AYRIM SHARTLILIK VA SODDALASHTIRISHLAR

Ko'rinishlar, qirqimlar va kesimlarni bajarishda ularning ayrim elementlarini shartliliklar va soddalashtirishlardan foydalaniib tasvirlash tavsisiya etiladi.

T/r	Tavsiyalar	Shakllar
1	<p>Agar ko'rinish, qirqim, kesim simmetrik shakl bo'lsa, tasvirning yarmi chizib ko'rsatilishi (chapdan ko'rinish) yoki yarmidan biroz ko'proq'ni to'qinsimon chiziq bilan uzb ko'rsatilishi mumkin (<math>A-A</math> qirqim).</p> <p>Agar detal, oraliglari o'zarboabar masofada joylashgan bir xil elementlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, detaлинning tasvirida bitta elementning to'liq tasviri ko'rsatilib, qolganlari esa soddalashtirilayotki shartli ko'rsatilishi tavsisiya etiladi (flanesdagi teshiklarga qarang).</p> <p>Teshiklar silindrikl flanesning aylanasi bo'yicha joylashgan bo'lib, ularni tekislik kesib o'tmasa, teshiklardan bittasini shartli ravishda qirqimda ko'rsatish mumkin.</p> <p>Agar kesiyuchi tekislik qovurg'alarga oyshash yupqa devor bo'ylab yo'nalgan bo'lsa, yupqa devorlar qirqimda strixlanmay ko'rsatiladi va u detalning boshqa qismidan tutash kontur chizig'i bilan ajratiladi.</p>	


<p>2 Viat, parchin mix, shponka, val, shpindel, chambarak kegayı, shkiv, tishli g'ildirak, shatun, bolt, shpilka va dasta kabı detallar bo'ylama qirqimda kesmasdan ko'rsatiladi. Agar shu kabi detaillarda teshiklar va chuquchalar mayjud bo'lsa, ular mahalliy qirqim yordamida ko'rsatiladi. Sharlarni hamma vaqt kesmasdan ko'rsatiladi.</p>	 
<p>3 Agar detailarning qovurg'a, kegay va shunga o'xshash elementlariда o'yilgan chuqurchalari bo'lsa, ularni mahalliy qirqim orqali ko'rsatiladi.</p>	 
<p>4 Uncha katta bo'lmaidan qiyalik va konusliklarni kattalashtirib tasvirlash mumkin. Qiyaligi va konusligini yaqqol aniqlab bo'lmaydigan tasvirlarda qiyalik yoki konuslikning kichik o'lchamiga mos keladigan faqat bitta ingichka turash chiziq o'tkaziladi.</p>	
<p>5 Kvadrat teshik yoki kvadrat sterjen faqat bir ko'rinishda tasvirlangan bo'lsa, uning tekis yuzasini ko'rsatish uchun ingichka tutash chiziqdarda kvadrat diagonalinai o'tkazish tavsiya etiladi.</p>	

6	Doimiy kesinga yoki qonuny o'zgaruvchan kesimga ega bo'lgan uzun detallarni (yoki elementlarni) uzib tasvirlash mumkin.	
7	To'rsimon dakkalni, turli naqshli va shunga oxshash elementlarni chizmada qisman yeki iloji boricha sodda-lashtirib tasvirlash mumkin.	
8	Tishli g'ildirakdag'i, shkivdag'i, yupchakdag'i teshiklarni, shuningdek, shponka pazlarini ko'rsatish uchun detalning ikkinchi ko'rinishi o'mida faqat teshik bilan paz konturi ko'rsatilishi mumkin.	
9	Tasvirlash sonini kamaytirish maqsadida kuzattuvchi bilan kesuvchi tekshilik orasida joylashtagan predmetning bি-ror qismi bevosita qirqimning o'zida yo'g'on shurix-punktui chiziq (ustiga chizilgan proyeksiyalar) bilan tasvirlanishi mumkin.	




101-shakl. To'g'ri kegayli chambaraklar.

1-variant    2-variant



102-shakl. Yaproqsimon chambaraklar.



103-shakl. Murakkab gardishli chambaraklar.


Chambaraklar gardishi, kegaylarning tuzilishiga qarab, turlicha ko'rinishlarda uchraydi. Shulardan ayrimlari 101, 102, 103-shakllarda va o'lchamlari 17-jadvalda keltirilgan.

**Kegayli chambaraklar.** 17-jadvalda mashinasozlikda ishlataligan chambaraklardan birining MH 864 ga muvofiq o'lchamlari keltirilgan:

17-jadval


A bajarilishi — teshikli (dasta uchun)

B bajarilishi — teshiksiz



O'lchamlari, mm

D	majburiy								tavsiya etiladi					
	d		$d_1$	$d_2$	$d_3$	H	b	a	B	E	R	$R_o$	$R_l$	
125	—	13	14	8	13	28	36	18	8	18	20	9	18	44
160	—	15	16	10	17	32	40	20	8	20	22	10	22	58
200	—	18	20	10	17	86	45	24	9,5	22	25	11	26	76
250	—	22	25	12	21	45	50	28	9,5	25	28	12,5	—	95
320	25	28	30	12	21	55	56	32	10	28	32	14	—	128



Tavsiya etiladi

D	R <sub>1</sub>	R <sub>2</sub>	r	r <sub>1</sub>	r <sub>2</sub>	r <sub>3</sub>	K <sub>1</sub>	K <sub>2</sub>	b <sub>1</sub>	c	G <sub>1</sub>	d <sub>1</sub>	Kegaylar soni, n	Fason dasta GOST 14741-69 bo'yicha
125	12	5,5	3,5	3,4	4,1	8	9	11	8	1,5	0,8	39	3	1160x16
160	16	6	4	3,7	4,5	10	10	12	9	2	1	44	3	1175x16
200	20	7	4	4,1	5,3	10	11	14	10	2	1	50	3	1175x20
250	24	8	4	4,5	6	12	12	16	11	2,5	1,5	61	3	1195x20
320	28	9	5	5,3	6,8	13	14	18	12	2,5	1,5	73	3	1195x20

*Eslatma:* materiali kulrang cho'yan yoki aluminiy qotishmasidan, o'l-chamlari: D=250 mm va d=22 mm bo'lgan chambaraklarning shartli belgilanishi:

A bajarilishi — chambarak A 250 x 22 MH 8-64;

B bajarilishi — chambarak B 250 x 22 MH 8-64.

## 4.9. REZBALAR

### I. Asosiy tushunchalar


Rezbalar birikmalarning mustahkamligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, rezbalar yordamida birikmalarni yig'ish va ajratish juda quayadir. Bunday birikmalarning asosiy elementi rezbadir.

*Rezba* — biror tekis shaklning silindrik yoki konussimon sirt bo'ylab vintsimon chiziqli harakatidan hosil bo'lgan sirt.

Silindrik sirtda hosil qilingan rezba — silindrik, konussimon sirtdagи rezba *konussimon rezba*, deb ataladi. Bolt, shpilka va shu kabi detal-lardagi rezbalar *sirtqi rezbalar*, gayka bilan vtulka singari detallardagi rezbalar *ichki rezbalar* deyiladi. Rezba kesuvchi asbob uchining shakliga qarab rezba profillari — teng yonli uchburchaklik trapetsiyasimon, yumaloq va to'g'ri burchaklik (kvadrat) shaklida bo'lishi mumkin.

Vintsimon sirtlarning yo'nalishiga qarab rezbalar o'naqay va chapaqay bo'ladi. Agar vintsimon chiziqlar o'z o'qi atrofida soat strelkasi harakati yo'nalishiga teskari ko'tarilsa, *o'naqay rezba* (104-shakl, *a*, *b*, *d*) yoki soat strelkasi harakati yo'nalishi bo'yicha ko'tarilsa, *chapaqay rezba* deyiladi.

Rezbalar *bir kirimli* va *ko'p kirimli* bo'ladi. Bir profilining vintsimon harakatidan — bir kirimli (104-shakl, *a*), ikki profilning vintsimon harakatidan — ikki kirimli (104-shakl, *b*) va uch profilning vintsimon harakatidan — uch kirimli rezba hosil bo'ladi (104-shakl, *d*).



104-shakl. Bir va ko'p kirimli rezbalar.

Ko'p qirimli rezbalarda rezba qadami va rezba yo'li bir-biridan farq qiladi. Yondosh o'ramlar orasidagi yasovchi bo'y lab o'lchanan masofa — rezbaning *qadami* deb ataladi va *P* harfi bilan belgilanadi.

Bir o'ramning o'zidagi ikki nuqta orasida yasovchi bo'y lab o'lchanan masofa rezbaning *yo'li* deb ataladi va *t* harfi bilan belgilanadi (104-shakl).

Ish sharoitiga qarab rezbalar: *biriktirish* va *yurgizish* rezbalariga bo'linadi. O'zining konstruktiv xususiyatlari bilan turli harorat rejimlarida, shuningdek, statik va dinamik kuchlar ta'sirida detal-larning qo'zg'almas, mustahkam birikmasini to'liq ta'minlay oladigan rezbalar — biriktirish rezbalari deyiladi. Bu tipdagi rezbalarga metrik truba, duymli va yumaloq rezbalar kiradi.

Aylanma harakatni to'g'ri chiziqli harakatga aylantiruvchi hamda katta nagruzkalarni uncha yuqori bo'lman tezlikda siljishini ta'minlovchi rezbalar — *yurgizish* rezbalari deyiladi. Bu tipdagi rezbalarga — trapetsiyasimon, tirak to'g'ri burchakli profilli rezbalar kiradi.

Rezbalarining asosiy elementlari va parametrlari to'g'risida to'la-roq ma'lumotlarni GOST 11708-82 dan olish mumkin.

## II. Rezbalarining turlari va belgilanishi


*1. Metrik rezbalar.* Bunday rezbalardan texnikada ajraladigan birikmalar yasashda foydalilanadi. Rezbaning profili tent yonli uchburchak bo'lib, uchidagi burchagi  $60^\circ$  ga teng. Rezbaning profili 105-shaklda va elementlarining o'lchamlari GOST 9150-81 da keltirilgan.

Umumiy mashinasozlikda qo'llaniladigan metrik rezbaning diametri va qadami o'lchamlari GOST 8724-81 ga muvofiq 28-jadvalda, rezbaning tashqi, o'rta va ichki diametrлari esa GOST 24705-81 da keltirilgan. Metrik rezbaning aniqlik darajasi va qo'yimlar maydoni GOST 16093-81 ga muvofiq 29, 30-jadvallarda keltirilgan.

Rezba profilining cho'qqisi va tubi to'g'ri chiziq bo'yicha kesilgan yoki yumaloqlangan bo'lib, u rezba ochishni yengillashtiradi hamda ish jarayonida rezbani shikastlanishdan saqlaydi.

Rezbalar silindr va konussimon sirtlarda ochilgani uchun ularni *silindrik* yoki *konussimon* deyiladi. Chizmada silindrik rezbalar «M», konussimon metrik rezbalar esa «KM»\* harflar bilan belgilanadi.

\*K — konus so'zidan olingan.




105-shakl. Metrik rezbaning profillari.

Metrik rezbalar 1÷68 mm.li diametrlar uchun yirik qadamli, 1÷600 mm. li diametrlar uchun mayda qadamli qilib yasaladi. Yupqa devorli detallarda mayda qadamli rezbalardan foydalaniлади. Rezbaning belgisida, mayda qadamlar ko'rsatilib, yirik qadamlar esa ko'rsatilmaydi.

Metrik rezbalar asosan o'naqay, ayrim hollarda esa chapaqay yo'-nalishlarda tayyorlanadi. Chapaqay rezbalar chizmada  $LH$  harfi bilan belgilanadi. Rezbalar belgisida, uning tashqi diametri, qadami, yo'nalishi va dopusklar maydoni beriladi. Masalan, tashqi diametri  $d=30$  mm bo'lgan metrik rezbaning belgilanishi: tashqi (sterjendagi) rezba uchun M30—6 g; M30 HL—6 g; M30x2LH—6 g; ichki (teshikdag'i) rezba uchun M30-6H; M30 LH-6H; M30x2-6H; M30x2; LH—6H va h.k.

Materialning turiga va ishlatalish sohalariga qarab, silindrik metrik rezbalarning asosiy o'lchamlari davlat standartlaridan olinadi; jumladan, plastmassadan ishlangan detallarning rezbasi o'lchamlari GOST 11709-81 dan, o'tkazishlari esa GOST 24834-81, GOST 4608-81 va boshqalardan olinadi.

*2. Duymoviy rezbalar.* Bu rezbaning profili teng tomonli uch-burchaklik bo'lib, uchidagi burchagi  $55^\circ$  ga teng (106-shakl). Chizmada rezbaning shartli belgisi duymda ko'rsatiladi, masalan,  $1\frac{1}{2}''$  (bir duym  $1'' \approx 25,4$  mm.ga teng).




106-shakl. Duymoviy rezbalarning profillari.

Duymoviy rezbalar eski mashina detallarini qayta tiklashda ishlataladi. Yangi mashina detallari faqat metrik rezbali qilib loyihalanadi.

Duymoviy rezbalarning asosiy o'lchamlari NKTP 1260 ga muvofiq 31-jadvalda keltirilgan.

3. *Silindrik truba rezbalar* (GOST 6357-81). Bunday rezbalar, suv-gaz quvurlarida, ularni biriktiruvchi mufta, tirsak kabi qismlarda va shunga o'xshash armaturalarda ishlataliladi. Bu rezbaning profili teng tomonli uchburchaklik bo'lib, uchidagi burchagi  $55^\circ$ ga teng. Uchburchaklarning uchi va o'yilalarining tubi yumaloqlangan (107-shakl).

Rezbaning shartli belgisiga: G harfi, rezbaning duymda ifodalangan o'lchami (duym «» — belgisisiz); o'rta diametrning aniqlik




107-shakl. Silindrik truba rezbaning profillari.

klassi ( $A$  yoki  $B$ ) va rezbaning uzunlik (agar nostandard bo'lsa) o'lchamlari kiradi. Chapaqay rezbalar uchun esa, rezba belgisiga  $LH$  qo'shib yoziladi. Misollar:  $G^{1/2}$  —  $A$ ;  $G^{1/2}LH$  —  $A$ ;  $G^{1/2}$  —  $B$  — 25;  $G^{1/2}LH$  —  $B$  — 4,0, bu yerda, 25, 40 — rezba uzunligi mm. da.  $A$ ,  $B$  — aniqlik klasslari va  $1^{1/2}$  — rezbaning tashqi diametri o'lchamlari (duymda).


Silindrik truba rezba o'lchamining belgisi, chiqarish chizig'inining tokchasi ustiga 18-jadvalda ko'rsatilganidek yoziladi. Rezbali birikmalarda o'tkazishlarni kasrli harflar bilan belgilanadi.

*4. Konussimon truba rezbalar* (GOST 6211-81). Bu rezbalarning profili uchburchak bo'lib, uchidagi burchagi  $55^\circ$ , profilning uchlari yumaloqlangan. Mazkur rezbaning profili 108-shakl,  $a$  da va o'lchamlari GOST 6211-81 ga muvofiq 33-jadvalda keltirilgan.


Bu rezbadan yuqori issiqlik va bosim ostida ishlaydigan hamda katta zichlikni talab qiluvchi naycha va quvurlar birikmasida foyda-




*a*



*b*



*d*



*e*

*108-shakl. Konussimon rezbalarning profillari.*

laniladi. Rezba ochiladigan detallarning konusligi K=1:16 nisbatga yoki konus uchidagi burchagi  $\varphi=3^{\circ}34'48''$  ga teng. Konussimon rezbaning diametri doimiy ravishda o'zgarib turganligi uchun uning o'lchamini asosiy tekislikdagi kesimdan olinadi. Asosiy tekislik taxminan tashqi rezba uzunligining o'rtasidan o'tkaziladi, chizmada, truba uchidan tekislikkacha bo'lgan masofa ( $l_2$ ) ko'rsatiladi.

Asosiy tekislikdagi rezbaning diametri sihindrsimon truba rezba diametri bilan bir xil bo'lgani uchun bunday rezbalar birikmasini tuzish mumkin.

Konussimon truba rezbalar «R» harfi bilan, jumladan, sterjendagi tashqi konussimon rezba «R», teshikdagi ichki konussimon rezba «R» va teshikdagi silindrik va tashqi konussimon truba rezba «R» harflar bilan belgilanadi. Bunday rezbalar chizmada, masalan,  $R \frac{1}{2}$ ,  $Rc \frac{1}{2}$ ,  $Rp \frac{1}{2}$  ko'rinishda, agar rezbalar chapaqay yo'nalishda bo'lsa, o'lcham raqami yoniga  $LH$  qo'shib  $R \frac{1}{2}, LH$ ;  $Rc \frac{1}{2}, LH$ ;  $Rp \frac{1}{2}, LH$  ko'rinishlarida yoziladi. Bu yerda,  $\frac{1}{2}$  — rezba o'lchami — yarim duym. Konussimon rezbali birikmalar o'lchami kasr ko'rinishida ifodalanadi, kasrning suratida ichki rezbaning belgisi, maxrajda esa tashqi rezba belgisi va rezbaning o'lchami ko'rsatiladi. Masalan:











1. Ichki va tashqi konussimon truba rezbalar birikmasining belgilanishi:  $\frac{Rc}{R} \frac{1}{2}$  GOST 6211-81.



2. GOST 6357-81 ga muvofiq A klass aniqlikdagi ichki silindrik truba rezba va tashqi konussimon truba rezbalar birikmasining belgilanishi:

$$\frac{G}{R} 1 \frac{1}{2} LH - A \text{ yoki } \frac{G}{R} 1 \frac{1}{2} - A \text{ GOST 6211-81}$$

5. *Konussimon duymli rezbalar (GOST 6111-52\*)*. Bu rezbadan suv, moy, yoqilg'i va havo o'tadigan mashina va uskunalarning quvur va naychalarini biriktirishda foydalaniladi. Profili teng yonli uchbur-chak bo'lib, uchidagi burchagi  $60^{\circ}$  hamda konusligi 1:16 nisbatda bo'lgan konussimon duymli rezbalarning profili va uning o'lchamlari GOST 6111-52 ga muvofiq 108-shakl,  $b$  da keltirilgan. Rezba belgisi: rezbaning shartli belgisi «K», duymda ifodalangan o'lchami ( $1'' = 25,4$  mm) va davlat standarti kiradi. Masalan,  $K \frac{3}{4}$  GOST 6111-52\*. Rezba o'lchami, chiqarish chizig'i tokchasi ustiga yoziladi (18-jadval).

**Standart rezbalarning belgilanishi**

Birikturish rezbalari		Rezbaning nomi		Bel-gila-nishi		Rezba tasviriga shartli belgilarni qo'yish		Standart
truba	duymli	metrik	mayda	yirik	M	M	M	
konussimon	silindrik	G						GOST 9150-81
		R						GOST 9150-81
		R <sub>c</sub>						NKTP-1260
		R <sub>p</sub>						GOST 6357-81
								GOST 6211-81

Yurgizish rezbalari	trapetsiyasi-mon	<i>Tr</i>		GOST 9484-81
tirak		<i>S</i>		GOST 1077-82

6. Konussimon metrik rezbalar (GOST 25229-82). Bu rezbaning profilidagi burchagi  $60^\circ$  bo‘lib, konusligi  $K=1:6$  nisbatda yoki burchagi  $\varphi = 3^\circ 34' 48''$  ga teng (108-shakl, *d*). GOST 25229-82 ga muvofiq asosiy tekislikdagi rezbaning profili va o‘lchamlari, GOST 9150-81 dagi metrik rezba bilan umumiy o‘lchamga ega bo‘lgani uchun, konussimon tashqi va silindrik ichki rezbalar birikmasini tashkil etishi mumkin. Chizmada konussimon metrik rezbalar: «KM» — harflari, rezbaning tashqi diametri, qadami va yo‘nalishini ko‘rsatuvchi belgilar orqali ifodalanadi. Masalan, *KM* 36x2, shuning o‘zi chapaqay rezba uchun *KM* 36x2 *LH*, GOST 25229-82.


Ichki silindrik va tashqi konussimon metrik rezbali birikmalar, kasrlı *M/KM* belgisi, asosiy tekislikdagi diametri va qadami orqali ifodalanadi, masalan, *M/KM* 36x2 GOST 25229-82. Bunday birikmalarda teshikdagi rezba belgisi (*M*) suratda, sterjendagi tashqi rezba belgisi (*KM*) maxrajda yoziladi. Asosiy tekislik o‘lchami (*l<sub>2</sub>*) chizmada ko‘rsatilishi zarur (108-shakl, *e*).

Konussimon metrik rezbalar konussimon truba rezbalar kabi yuqori bosim ostida ishlaydigan quvurlarni biriktirishda ishlatiladi. GOST 25229-82 ga muvofiq konussimon metrik rezbaning asosiy o‘lchamlari 34-jadvalda keltirilgan.

7. Yumaloq rezbalar. Uning profili va o‘lchamlari GOST 13536-68 ga muvofiq 109-shaklda keltirilgan. Mazkur rezbaning profili yumaloqlanganligi uchun uni *yumaloq rezba* deyiladi. Bu rezbalardan, asosan, santonika, elektr-yoritish asboblarida, plastmassa va chinni buyumlarni biriktirishda foydalilanildi.

GOST 13536-68 ga muvofiq, faqat diametri  $d=12$  mm bo'lgan yumaloq rezbalar santexnika buyumlari (suv quvuri va hojatxona jo'mraklari hamda qorishtirish ventillarining shpindellari) da ishlatalidi. Rezbaning shartli belgisi «*Kp*»<sup>1</sup> bo'lib, chizmani belgilanishi: *Kp* 12x2,54 GOST 13536-68, bunda 2,54 — rezbaning qadami mm. da. ST SEV 3293-83 ga kirgan va diametri 8—200 mm. gacha bo'lgan yumaloq rezbalar yuqoridagilar bilan bir xil profilga (109-shakl) ega bo'lgani uchun bu standart bevosita davlat standarti sifatida qabul qilingan va muomalaga joriy etilgan. Bu rezbaning shartli belgisi «*Rd*».


Tashqi diametri 20 mm bo'lgan o'naqay va chapaqay rezbalar quyidagicha belgilanadi: *Rd*20 ST SEV 3293-83; chap rezba *Rd*20LH ST SEV 3293-83. Elektr chiroqlarida va shu kabi buyumlarda GOST 6042-83 ga muvofiq yumaloq Edisson rezbalari qo'llanadi. Ular chizmada *E14* GOST 6042-83 ko'rinishda belgilanadi, bu yerda, *E* — rezbaning shartli belgisi, *I4* — tashqi diametri.



109-shakl. Yumaloq profilli rezbalar.

Yumaloq profilli rezbalar GOST 19681-83 ga muvofiq turli o'l-chamdag'i qorishtirish ventili shpindelida hamda GOST 20275-74 ga muvofiq suv quvuri jo'mraklarida ishlatalidi. Bunday rezbaning shartli belgisi «*Kp*» bo'lib, ular quyidagicha belgilanadi: *Kp* 40x3,175 GOST 19681-83, *Kp* 40x3,175 GOST 20275-74.

*8. Trapetsiyasimon rezbalar.* Ilgarilanma-qaytma harakatlarni uzatuvchi vintlarda qo'llanadi. Rezbaning profili GOST 9484-81 ga muvofiq 110-shaklda keltirilgan.



110-shakl. Trapetsiyasimon rezbaning profillari.


Rezba bir va ko'p kirimli bo'ladi. Bir kirimli rezbaning diametri va qadamlari GOST 24738-81 ga muvofiq 35-jadvalda, anqlik klasslari va qo'yimlar maydoni GOST 9562-84 ga muvofiq 37-jadvalda keltirilgan. Ko'p kirimli rezbalarning asosiy o'lchamlari, yo'li va qo'yimlar maydoni GOST 24739-81 ga muvofiq 36-jadvalda keltirilgan. Ko'p kirimli rezbaning muhim elementlaridan biri rezbaning yo'lidir ( $t$ )  $t = P \cdot n$ ;  $P$  — rezba qadami, mm,  $n$  — kirimlar soni.

Trapetsiyasimon rezbaning shartli belgisi «Tg». Bir kirimli rezba belgisiga uning o'lchami, qadami, qo'yimlar maydoni kiradi. Masalan, diametri 50 mm, qadami  $P=4$  mm va qo'yimlar maydoni 8e bo'lgan tashqi rezbaning belgilanishi; Tp50x4-8e GOST 24738-81, ichki rezba Tp 50x4—8H GOST 24738-81, shuning o'zi chapaqay (LH) rezba uchun Tp50x4LH—8H GOST 24738-81.

Ko'p kirimli rezbalarda qo'shimcha ravishda rezbaning yo'li ham ko'rsatiladi. Masalan, Tp50x8(P4)—8H GOST 24739-81 chapaqay rezba uchun Tp50x8(P4)LH—8H GOST 24739-81, rezba belgisidagi

$P4$  qadamlar, rezbaning yo'li  $t=8$  mm, kirimlar soni  $n = \frac{t}{P} = \frac{8}{4} = 2$ .

9. *Tirak rezbalar* — kuch bir tomonga yo'nalgan moslamalarda: domkrat, press, iskanja va shu kabi siqish vintlarida ishlataladi. GOST 10177-82 ga muvofiq, rezbaning profili 111-shaklda va asosiy o'lchamlari 38-jadvalda keltirilgan. Tirak rezbalar ham bir va ko'p




III-shakl. Tirak rezbaning profillari.

kirimli qilib tayyorlanadi. GOST 25096-82 tirak rezbalarga tegishli aniqlik klasslarini va dopusklar maydonini belgilaydi (39, 40-jad-vallar). Tirak rezba «S» harfi bilan belgilanadi.

Tashqi diametri  $d=70$  mm, radami  $P=10$  mm va qo'yimlar maydoni  $7h$  bo'lgan bir kirimli tashqi tirak rezbaning belgilanishi: S 70x10-7h GOST 10177-82, chapaqay rezba S70x10 LH=7h GOST 10177-82. Ko'p kirimli rezbalar belgisiga qo'shimcha ravishda rezba yo'li ( $t$ ) ham kiradi. Masalan, nominal diametri  $d=70$  mm, rezba yo'li  $t=20$  mm va qadami  $P=10$  mm bo'lgan tirak rezbaning belgilanishi: S70x20(P10) GOST 10177-82 shuni o'zi chapaqay rezba uchun S70x20 (R10) LH GOST 10177-82.

O'ta katta yuklar uchun (diametri 80—200 mm. gacha) GOST 13535-87 ga muvofiq profildagi burchagi  $45^\circ$  bo'lgan, kuchaytirilgan tirak rezbalar qo'llanadi. Bu rezba faqat bir kirimli ( $n=1$ ) qilib tayyorlanadi. Bu rezbaning belgilanishi: S200x12x45° GOST 13535-87, bu yerda, 200 — rezba diametri, 12 — qadami va  $45^\circ$  — profildagi burchagi (ko'rsatish shart).

*10. To'g'ri burchakli rezbalar* — muhim bo'limgan joylarda masalan, ventil, zadvijka shpindellarida, domkrat, press vintlarida ishlataladi. Rezbaning profili to'g'ri burchakli (kvadrat) bo'lib, standartlashmagan va shartli belgilarga ega emas. Chizmada rezbaning



112-shakl. To‘g‘ri burchakli rezbaning profili.


profil, ichki va tashqi diametri, qadami ko‘rsatiladi (112-shakl). Standart profilli rezbalarning diametri yoki qadami standart o‘lchamlaridan farq qilsa, maxsus rezba deyiladi. Bunday rezbalarning belgisiga «Maxs» so‘zi qo‘shib yoziladi.

## **4.10. REZBALARNING TASVIRLANISHI VA BELGILANISHI (GOST 2.311-68)**

### **I. Rezbalarning tasvirlanishi**


1. Chizmada sterjendagi rezbaning sirtqi diametri asosiy tutash chiziq bilan, ichki diametri esa ingichka tutash chiziq bilan tasvirlanadi. Sterjen o‘qiga parallel bo‘lgan tekislikka proyeksiyalab olin-gan tasvirida, rezbaning ichki diametrini ifodalovchi ingichka tutash chiziq rezbaning butun uzunligi bo‘yicha o‘tkaziladi, sterjen o‘qiga perpendikular tekislikdagi ko‘rinishida esa rezbaning ichki diametri aylananan taxminan  $\frac{3}{4}$  qismiga teng bo‘lgan va istalgan yerida uzelidigan yoy bilan chiziлади (113-shakl).

2. Teshikdagagi rezbaning ichki diametri asosiy tutash chiziq bilan va sirtqi diametri esa ingichka tutash chiziq bilan tasvirlanadi. Ingichka tutash chiziqlarni teshik o‘qiga parallel bo‘lgan qirqimlarida, rezba sirtqi diametrining butun uzunligi bo‘yicha o‘tkaziladi.



113-shakl. Sterjendagi rezbaning tasvirlanishi.

Ingichka tutash chiziq asosiy chiziqdan kamida 0,8 mm va ko'pi bilan rezba qadamiga ( $R$ ) teng masofada o'tkaziladi. Teshik o'qiga perpendikular tekislikdagi tasvirida esa rezbaning sirtqi diametri aylananing taxminan  $\frac{3}{4}$  qismiga teng bo'lgan va ixtiyoriy joyda uziladigan yoy bilan o'tkaziladi (114-shakl, a, b).




114-shakl. Teshikda rezbaning tasvirlanishi.


3. Agar rezbali teshiklar ko'rinasmas qilib tasvirlanadigan bo'lsa, undagi rezbaning ichki va sirtqi diametrlari bir xil yo'g'onlikdagi shtrix chiziqlar bilan chiziladi (115-shakl, d).

4. Rezbaning chegarasini belgilovchi chiziq, rezba ichki yoki sirtqi bo'lishidan qat'i nazar uning to'liq profili tugagan joydan o'tkaziladi. Chegara chizig'i rezbaning sirtqi diametrigacha asosiy tutash chiziqlarda (115-shakl a, b) rezba ko'rinasmas qilib tasvirlanganida shtrix chiziqlarda chiziladi.

5. Shtrixlash chiziqlari qirqim va kesimlarda sterjendagi rezbaning sirtqi diametriga, teshikdagi rezbaning ichki diametriga (asosiy tutash chiziqda) yetkazib chiziladi (116-shakl).



115-shakl. Rezba chegarasini belgilash.




116-shakl. Uyachada rezbaning tasvirlanishi.

6. Rezbali berk teshik (uyacha) larning tubi konus shaklida bo'lib, uchidagi burchagi  $120^\circ$  bo'ladi. Bu burchak uchi konus shaklida charxlangan parmadan hosil bo'ladi (116-shakl, a, b). Chizmasiga qarab, rezba tayyorlanmaydigan uchi berk teshiklarining tubi va rezbasi, teshik chuqurligi bilan rezba uzunligi o'zaro farqlanganida ham 116-shakl, a, b larda ko'rsatilganidek tasvirlanishi mumkin.

Sterjen va teshikdagi rezbaning uzunlik o'lchamlari ( $L$ ), odatda, rezba qochimigacha ko'rsatiladi (116-shakl, d).

7. Konstruktiv ahamiyatga ega bo'lmagan faskalar sterjen yoki teshik o'qiga perpendikular tekislikda tasvirlanmasligi mumkin (113-shakl, a).

Sterjendagi rezbani tasvirlovchi ingichka tutash chiziq sterjen o'qiga parallel yo'nalib, faskaning chegara chizig'ini kesib o'tishi kerak (115, 117-shakllar).



117-shakl. Profili to'g'ri burchakli rezbaning tasvirlanishi va belgilanishi.

## 4.11. AKSONOMETRİK PROYEKSIYALAR (GOST 2.317-69)

### I. Asosiy ma'lumotlar

Texnikada buyumlar aksonometrik proyeksiyalardan foydalanib yaqqol tasvirlanadi. Koordinatalar burchagida joylashgan buyumning koordinata o'qlari bilan birga, biror aksonometrik tekislikka proyeksiyalovchi parallel nurlar vositasida tushirilgan proyeksiysi shu buyumning aksonometrik *tasviri* yoki *aksonometriyasi* deb ataladi.

Proyeksiyalovchi nurlarning aksonometrik tekislikka nisbatan yo‘nalishiga qarab va aksonometrik o‘qlar bo‘yicha chiziqli o‘lchamlarning o‘zgarish koeffitsiyentlari ( $K_x$ ,  $K_y$  va  $K_z$ ) ga qarab, aksonometrik proyeksiyalar to‘g‘ri burchakli va qiyshiq burchakli bo‘ladi.


## II. To‘g‘ri burchakli aksonometrik proyeksiyalar

To‘g‘ri burchakli aksonometrik proyeksiyalarda proyeksiyalovchi nurlar aksonometrik proyeksiyalar tekisligiga perpendikular yo‘nalgan bo‘ladi. Bunday proyeksiyalar *izometrik* va *dimetrik* proyeksiyalarga bo‘linadi.

1. *Izometrik proyeksiya*. Aksonometrik o‘qlarning vaziyati 118-shakl,  $a$  da keltirilgan. Izometrik proyeksiyada haqiqiy o‘zgarish koeffitsiyenti barcha o‘qlari bo‘yicha bir xil  $K_x=K_y=K_z=0,82$  ga teng bo‘ladi.

Lekin, izometrik proyeksiyalarni soddalashtirish maqsadida o‘zgarish koeffitsiyentlarini  $K_x=K_y=K_z=1$  ga teng olinadi. Bu buyumning izometrik tasviri asliga qaraganda 1,22 marta katta bo‘lib tashvirlanadi.

2. *Dimetrik proyeksiya*. Aksonometrik o‘qlarning vaziyati 118-shakl,  $b$  da keltirilgan. O‘qlardagi haqiqiy o‘zgarish koeffitsiyenti:  $Y$  o‘qida  $K_y=0,47$ ,  $X$  va  $Z$  o‘qlarda  $K_x=K_z=0,94$  ga teng. Amalda dimetrik proyeksiyalarni soddalashtirish maqsadida o‘zgarish koeffitsiyentlari  $Y$  o‘qida  $K_y=0,5$ ;  $X$  va  $Z$  o‘qlari bo‘yicha  $K_x=K_z=1$  ga teng olinadi.




118-shakl. To‘g‘ri burchakli aksonometrik o‘qlar vaziyati.

### III. Qiyshiq burchakli aksonometrik proyeksiyalar


Qiyshiq burchakli aksonometrik proyeksiyalarda, proyeksiyalovchi nurlar aksonometrik proyeksiyalar tekisligiga o'tkir burchak ostida yo'nalgan bo'ladi. Qiyshiq burchakli aksonometrik proyeksiyalar quyidagicha bo'ladi:

1. *Frontal izometrik proyeksiya.* Aksonometrik o'qlarning vaziyati 119-shaklda keltirilgan.  $Y$  o'qining qiyaligi  $30^\circ$  va  $60^\circ$  bo'lgan frontal izometrik proyeksiyalardan ham foydalanish mumkin. Frontal izometrik proyeksiyalar o'qlarida  $X$ ,  $Y$  va  $Z$  bo'yicha o'zgarish koefitsiyentlarini qisqartmasdan ( $K_x = K_u = K_z = 1$ ) bajariladi.

2. *Gorizontal izometrik proyeksiya.* Aksonometrik o'qlarning vaziyati 120-shaklda keltirilgan.  $X$  va  $Y$  o'qlari orasida  $90^\circ$  li burchak olib,  $Y$  o'qining qiyaligi  $45^\circ$  va  $60^\circ$  bo'lgan gorizontal izometrik proyeksiyalardan ham foydalanish mumkin. Gorizontal izometrik proyeksiyalar  $X$ ,  $Y$  va  $Z$  o'qlari bo'yicha o'zgarish koeffitsiyentlarini qisqartirmsandan bajariladi.




119-shakl. Qiyshiq burchakli frontal izometrik o'qlar vaziyati.



120-shakl. Qiyshiq burchakli gorizontal izometrik o'qlar vaziyati.

3. *Frontal dimetrik proyeksiya.* Aksonometrik o'qlarning vaziyati 121-shaklda keltirilgan.  $Y$  o'qining qiyaligi  $30^\circ$  va  $60^\circ$  bo'lgan frontal dimetrik proyeksiyalardan ham foydalanish mumkin.



121-shakl. Qiyshiq burchakli frontal diametrik o'qlar vaziyati.


O'zgarish koeffitsiyentlari Yo'qi bo'yicha  $K_y=0,5$ ; X va Z o'qlari bo'yicha  $K_x=K_z=1$  olinadi. Bu haqda to'laroq ma'lumotlar zarur bo'lsa, GOST 2.317-69 ga qaralsin.

#### IV. Aksonometrik tasvirlar yasash


Quyida GOST 2.317-69 ga ko'ra, to'g'ri burchakli izometriya, to'g'ri burchakli diametriya va qiyshiq burchakli frontal diametriya usulida turli shakllarning aksonometrik tasvirlarini yasash ko'rsatilgan. 122 va 123-shakllarda aksonometrik o'qlar vaziyati va o'zgarish koeffitsiyentlarining nisbati keltirilgan. To'g'ri burchakli aksonometrik tasvirlar keltirilgan o'zgarish koeffitsiyentlari bo'yicha yasalgan.

*1. Nuqta va fazoviy egri chiziqning aksonometriyasи.* Nuqtaning berilgan ortogonal proyeksiyalari yoki uning berilgan koordinatalari bo'yicha aksonometrik proyeksiyasini yasash, uning fazoviy X, Y, Z


To'g'ri burchakli izometriya



To'g'ri burchakli dimetriya




Qiyshiq burchakli (frontal) dimetriya



122-shakl. Aksonometrik o'qlar vaziyati.


Ortogonal proyeksiya      To'g'ri burchakli izometriya      To'g'ri burchakli diametriya      Qiyishiq burchakli (frontal) diametriya



123-shakl. Nuqta aksonometriyasini yasash.

siniq chiziqlarini yasashdan iborat (123-shakl). Bu to'g'ri chiziq istalgan nuqtasining, tekis shaklning yoki sirtning aksonometriyasini yasashda asosiy usul hisoblanadi. Masalan, fazoviy egri chiziqning aksonometriyasini yasash uchun uning bir necha nuqtasini topish va ularni ravon egri chiziq bilan tutashtirib chiqish yetarlidir (124-shakl).


Ortogonal proyeksiya      To'g'ri burchakli izometriya      To'g'ri burchakli diametriya      Qiyishiq burchakli (frontal) diametriya




124-shakl. Fazoviy egri chiziq aksonometriyasini yasash.

**2. Tekis shakllar aksonometriyasি.** Ko'pgina geometrik shakl va texnikaviy detallarning sirtlari, shuningdek, ularning kesimi tekis shakllardan iboratdir. Tekis shakllar to'g'ri chiziq, aylana hamda tekis egri chiziqlar bilan chegaralangan bo'lishi mumkin. Proyeksiyalar tekisligida yotuvchi yoki unga parallel bo'lgan tekislikda joylashgan muntazam ko'pburchakliklar aksonometriyasini quyidagicha yasash tavsiya etiladi (125-shakl). Avvalo, aksonometrik o'qlari o'tkaziladi, koordinatalari bo'yicha ko'pburchaklik uchlari orqali o'tuvchi aylana markazi  $O$ , ning aksonometrik proyeksiyalari aniqlanadi va u orqali


### Ortogonal proyeksiyalar




### To'g'ri burchakli izometrik proyeksiyalar



### Qiyshiq burchakli diametrik proyeksiyalar



### To'g'ri burchakli diametrik proyeksiyalar



*125-shakl.* Ko'pburchakliklar aksonometriyasini yasash.

shaklning aksonometrik o'qlariga parallel yo'nalgan o'q chiziqlari o'tkaziladi. So'ngra ko'pburchaklik ortogonal proyeksiyasining o'lchamlari bo'yicha ko'pburchaklik har bitta uchining aksonometrik vaziyati aniqlanib, ularni to'g'ri chiziqlar bilan tutashtiriladi.


3. *Aylana aksonometriyasini yasash*. Har bir ellips chizmasi katta ( $AB$ ) va kichik ( $CD$ ) o'qlarga ega bo'ladi. Ellipsning katta o'qi har doim uning kichik o'qiga va o'zining qarshisida yotgan koordinata o'qiga perpendikular o'tadi. Masalan,  $H$ ,  $B$  va  $W$  tekisliklarda yotgan aylanalarining to'g'ri burchakli izometrik proyeksiyalarida ellips katta o'qining yo'nalishi  $X$ ,  $Y$ ,  $Z$  koordinata o'qlariga perpendikular, ya'ni  $CD \perp AB \perp OZ$ ;  $CD \perp AB \perp OY$ ;  $CD \perp AV \perp OX$ . Boshqa usullarda qurilgan ellips katta o'qlarining yo'nalishlari 126-shakida keltirilgan. To'g'ri burchakli izometrik proyeksiyalarda ellips o'qlarining o'lchamlari keltirilgan qisqartish koeffitsiyenti bilan aylana diametrining ko'paytmasidan aniqlanadi, ya'ni  $AB=1,22d$ ;  $CP=0,7d$ . Boshqa usulda qurilgan ellips o'qlarining o'lchamlari ham yuqoridagi kabi aylana diametritini qisqartish koeffitsiyentlariga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Aylananing aksonometriyasi umumiyl holda ellips shaklida tasvirlanadi. 126 va 127-shakllarda  $XOY$ ,  $XOZ$ ,  $YOZ$  koordinata tekisliklarda yotuvchi aylana aksonometrik proyeksiyalarining yasalishi va ellips o'qlarining vaziyati hamda o'lchamlari ko'rsatilgan. Berilgan aylana diametri bo'yicha ellips o'qlari o'lchamini grafik usulda aniqlash aksonometrik ovallar yasashga doir misollar 127-shaklda keltirilgan.

Amalda aksonometriyada ellipslar o'rniga ovallar chiziladi.  $O_1$  va  $O_2$  markazlardan  $R$  radius bilan ovalning katta yoylari,  $O_3$  va  $O_4$  markazlardan  $R$  radius bilan kichik yoylari o'tkaziladi. Aniqlanadigan yoylar markazi, tutashish nuqtalari, chiziladigan yoy radiuslari har bir oval uchun alohida tasvirda ko'rsatilgan (127-shakl). Qiyshi burchakli diametriyadagi ellipslar to'g'ri burchakli diametriyadagi ovallar kabi chizilishi mumkin, faqat bunda ellips o'qlarining yo'nalishi hisobga olinishi lozim.

Istalgan aksonometrik ellips (77-shaklda ko'rsatilgan) ovallar kabi yasalishi mumkin. Tekis shaklli texnik detallarning (flanes, dasta, kulachok) aksonometrik proyeksiyalarining yasalishini quyida ko'rib chiqamiz.

*Berilgan tekis shakl (flanes)ning to'g'ri burchakli izometriyasini va diametriyasini yasash* uchun dastlab uning aksonometrik o'qlari



126-shakl. Proyeksiyalar tekisligida yotuvchi aylana aksonometriyasini yasash.

Har bir ellipsda katta o'q  $AB$  shu o'q qarshisida yotgan aksonometrik o'qqa perpendikular yo'nalgan:

$$CD \perp AB \perp OY; \quad CD \perp AB \perp OY; \quad C'D_i \perp AB \perp OY.$$

Aniq qisqartirish koefitsiyentlariidan foydalaniб aylana diametriga nisbatan ellips o'qlarining o'lchamlarini aniqlash:

$$AB=d; \quad CD=0,58 d; \quad AB=d; \quad CD=\frac{1}{2}AB; \quad C'D_i=\frac{1}{10}AB; \quad AB \approx 1,06d; \quad CD=\frac{1}{3}AB.$$


Keltirilgan qisqartirish koefitsiyentlariidan foydalaniб, aylana diametriga nisbatan ellips o'qlarining o'lchamlarini aniqlash:

$$AB=1,22d; \quad CD=0,7d. \quad AB=1,06 d; \quad CD=\frac{1}{3}AB; \quad C'D_i=\frac{9}{10}AB.$$




To'g'ri burchakli izometriya  
 $H$  va  $W$  tekisliklarda

To'g'ri burchakli diametriya  
 $V$ ,  $V$  va  $W$  tekisliklarda

To'g'ri burchakli diametriya  
 $V$  tekislikda



$OM$  – aylana diametri (radius);  $MN$  – ellipsning kichik (yarim) o'qi;  $ON$  – ellipsning katta (yarim) o'qi.



$EF=KL=d$ ;  $EO_2$  va  $FO_1$  horizontal ravishda o'tkaziladi.  
 $R=O_1F=O_2E$ ;  $R_i=O_1F=O_2E$


$OO_1=AB$   
 $R=O_1C$ ;  $R_i=0.5\ OC$

$O_1O_2=0.5AB$ ;  $OO_2=0.5CD$   
 $R_i=O_2A$


127-shakl. Ellips-oval. Elliptin o'qlarining o'lchamlarini grafik usulda aniqlash va ovallari aksonometriyasini yasash.

o'tkaziladi (128-shakl), so'ngra  $X$ ,  $Z$  va  $X_1$  koordinatalari bo'yicha,  $O_1$  markazining proyeksiyasi belgilanadi va bu proyeksiyalar orqali aksonometrik o'qlapra parallel bo'lgan o'qlar o'tkaziladi.  $a$ ,  $b$  va  $d$  o'lchamlari bo'yicha  $O_2$ ,  $O_3$  va  $O_4$  markazlarning proyeksiyasi aniqlanadi va ular atrofida ichki aylana hamda tashqi kontur ovallari chiziladi. So'ngra 1, 2, 3 ... 6 urinish nuqtalari aniqlanib, ovallarga urinmalar o'tkaziladi va shakl konturi asosiy tutash chiziqlar bilan chiziladi.


Ortogonal proyeksiya




To'g'ri burchakli izometriya



To'g'ri burchakli dimetriya




Qiyshiq burchakli dimetriya



128-shakl. Flanes konturi aksonometriyasini yasash.

Flanes shaklining frontal tekislikda joylashgan qiyshiq burchakli dimetrik aksonometriyasi uning ortogonal proyeksiya kabi yasaladi.

*Tekis shaklli dasta konturining (129-shakl) aksonometriyasini yasash uchun dastlab  $O_1$  va  $O_2$  markazlarning proyeksiyalari aniq-*



*129-shakl. Dasta konturi aksonometriyasini yasash:*

*a — ortogonal proyeksiya; b — to'g'ri burchakli izometriya; d — to'g'ri burchakli diametriya; e — qiyshiq burchakli diametriya.*

lanadi va ular atrofida tegishlicha aylana, kvadrat hamda  $R_1$  va  $R_2$  radiusli yoylarning aksonometrik proyeksiyasi chiziladi.  $R_3$  va  $R_4$  radiusli yoylarini esa koordinata usulida yasash maqsadga muvofiq, chunki ularni aksonometrik o'qlardan yoki unga parallel bo'lgan to'g'ri chiziqlardan hisoblab chiqish mumkin.

Bunda dastaning ortogonal proyeksiyasini teng bo'laklarga bo'-luvchi va  $OY$  o'qiga parallel to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. Bu chiziqlarning aksonometriyasi quriladi va ularga ortogonal proyeksiyasi-dagi kesmalarga teng (masalan,  $A$  va  $B$  nuqtalar uchun ko'rsatilgan  $AC=ac$ ,  $BC=bc$ ) kesmalar qo'yib chiqiladi hamda yoy yasovchi nuqtalar belgilanadi. So'ngra 1, 2 va 3 tutashish nuqtalari aniqlanib, ravon egri chiziqlar bilan detal konturi chizib chiqiladi.

*Tekis shaklli kulachok konturining aksonometriyasini* (130-shakl) yasash uchun dastlab aksonometriya tekisligida  $O_1$  markaz belgilab olinadi. Shu markazdan ichki aylana bilan paz  $b$  proyeksiyasining konturi chiziladi.  $O_2$  markazdan esa egri chiziqli tutashma yoyi o'tkaziladi, so'ngra kulachok qolgan qismi (Arximed spirali)ning aksonometrik proyeksiyasi nuqtalar bo'yicha yasaladi va tasvir konturlari ustidan asosiy tutash chiziqda yurgizib chiqiladi.


3. *Geometrik jismlar aksonometriyası*. Geometrik jismlarning aksonometriyasini yasashdan oldin, ularning ortogonal proyeksiyalarida koordinata boshi va koordinata o'qlari belgilab olinadi. So'ngra aksonometrik proyeksiya o'qlari o'tkaziladi. Geometrik jismlar aksonometrik proyeksiyasini yasash tartibi shakliga bog'liq emas. Berilgan ortogonal proyeksiyalariga ko'ra, geometrik jismlarning aksonometrik proyeksiyasi quyidagicha yasaladi:

*Kub va olti yoqli prizma uchun* oldin ular asosining aksonometriyasi yasaladi, so'ngra yon qirralari o'tkazilib, ular to'g'ri chiziqlar bilan tutashtirilsa, yon yoqlari hosil bo'ladi (131-shakl).

*Silindr uchun* har ikki asosining aksonometriyasi yasalib, so'ngra kontur yasovchisini o'tkazib yon sirtlari quriladi (131-shakl).

*Konus uchun* oldin asosining aksonometriyasi quriladi, so'ngra uning cho'qqisi va konus yasovchisi orqali yon sirti yasaladi (132-shakl).




*Sharning to'g'ri burchakli izometriyası* va *diametriyasını* qurish uchun bir markazdan koordinata tekisliklarida yotuvchi ellipslar chiziladi. So'ngra radiusi ellipsning katta yarim o'qiga teng va ellipslar atrofidan o'tuvchi aylana o'tkaziladi (132-shakl).






130-shakl. Kulachok konturi aksonometriyasini yasash.

*Sharning qiyshiqli burchakli diametriyasi* parallel yordamchi tekislik ( $T_H - R_H$ ) lar bilan sharni kesish usulidan foydalanib yasaladi. Bunda sharning ortogonal proyeksiyasida bir qancha frontal kesimlar — aylanalar hosil bo‘ladi. So‘ngra bu kesimlar aksonometriyasini yasaladi va ularga urinib o‘tuvchi shar sirtining egri chizig‘i (ellips) chiziladi. Ellipsning katta o‘qi 1,12 d ga, kichik o‘qi esa d ga teng.




Ortogonal proyeksiya






To'g'ri burchakli izometriya



To'g'ri burchakli dimetriya




Qiyishiq burchakli dimetriya





131-shakl. Geometrik sirt (qutb, oltiyoqloq prizma, silindr)lar aksonometriyasini yasash.




Yopiq tor sirtining aksonometriyasi yordamchi parallel tekisliklar ( $T_H - R_H$ ) bilan kesish usulidan foydalaniib yasaladi (132-shakl).






Ortogonal proyeksiya





To'g'ri burchakli izometriya



To'g'ri burchakli dimetriya



Qiyshiq burchakli dimetriya



132-shakl. Geometrik sirt (konus, shar, tor)lar aksonometriyasini yasash.


4. *Turli geometrik sirtlar va mashina detallarining aksonometriyasи.* Turli geometrik sirtlar va detallarning aksonometriyasini yasashdan oldin, ortogonal proyeksiyalariga ko'ra bu detallarning shaklini o'r ganib chiqish lozim. Ular qanday geometrik sirlarni o'z ichiga

olganligini, bu sirtlar o‘zaro qanday joylashganligini va ularning qanday chiziqlar bo‘yicha kesishayotganligini aniqlash kerak. So‘ngra geometrik sirtlar va detallar vaziyati hamda aksonometriyada jismni to‘laroq ko‘rsatuvchi shaklning qirqimi va ko‘rinishi tanlab olinadi, shuningdek, ortogonal proyeksiyasida koordinata o‘qi  $X$ ,  $Y$ ,  $Z$  lari belgilab chiqiladi.

Turli geometrik sirtlar yoki detallar shakli qanchalik murakkabligidan qat‘i nazar, ularning aksonometriyasi ikki usulda yasalishi mumkin:


*Birinchi usul.* Chizma maydonidan oqilona foydalanish maqsadida, avvalo, geometrik sirtlar yoki detalning gabarit o‘lchamlari bo‘yicha uning aksonometrik parallelepipedining yasalgani ma‘qul. So‘ngra bu parallelepiped ichida aksonometrik o‘qlari, aylanish sirtlari o‘qi o‘tkaziladi hamda detal bilan jism asosiy elementlarining nuqtalari va markazlari belgilanadi (133, 134-shakllar, I). So‘ngra sirtlar va detallarning barcha ko‘rinadigan asosiy konturlari chizib olinadi (133, 134-shakllar, II), zarur bo‘lgan qirqimi bajariladi, kesuvchi tekislikda yotuvchi shakl kesim chegaralab chiqiladi (133, 134-shakllar, III), kesuvchi tekislikning orqa tomonida ko‘rinadigan tashqi va ichki kontur chiziqlari chizib chiqiladi (133, 134-shakllar, IV), niroyat yasovchi chiziqlarining keraksizlari o‘chirib tashlanadi, kesim yuzalari shtrixlanib, barcha ko‘rinadigan kontur chiziqlari ustidan yurgizib chiqiladi va tasvirga soya beriladi (133, 134-shakllar, V).

*Ikkinci usul.* Avvalo, geometrik sirtlar yoki detalning gabarit o‘lchamlariga ko‘ra, uning aksonometrik parallelepipedi yasaladi. So‘ngra uning ichida aksonometrik o‘qlar, aylanish sirtlari o‘qi o‘tkaziladi hamda geometrik sirt va detal asosiy elementlarining markazlari aniqlanadi (135, 136-shakllar, I), kesuvchi tekislikda joylashgan shaklning kesim yuzasi yasaladi (135-shakl, II va 136-shakl, II). Kesuvchi tekisliklarning orqa tomonida ko‘rinadigan ichki va tashqi konturlari chiziladi (135, 136-shakllar, III), yasovchi chiziqlarining ortiqchasi o‘chirib tashlanadi; kesim yuzalari shtrixlanib, barcha ko‘rinadigan kontur chiziqlari ustidan yurgizib chiqiladi va tasvirga soya beriladi (135, 136-shakllar, IV), turli kesuvchi tekisliklardagi kesim yuzalari turli tomonga qiyalatib shtrixlanadi. Shtrixlash chiziqlari GOST 2.306-68 ga muvofiq, 138-shaklda ko‘rsatilgandek bajariladi.




133-shakl. Turli geometrik sirtlardan tuzilgan buyumlarning to'g'ri burchakli izometriyasini yasash.

Detallar qovurg'aları, kegaylari, yupqa devorlari va boshqa elementlarining bo'ylama kesimi ortogonal proyeksiyalarida shtrixlanmaydi, ammo aksonometriyada ular shtrixlab ko'rsatiladi. Aksonometriyada o'lcham va chiqarish chiziqlari aksonometriya o'qlariga parallel o'tkaziladi. Aksonometrik tasvirga soyalar berib



134-shakl. Detalning to‘g‘ri burchakli izometriyasini yasash.

yaqqolligi kuchaytiriladi. Soya berishda jism yuqori va chap tomonidan yoritilgan deb qaraladi. Soyalash ingichka chiziqlarda (133, 134-shakllar), yo‘g‘onligi tobora ortib boruvchi chiziqlarda (137-shakl) yoki to‘r shaklidagi (135-shakl) kesishuvchi chiziqlarda bajarilishi mumkin.




135-shakl. Turli geometrik sirtlardan tuzilgan buyumning to‘g’ri burchakli diametriyasini yasash.

Detallar aksonometriyada ish vaziyatiga mos ravishda tasvirlanadi. Detal konstruktiv xususiyatlarini to‘laroq ochib berish va ularni aksonometriyada aniqroq ko‘rsatish maqsadida, detalning ish vaziyatidan boshqacharoq vaziyatlaridan foydalanish ham mumkin. Buyumni diametrik proyeksiyalarda tasvirlash uchun detalning uzun tomonini  $OX$  va  $OZ$  o‘qi bo‘ylab joylashtirish kerak, agar aynan shu detalning uzun tomonini  $OY$  o‘qi bo‘ylab ikki marta qisqartirib joylashtirilsa, tasvirda detal elementlari orasidagi proporsiya buziladi.

Aksonometrik proyeksiyalarda detalning ko‘rinishini to‘g’ri tanlash uchun quyidagilarni hisobga olish tavsiya etiladi: tasvirlanishi lozim bo‘lgan detalning hamma tomonida taxminan bir xil sondagi elementlar bor bo‘lsa, ularni izometriya usulidan foydalanib tasvirlash ma’qul, ayniqsa, detal ustki qismini izometriyada


tasvirlash qulay. Detalning biror tomonida bir xil elementlar ko'proq bo'lsa, bunday detallar diametrik proyeksiyada yasalgani ma'qul. Agar detalning aylanalari va boshqa murakkab tekis konturlari parallel tekisliklarda yotgan bo'lsa, bunday detallar qiyshiq burchakli (frontal) dimetriyada tasvirlangani ma'qul.

Mazkur hollarda frontal proyeksiyalar tekisligiga parallel joylashgan chiziqlar, qiyshiq burchakli frontal dimetriyada qisqarmasdan proyeksiyalanadi. Aksonometriyalar bajarishda detalning rezbalari GOST 2.311-68 ga muvofiq, shesterna, reyka, chervyaklarning tishlari va shu kabi boshqa elementlari GOST 2.402-68 ga muvofiq shartli tasvirlanishi mumkin.




136-shakl. Detalning to'g'ri burchakli diametriyasini yasash.


To'g'ri burchakli izometriya



To'g'ri burchakli diametriya



Qiyshiq burchakli diametriya



137-shakl. Aksonometriyada shtrix chiziqlarining yo'nalishi.

## 5-bob. CHIZMALARDA SHARTLI GRAFIK TASVIRLAR

### 5.1. PAYVAND BIRIKMALAR

Ikki yoki undan ortiq detaldan payvandlash yo'li bilan hosil qilingan ajralmas birikma *payvand birikma* deb ataladi.


Detallarning birikish joyida elektr yoyi yoki gaz alangasida suyuqlanib qotgan metall payvand chok hosil qiladi. Detallarning payvand birikmalar quyidagi ikki usulda: suyuqlantirib payvandlash va bosim ostida payvandlash usullarida bajarilishi mumkin. Sanoatda suyuqlantirib payvandlash usulidan keng ko'lamda foy-dalaniladi.

*Suyuqlantirib payvandlash*: elektr yoyi, elektr shlak gaz, gaz-elektrik elektronlar nuri va termit usulida payvandlash turlariga bo'linadi. Bular dan elektr yoyi bilan payvandlash usuli eng ko'p qo'llanadi.

Payvandlanuvchi detallarning o'zaro vaziyatiga qarab payvand birikmalar: uchma-uch (138-shakl, *a*), burchakli (138-shakl, *b*), tavrsimon (138 shakl, *d*) va ustma-ust (138-shakl, *e*) turlarga bo'linadi. Bunday birikmalar turli chocklar bilan bajarilishi mumkin. Bu chocklarning harfiy-son belgilari bo'ladi. Bu belgililar 19-jadvalda keltirilgan.

19-jadval

Payvand birikmaning turi	Harfiy-son belgililar
Uchma-uch (Стыковое — <i>C</i> )	<i>C1, C3, C5, C9, C10, ...</i>
Burchaklik (Угловое — <i>Y</i> )	<i>Y1, Y2, Y3, Y6, Y8, Y10</i>
Tavrsimon (Тавровое — <i>T</i> )	<i>T1, T2, T6, T7, T9, T10</i>
Ustma-ust (Внахлестку — <i>H</i> )	<i>H1, H2, H3</i>



138-shakl. Payvand birikmalarning turlari.


Payvand choclar uzunligiga qarab uzliksiz, uzlukli va nuqtali (138-shakl, d, e), tashqi shakliga qarab esa qavariq, tekis va botiq bo'ladi. Payvand choclar bir yoqlama va ikki yoqlama qilib bajariladi.

Payvandlashga tayyorlangan detallarning birikish joylari «Y» shaklida yoki «X» shaklida kertilgan, yoxud mutlaqo kertilmagan bo'lishi mumkin. 20-jadvalda payvand birikma choclarining ayrim turlari, konstruktiv elementlari va harfiy belgilari keltirilgan.

20-jadval


**Elektr yoyi bilan dastaki payvandlash orqali hosil qilingan  
payvand birikma (GOST 5264-80)**

Birikmaning turi	Chokning xarakteri	Chok ko'ndalang kesimining shakli	Chokning shartli belgisi
Birikish joyi kertilmagan	Uchma-uch	Bir yoqlama	
		Ikki yoqlama	
Burchakli	Bir yoqlama		y4


		Ikki yoqlama		Y6					
Birikish joyi kertilmagan	Tavrsimon	Bir yoqlama		T2					
		Ikki yoqlama		T7					
Ustma-ust		Bir yoqlama, uzlukli		H1					
		Ikki yoqlama		H2					
Chok kateti K ning o'lchami, mm									
	s	1—2	2—2,5	3—4,5	5—6	7—9	10—15	16—21	22—30
K	T1 uchun	—	3	4	5	6	7	8	
	Y4 uchun	0,5 s—s							

## 5.2. PAYVAND BIRIKMA CHOKLARINING SHARTLI TASVIRLANISHI

Chizmada payvand birikma choklarini shartli tasvirlash usullari GOST 2.312-72 da ko'rsatiladi. Payvand birikma choklarining qanday usulda bajarilishidan qat'i nazar, ko'rindigan choklar — asosiy tutash chiziqlar bilan (139-shakl); ko'rindigani choklar --- shtrix chiziqlar bilan (140-shakl) tasvirlanadi; ko'rindigan nuqtali yakka payvand choklar shartli ravishda «+» belgi bilan tasvirlanadi (141-shakl). Bu belgi asosiy tutash chiziq bilan chiziladi. Ko'rindigani nuqtali yakka payvand choklar chizmada tasvirlanmaydi.




139-shakl. Ko'rindigani choklarni shartli tasvirlash.




140-shakl. Ko'rindigani choklarni shartli tasvirlash.

Choklar bir qatorli va ko'p qatorli bo'lishi mumkin. Ko'p qatorli choklar kesimi tasvirida har bir qator kesimining konturi alohida ajratib tasvirlanishi va ular imloning bosh harflari bilan belgilanishi zarur (142-shakl).




141-shakl. Nuqtali choklarni shartli tasvirlash.



142-shakl. Ko'p qatorli payvand choklarning belgilanishi.

Konstruktiv elementlarining o'lchamlari standartlarda belgilanmagan choklar — nostandard choklar deyiladi. Chizmada nostandard chokning ko'ndalang kesimi, uni bajarish va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan o'lchamlari bilan tasvirlanadi (143-shakl). Chok asosiy tutash chiziqlar bilan chegaralanadi. Chok chegarasi ichidagi qirralarning konstruktiv elementlari esa ingichka tutash chiziqlar bilan chiziladi.



143-shakl. Nostandard choklarning konstruktiv elementlarining o'lchamlarini ko'rsatish.


### 5.3. PAYVAND BIRIKMA CHOKLARINING SHARTLI BELGILANISHI

Payvand choklar GOST 2.312-72 ga muvoſiq belgilanadi.

Payvand choklarni belgilash uchun maxsus yordamchi belgilar qabul qilingan (21-jadval). Chokni belgilashda bu yordamchi belgilar ingichka tutash chiziqlarda chiziladi. Yordamchi belgilarning balandligi choklar belgisidagi raqamlar balandligiga teng bo‘ladi.

144-shaklda standart yoki nuqtali yakka payvand choklarni shartli belgilash strukturasi ko‘rsatilgan. Chok shartli belgisini tuzishda chiqarish chizig‘idagi tegishli to‘rburchakliklar o‘rniga quyidagilar joylashtiriladi:

1. Yopiq chiziq bo‘yicha ishlangan chokning va montaj chokining yordamchi belgilari (21-jadval).
2. Payvand birikma choklarining tiplari va konstruktiv elementlari standartining (nomeri) belgisi (22-jadval).
3. Payvand birikma choklarining tiplari va konstruktiv elementlari standartiga muvofiq chokning harfli-sonli belgisi (19, 20-jadvallar).
4. Payvand birikma choklarining tiplari va konstruktiv elementlaring standartiga muvofiq payvandlash usulining (22-jadval) shartli belgisi (bu belgini ko‘rsatmaslik ham mumkin).
5. Payvand birikma choklarining tiplari va konstruktiv elementlaring standartiga muvofiq chok belgisi (21-jadval) va katetining o‘lchami (20-jadval) ko‘rsatiladi. Bu belgi ingichka tutash chiziqda bajariladi va balandligi chok belgisidagi sonlar balandligiga teng qilib olinadi.



144-shakl. Standart yoki nuqtali yakka payvand choklarni shartli belgilash strukturasi.

### Choklarning shartli yordamchi belgilari

T/r	Yordamchi belgilari			
	Yordamchi belgining shakli	Yordamchi belgining mazmuni	Yordamchi belgining chiqarish chizig'i tokchasiga nisbatan joylashushi	
			bet tomondan	orqa tomondan
1.		Chok kuchaytirgichi olib tashlansin		
2.		Chokning bo'rtib chiqqan joylari va g'adir-budurliklari asosiy metallga silliq o'tadi-gan qilib ishlansin		
3.		Chok buyumni montaj qilish paytda, ya'ni buyumni montaj chizmasi bo'yicha ishlash joyiga biriktirish vaqtida bajarilsin		
4.		Uzlukli nuqtali chok, chiziqning qiyalik burchagi ≈ 60°		
5.		Shaxmat tartibida joylashgan uzlukli yoki nuqtali chok		
6.		Yopiq chiziq bo'ylab joylashgan chok. Belgi diametri 3–5 mm		

7.		Yopiq bo'limgan chiziq bo'ylab joylashgan chok. Bu belgi chizmada chokning joylashtishi yaqqol ko'rinish turgan hollarda qo'llanadi		
8.		Chok katetini belgilashda qo'llanadigan grafik shartli belgi		

22-jadval

### Payvandlash turlari va usullarining harfli shartli belgilari

Payvandlash turlari		Payvandlash usullari	
nomi	GOST	nomi	shartli belgisi
1. Dastaki elektr yoyi bilan payvandlash	5264-80	—	—
2. Flus qatlami ostida avtomatik payvandlash	11533-75	1. Yamoq taglik va dastaki suyultirib emas, balki flus qatlami ostida avtomatik payvandlash	A
		2. Bir tomonini dastaki suyultirib flus qatlami ostida avtomatik payvandlash	Ar
3. Elektr-shlak usulida payvandlash	15164-79	Metall elektrod bilan elektr-shlak usulida payvandlash	SHE
4. Elektr-kontakt usulida payvandlash	15878-79	Elektr-kontakt usulida: a) nuqtali payvandlash b) rolikli payvandlash d) uchma-uch payvandlash	Kt Kr KS
5. Gaz bilan payvandlash	16310-80	Flus ishlatib gaz bilan payvandlash	NGP


6. Elektr yoyi usulida suyuqlanmaydigan elektrod bilan das-taki payvandlash	14806-80	Suyuqlanmaydigan elek-trod bilan himoya gazi muhitida dastaki pay-vandlash	RnZ
7. Elektr parchinlash usulida payvandlash	14776-79	Elektr parchinlash yordamida: flus qatlami ostida payvandlash	EFZ

6. Quyida: a) uzlukli chok uchun payvandlanadigan uchastka uzunligi chok belgisi (yoki  $Z$ ) va chok qadamining o'lchами yoki b) nuqtaviy yakka payvand choklar uchun nuqtaning hisoblab olin-gan diametri, yoki d) elektrkontakt usulida bajariladigan nuqtali payvand chok, yoki elektr parchin choklar uchun nuqtaning, yoki elektr parchinning hisoblab olingan o'lchами (yoki  $Z$ ) va qadami, yoki e) elektrkontakt usulida bajariladigan rolikli payvand chok uchun — chokning hisoblab olingan eni; f) elektrkontakt usulida uzlukli qilib bajariladigan rolikli elektr payvand choklar uchun chokning hisoblab olingan eni, kuchaytirish belgisi, payvandlanadigan uchastka uzunligi chok belgisi (yoki  $Z$ ) va qadamining o'lchamlari ko'rsatiladi.

7. Yordamchi belgililar (21-jadvalga qarang). Nostandard choklar shartli belgi-sining strukturasi GOST 2.312-72 ga muvofiq bajariladi. Choklar nostandard bo'lganida payvandlash usuli choklar jadvalida yoki chizmaning texnik talabnomalarida yozib ko'rsatiladi.


Payvand birikma chokining shartli belgisi bir tomonlama strelkali chiqarish chizig'inинг gorizontal tokchasiga qo'yiladi. Chok bet tomoni bilan tasvirlangan bo'lsa, chok belgisi gorizontal tokcha chizig'i ustiga (145-shakl, a), agar orqa tomoni bilan tas-virlangan bo'lsa, gorizontal chiziq ostiga yoziladi (145-shakl, b). Chiqarish chizig'i tokchasining ustiga yoki ostiga mexanik ishlov beriladigan chok sirtining tozalik belgisi chok

Shartli belgilanishi



a







Shartli belgilanishi



b

145-shakl. Chok shartli belgilalarining qo'yilishi.

**Standart payvand chocklarining shartli belgilanishi**

T/r	Chok xarakteristikasi	Chok ko'ndalang kesimining shakli	Chizmada tasvirlangan chokning shartli belgisi bet tonondon orqa tonondon
1	Bitta qirrasi egri kertilgan ikki yoqlama qilib solingenan, uchma-uch biriktirish (belgisi S9) choki. Chok kuchaytirjichi ikki tonondondan ham olib tashlangan (belgisi 21-jadvalda keltirilgan). Bu chok buyumni montai qilish paytida elektr yoyi yordamida dastaki payvandlab bajariladi. Chok yuzasining g'adir-budurlik parametrlari bet tononida Rz 20 mkm, orqa tonondon Rz 80 mkm		 
2	Qirralari kertilmagan, yopiq kontur bo'ylab (belgisi 0) bir tononi dastaki suyuqlantirilib, ikki yoqlama qilib solingen burchak (belgisi VII) biriktirish choki. Bu chok flus qatlami ostida avtomatik (Ap) ravishda payvandlab bajariladi.		 
3	Qirralari kertilmagan burchak (belgisi U2) biriktirish choki. Bu chok elektr-shak usulida payvandlab bajariladi. Chok kateti 22 mm.		 

4	<p>Qirralari kerti'magan, yopiq kontur bo'ylab shaxmat tartibida uzlukh (belgisi — Z) qilib, ikki tomonloma solingan tawrsimon (belgisi T5) biriktirish choki. U chokni suyuqlanmaydigan metall elektrod bilan himoya gazi muhitida dastaki (<i>Pn3</i>) elektr yoyi vostasida payvandlab bajariladi. Chok kateti 6 mm. Payvandlanadigan uchastka uzunligi 50 mm. Qadami 100 mm.</p>	
5	<p>Elektr-kontakt (belgisi — Km) usulida nuqtali payvandlab, bajariladigan ust-ma-ust (belgisi H1) yakka payvand nuqtalari. Nuqtanining hisoblab olingan diametri 5 mm.</p>	
6	<p>Qirralari kerti'magan, yopiq bo'lмаган kontur bo'ylab bir yoqlama qilib solingan, ustma-ust (belgisi H1) biriktirish choki. U chok suyuqlanmaydigan elektrod bilan himoya gazi muhitida, yarim-avtomatik usulda payvandlab bajariladi. Chok kateti 5 mm.</p>	


yordamchi belgisidan keyin qo'yilishi (146-shakl, *a*, *b*) yoki choklarning maxsus jadvallarida ko'rsatilishi, yoxud chizmaning texnikaviy talabnomalarida, masalan, payvand choklar yuzlarining g'adir-budurlik parametrlari  $R_z^{40}$  tarzida ko'rsatilishi mumkin.

Chizmada bir xil choklardan bir nechta tasvirlangan bo'lsa, shartli belgi faqat bitta choc tasviriga qo'yiladi, choklarning qolgan bir xildagi tasviridan tokchali chiqarish chiziqlari o'tkaziladi. Barcha bir xildagi choklarga bitta tartib nomeri beriladi va u 147-shakldagidek ko'rsatiladi:


*a)* tokchasiga choc belgisi qo'yilgan chiqarish chiziq'ining qiya qismiga, masalan, «20 №1» tarzida yozib qo'yiladi (148-shakl, *a*), bu misoldagi №1 — bir xildagi choklarning tartib raqami, 20 bir xildagi choklar soni;

*b)* choc tasvirining bet tomonidan chiqarilgan chiziqning belgi qo'yilmagan tokchasi ustiga belgi qo'yiladi (147-shakl, *b*);


*c)* choc tasvirining ko'rinnmas tomonidan chiqarilgan chiziqning belgi qo'yilmagan tokchasi ostiga belgi qo'yiladi (147-shakl, *d*).



147-shakl. Bir xil choklarni belgilash.



146-shakl. Payvand birikma choklariga tozalik belgilarni qo'yish.




148-shakl. Qalaylangan choklarni belgilash.

## 5.4. QALAYLANGAN VA YELIMLANGAN BIRIKMALAR


Bu turdagи birikmalar xalq xo'jaligining barcha sohalarida qo'l-lanadi. Jumladan, radiotexnika, elektronika va asbobsozlikda qalaylab biriktirish, yog'och, metall va plastmassadan ishlangan detallar va qurilmalarni yelim yordamida biriktirish usullari keng tarqalgan. Qalaylangan va yelimlangan birikmalarni shartli tasvirlash va belgilash qoidalari GOST 2.313-82 da belgilanadi.

Bunday birikmalarning choklari chizmada, yo'g'onlashtirilgan (yo'g'onligi 2S) tutash chiziqlarda tasvirlanadi. Qalaylangan choklar C harfiga o'xshash shartli (*C*) belgi bilan belgilanadi. Yelimlashdan hosil bo'lgan chok esa *K* harfiga o'xshash (*K*) shartli belgi bilan belgilanadi.


Choklarni strelka bilan tugallanuvchi chiqarish chizig'i va asosiy chiziqda o'tkazilgan shartli belgi bilan belgilanadi (148, 149-shakllar). Agar chok yopiq konturi (chiziq) bo'yicha bajarilgan bo'lsa, chiqarish chizig'inining uchiga, diametri 3—5 mm bo'lgan ingichka chiziqli aylana chizib qo'yiladi (150, 151-shakllar). Ayrim uchastkada chegaralangan choklarni ham 2S yo'g'onlikdagi chiziqlarda tasvirlanadi (152-shakl). Qalay yoki yelim moddalarining belgilari, tegishli




149-shakl. Yelimlangan choklarni belgilash.




150-shakl. Yopiq kontur bo'yicha yelimlangan chokni belgilash.



151-shakl. Yopiq kontur bo'yicha qalaylangan chokni belgilash.



152-shakl. Kichik uchastkadagi chokni belgilash.




*153-shakl.* Qalaylangan chokni belgilash.

chizig'i ustiga hamda chizmaning texnik talablariga quyidagicha yozib qo'yildi: POS 40 GOST 2.1931-76 (№2).

## 5.5. PARCHIN MIXLI BIRIKMALAR

Parchin mixli birikmalarni shartli tasvirlash va belgilash qoidalari GOST 2.313-82 da keltirilgan.

Parchin mixli birikmalar ajralmas birikmalarning bir turidir. Parchin mix ularning asosiy elementidir. Parchin mixli birikmalar hosil



*154-shakl.* Ustma-ust parchin mixli birikmalar.

qilish jarayoni quyidagicha: dastlab birikuvchi detallarda teshiklar parmalanadi, bu teshiklardan parchin mixlar o'tkaziladi. So'ngra parchin mix qalpog'i ostiga qalpog'iga mos keluvchi o'yqli taglik tilraladi, ikkinchi uchi esa parchinlanadi.

Amalda parchin mixli birikmalarning quyidagi turlari ishlataladi:

1. Ustma-ust birikma. Bunda birikuvchi elementlar ustma-ust qo'yiladi (154-shakl).

2. Taglik qo'yilgan birikma. Bunday birikmalarda birikuvchi listlarning bir yoki har ikki tomonidan tagliklar qo'yiladi (155-shakl).


Parchin mixlar bir qatorli yoki ko'p qatorli bo'lishi mumkin. Ular shaxmat tartibida yoki parallel (155-shakl) joylashtiriladi. Kesuvchi tekislik parchin mixlar o'qi orqali o'tkazilsa, ular qirqimda kesmasdan (shtrixlanmay) ko'rsatiladi.

Bir qatorda joylashgan parchin mixlarning markaziy o'qlari orasidagi masofa parchin mix chokining qadami  $t$  deyiladi. Parchin mixli birikma elementlari birikuvchi listlar qalinligi  $S$  ga nisbatan quyidagi formulaga ko'ra hisoblanadi (155-shakl):

$$S_H = 0,83$$

Chizmada parchin mixlar quyidagicha shartli belgilanadi:

1. «Parchin mix» so'zi. 2. Parchin mix diametri. 3. Parchin mix uzunligi. 4. Materialning gruppa nomeri (00 gruppa ko'rsatilmaydi). 5. Materialning markasi (00 gruppa uchun ko'rsatilmaydi). 6. Standart nomeri. Diametri  $d=10$  mm, uzunligi  $L=25$  mm bo'lgan 00 gruppa materialidan qoplamsiz ishlangan parchin mixning shartli belgilanishi: *Parchin mix 10x25 GOST 10299-80*.




*155-shakl.* Ikki tomonidan taglik qo'yilgan uchma-uch parchin mixli birikmalar.

O'shaning o'zi, gruppasingning shartli belgisi 38, markasi M3 bo'lган misdan ishlangan va II gruppera bo'yicha qoplangan parchin mix: *Parchin mix* 10x25.38.M3.ll GOST 10299-80.

Materialning shartli belgisi, shuningdek, qoplaming turi va shartli belgisi hamda shu qoplaming qalinligi GOST 10304-80 ga muvofiq bajariladi.

## **5.6. MAHKAMLASH DETALLARINING SODDALASHTIRILIB VA SHARTLI TASVIRLANISHI (GOST 2.315-68)**

Yig'uv chizmalarida mahkamlash birikmalari elementlarining o'lcamlari GOST ga muvofiq olinadi yoki taxminiy hisoblanadi. Bunda bolt, gayka va shayba elementlarining o'lcamlari bolt rezbatisi diametriga nisbatan olinadi (156, 157-shakllar). 157, 158-shakllarda rezbali birikmalar ko'rsatilgan. Birikma elementlari quyida-gicha hisoblanadi:



156-shakl. Boltli birikmalar.

bolt rezbasining sirtqi diametri —  $d$ ;

boltning uzunligi —  $l$ ;

rezbaning ichki diametri —  $d_1 = 0,85 d$ ;

rezbali qismining uzunligi —  $l_1 = 2 d + 6 \text{ mm}$ ;

gayka va bolt kallagining tashqi tomonidan chizilgan aylana diametri —  $D = 2 d$ ;

bolt kallagining balandligi —  $h = 0,7 d$ ;

oddiy gaykaning balandligi —  $H = 0,8 d$ .

Gayka va bolt kallagining «kalitbop» o‘lchami —  $S$ , yasash yo‘li bilan aniqlanadi.

Gayka va bolt kallagidagi yoy radiusi —  $R = 1,5 d$ .

Gayka va bolt kallagidagi yoy radiusi —  $R_1 = d$ .

Gayka va bolt kallagidagi yoy radiusi —  $R_2$ , yasash yo‘li bilan aniqlanadi.

Bolt kallagi ostidagi yoymalar (gallellar) radiusi —  $R_3 = 1 \div 3 \text{ mm}$ .

Sterjen uchidagi faskasining balandligi —  $C = 0,15 d$ .

Shaybaning diametri —  $D = 2,2 d$ .



Shaybaning qalnligi —  $S_1 = 0,15 d$ .

Bolt rezbasining gaykadan chiqib turgan qismi —  $K = (0,25 \div 0,5) d$ .


Teshik diametri —  $d_2 = 1,1 d$ .

Bolt uzunligini hisoblash —  $L = m + n + S_1 + H + K$ .

Shpilkali birikmaga kirgan elementlarning o‘lchamlari ham shpilka rezbasining diametriga qarab aniqlanadi. Shpilkaning uzunligi quyidagicha aniqlanadi:  $L = n + S_1 + H + K + l_1$ . Rezbali uyacha churqurligi  $l_2 = l_1 + 0,5 d$  olinadi,  $l_1$  — uyachasiga burab kiritilgan rezbali qismining uzunligi, u asosiy detal materialiga qarab: po‘lat uchun  $l_1 = d$ ; cho‘yan, po‘lat, bronza uchun  $l_1 = 1,25$  (yoki 1,6)  $d$ ; aluminiy yoki magniy qotishmalari uchun  $l_1 = 2$  (yoki 2,5)  $d$  olinadi. Shpilkaning



157-shakl. Shpilkali birikmalar.



158-shakl. Vintli birikmalar:







*a* — silindrik yashirin kallakli vint; *b* — konussimon yashirin kallakli vint;  
*d* — kallagi yarimdumalоq yarimyashirin vint; *e* — kallagi yarim (sfera)  
 dumaloq vint; *f* — silindrik yashirin kallakli va kallagi olti qirrali  
 «kluchbop» o'yqli vint; *g* — ochiq silindrik kallakli va kallagi  
 olti qirrali «kluchbop» o'yqli vint.

tashqi qismidagi rezba uzunligi  $l_0 = 2d + 6$ . Shpilkani birikmaning  
 nisbiy o'lchamlarida yasash 158-shaklda keltirilgan.


Yig'uv chizmalarida, chizmaning masshtabiga qarab, birikma-  
 lardagi mahkamlash detallarini soddalashtirib yoki shartli tasvirlash  
 mumkin (24-jadval).

Mahkamlash detali sterjenining diametri 2 mm.ga teng yoki un-  
 dan kichik bo'lsa, chizmada shartli tasvirlanadi.


## Birikmadagi mahkamlash detallarining soddalashtirib hamda shartli tasvirlanishi (GOST 2.315-68)

T/r	Birikmalar turi	Birkmaning tasvirlanishi		
		soddalashti- rilgani	kesimda	shartli tasvirlanishi ko'rinisinda
1	Boltli birikma (kallagi olti qirrali bolt, gayka va oddiy shayba)	 	 	 
2	Shpilkali birikma (shpilka, toli toza gayka, kerilma shplint)	 	 	 


3 Tashlama boltli birikma (tashlama bolt, shayba va qulqoli gayka)



4 Vintli birikma (silindrik kallakli)



5 Mixli birikmalar





## 5.7. SHLITSALI BIRIKMALAR (GOST 2.409-74)

Shlitsalar aylanma sirt (val, vtulka)larda joylashgan qator tishlardan iborat bo'lib, bu tishlarning profili: uchburchakli to'g'ri burchaklik va evalventa shaklida bo'lishi mumkin. Val shlitsasi vtulka shlitsasi bilan tishlashib aylanma harakatni uzatadi va o'q bo'ylab yengil siljiydi. Shlitsali birikmalar chizmasi GOST 2.409-74 ga muvofiq bajariladi. Val va vtulkadagi shlitsa tishlarining yasovchilarini va tishlar profilining aylanasi asosiy tutash chiziqlarda tasvirlanadi. O'yiqlar aylanasi va yasovchilarini ingichka tutash chiziqlarda ko'rsatiladi (159-shakl, a, b). Shlitsa o'yig'i sirtlarining yasovchisi faska chizig'ini kesib o'tishi lozim (159-shakl, a).


Val va vtulkaning bo'ylama qirqimida o'yiq sirtlarning yasovchilarini asosiy tutash chiziqlarda tasvirlanadi (160—162-shakllar). Val va vtulkaning o'qiga perpendikular ko'ndalang qirqimi va kesimida o'yiqlar aylanasi ingichka tutash chiziqlarda tasvirlanadi (160-shakl, A-A qirqim). Val tishli sirtlarining chegarasi L va tishlar to'liq profili bilan, qochimi orasidagi chegara L<sub>1</sub> ingichka tutash chiziqlarda ko'rsatiladi (159-shakl, a).

Profil uchburchaklik va evalventa shaklli shlitsalarning bo'-luvchi aylanasi va yasovchi chiziqlari chizmada ingichka shtrix-punktir chiziqlarda chiziladi (159, 160-shakllar). Shlitsali birikmalar bo'ylama qirqimida vtulkadagi tishlarning faqat val bilan yopilmay qolgan qismi ko'rsatiladi (162-shakl). Shlitsali detallarga




159-shakl. Shlitsa tishlari chiqqlarining tasvirlanishi.


159-shakl. Shlitsa tishlari chiqqlarining tasvirlanishi.



160-shakl. Vtulka qirqimida shlitsalarni tasvirlash.






161-shakl. Shlitsali valga  
o'lcham qo'yish.



162-shakl. Shlitsali  
birikmalar.

o'lcamlar GOST 1139-80 ga muvofiq qo'yiladi. Masalan, o'quv chizmalarida, to'g'ri burchakli shlitsalarning soni (8), ichki va tashqi diametrlari hamda tishning eni (7) ni ko'rsatish bilan chegaralaniildi: 8x36x40x7 GOST 1139-80.

Evalventa profilli shlitsalar birikmasi GOST 6033-80 ga muvofiq quyidagicha belgilanadi: birikma—50x2x9H/9 GOST 6033-80; val — 50x2x90 GOST 6033-80; vtulka — 50x2x9H GOST 6033-80; belgidagi  $D=50$ -nominal diametri,  $m=2$  modul, 9H va 9 — qo'yimlar maydoni. Tishlar soni ko'rsatilmaydi, uni  $D$  va  $m$  qiymatlar orqali aniqlanadi.



163-shakl. Yig'uv chizmalarida prujinalarni tasvirlash.

## 5.8. PRUJINALAR

### Prujinalarning shartli tasvirlanishi (GOST 2.401-68)

*Prujina* — elastik detal bo‘lib, u tashqi kuchlar ta’sirida deformatsiyalanadi va dastlabki shakliga qaytish uchun aynan shunday kuch bilan tashqi kuchga qarama-qarshi yo‘nalishda harakat qiladi.

Shakliga ko‘ra prujinalar: silindrik, konussimon, spiralsimon, plastinkasimon va tarelkasimon bo‘ladi. Ish xarakteriga ko‘ra, prujinalar: siqilish, cho‘zilish, buralish, egilish prujinalariga bo‘linadi (25-jadval).

Prujinalar ish chizmalarida gorizontal vaziyatda, o‘ramlari esa faqat o‘ng yo‘lli qilib tasvirlanadi. O‘ramlarining yo‘nalishi texnik talabnomalarda ko‘rsatiladi. O‘ramlari chap yo‘lli prujinalar zarur bo‘lgan hollarda, faqat yig‘ish chizmalarida tasvirlanishi mumkin.

Chizmada, o‘ramlar soni to‘rtdan ortiq vintsimon prujinalarning har ikki tomonidagi tayanch o‘ramlari hisoblanmaganida, bir-ikki o‘rami ko‘rsatilib, qolgan o‘rtta o‘ramlari tasvirlanmaydi (164-shakl, a). Vintsimon prujinalar, qirqim berilmasdan tasvirlanishi, yig‘uv chizmalarida esa qirqilgan holda (164-shakl, a, b) yoki sxematik ravishda chizilishi mumkin (25-jadval).


Chizmada diametri yoki qalinligi 2 mm va undan kam bo‘lgan prujina o‘ramlarining kesim yuzalari qoraytirib yoki yo‘g‘on tutash chiziq bilan tasvirlanishi mumkin (25-jadval).

Yig‘uv chizmalarida faqat prujina o‘ramlari kesimining tasvirlanishi yetarlidir (164-shakl, b). Bunda prujina orqasida joylashgan buyumning tarkibiy qismlari va elementlari shartli ravishda ko‘rinmas deb hisoblanadi va chizmada ko‘rsatilmaydi. Binobarin, bunda prujina o‘ramlarining o‘z chizig‘i ko‘rinish chegarasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tekshirish kuchlari parametrlari bilan berilgan prujinalarning ish chizmalarida kuchga sinash diagrammalari ko‘rsatiladi. Bu diagrammalarda prujinaning erkin vaziyatdagi balandligi (uzunligi)  $H_0$ , eng katta ish nagruzkasi  $P_2$  uchun prujinaning balandligi  $H_2$ , eng katta sinov nagruzkasi  $P_3$  uchun prujinaning balandligi  $H_3$  ko‘rsatiladi (164-shakl).

Chizmada prujina parametrlari quyidagi shartli belgilar yordamida ko‘rsatiladi:

1. Prujinaning erkin vaziyatidagi balandligi (uzunligi) —  $H_0$  mm.












164-shakl. Prujinalarning ish chizmalari.



2. Yuk ostidagi prujina balandligi (uzunligi) —  $H_1, H_2, H_3$ .
3. Prujinaning erkin vaziyatida ilmoqlari orasidagi balandligi (uzunligi) —  $H_0^!, \text{ mm}$ .
4. Prujinaning burchak deformatsiyasi —  $\varphi_1, \varphi_2, \varphi_3$ .

\*Spravka o 'lchamlari

### Ko'rinish va qirqimlarda prujinalarning shartli tasvirlanishi

T/r	Prujinaning nomi	Prujinaning shartli tasviri			
		ko'rinishda	qirqimda	kesim yuzasi 2 mm va undan kichik bo'lganda	
				kesimda	ko'rinishda
1	Kesimi yumaloq simdan ishlangan silindrik siqilish prujinalari				
2	Kesimi to'g'ri to'rtburchak shaklli silindrik siqilish prujinalari				
3	Kesimi yumaloq simdan ishlangan konussimon siqilish prujinalari				

4	<p>Kesimi to'g'ri to'rtburchak shaklli konussi- mon (teleskopik) sivilish pruji- nalari</p>	
5	<p>Kesimi yumaloq simdan ishlangan ilmoqlari bir te- kislikda turli to- monga ochilgan vintsimon cho'zi- lish prujinalari</p>	
6	<p>Yumaloq simdan ishlangan ilmoq- lari 90° burchak ostida joylashgan cho'zilish pruji- nalari</p>	
7	<p>Yumaloq simdan ishlangan uchlari 90° burchak ostida joylashgan buri- lish prujinalari</p>	

8	Qarama-qarshi qo'yilgan tarelkasimon prujinalar paketi	
9	Uchlari qayrilgan, lentasimon spiral prujinalar	
10	Qirralari qiya kertilib, plastinkadan yasalgan tarelkasimon prujinalar	
11	Ko'p qatlamlı plastinkasimon egiluvchan prujinalar paketi (ressor)	

5. Prujina simining diametri —  $d$ , mm.
6. Prujinaning sirtqi diametri —  $D$ , mm.
7. Nazorat sterjenining diametri —  $D_c$ , mm.
8. Prujinaning ichki diametri —  $D_p$ , mm.
9. Nazorat gilzasining diametri —  $D$ , mm.
10. Yoyilgan prujinaning uzunligi —  $L$ , mm.
11. Kuch momenti —  $M_1$ ,  $M_2$ ,  $M_3$ , kGm.
12. Siljish moduli —  $G$ ,  $kGs/mm^2$ .
13. Buralishdagi urinma kuchlanish —  $\tau_1$ ,  $\tau_2$ ,  $\tau_3$ ,  $kGs/mm^2$ .
14. Egilishdagi normal kuchlanish —  $\tau_1$ ,  $\tau_2$ ,  $\tau_3$ ,  $kGs/mm^2$ .
15. Prujinaning o'qi bo'ylab ta'sir etuvchi yuk —  $P_1$ ,  $P_2$ ,  $P_3$ , kg.
16. Plastinka prujina kesimining qalilligi (balandligi) —  $S$ , mm.
17. Ish o'ramlarining yoki paketdagisi tarelkasimon plastinkalarining soni —  $n$ .
18. To'liq o'ramlar soni —  $n_1 = n + 1,5$ .
19. Prujina qadami —  $t_p$ , mm.
20. Plastinka prujina kesimining eni —  $B_p$ , mm.

*Eslatma:* 1 — indeksi prujinaning boshlang'ich deformatsiyasiga,  
2 — indeksi ish deformatsiyasiga,  $S$  — indeksi esa maksimal deformatsiyaga  
mos keladigan miqdorlarni ko'rsatishda ishlataladi.

Prujinalarini hisoblash uchun quyida keltirilgan nisbatlardan foydalilanadi. Yumaloq kesimli silindrik prujinaning qadami —  $t$ :

$$t = \pi (D - d) \operatorname{tg} \alpha,$$

$\alpha$  — o'raniarning ko'tarilish burchagi ( $\alpha = 5^\circ \div 15^\circ$ , ko'pincha  $6^\circ \div 49^\circ$  olinadi). Yoyilgan prujinaning uzunligi —  $L$ :

1) siqilish prujinalari uchun:

$$L = \frac{\pi (D - d) n}{\cos \alpha};$$

2) cho'zilish va buralish prujinalari uchun:

$$L = \frac{\pi (D - d) n}{\cos \alpha} \cdot L_{u,y};$$

$L_{u,y}$  — ilmoq simning uzunligi. Siqilish prujinalarning diametr-larini nazorat qilish uchun nazorat sterjeni va gilzasining diametr-

lari quyidagi nisbatda olinadi:  $D_c = 0,96D_l$ ;  $D_l + 1,04 D$ . Siqilish prujinasining erkin vaziyatdagi balandligi (uzunligi) —  $H_0$ :

1) tayanch yuzalari silliqlangan prujina uchun:

$$H_0 = m(t - d) + (n_t - 0,5)d;$$

2) tayanch yuzalari silliqlanmagan prujina uchun:

$$H_0 = n(t - d) + n_t d.$$

Prujinaning ish chizmalarida simning diametri  $d$ , qadami  $t$  va uzunligi  $H_0$  ( $H_0$  — ma'lumot uchun) o'lchamlari ko'rsatiladi. Boshqa ma'lumotlar, jumladan: prujinaning standart nomeri; o'ramning yo'naliishi;  $n$  — ishchi o'rmlar soni;  $n_t$  — to'liq o'rmlar soni; prujina simining yoyilmasi —  $L, mm$ ; ma'lumot uchun o'lchamlar va boshqalar chizmaning texnik talabnomalarida ko'rsatiladi (165-shakl, a, b).

165-shaklda siqilishga va cho'zilishga ishlaydigan prujinalarning ish chizmalari tasvirlangan. Prujinalar 65G markali po'latdan, latun (jez)dan, bronzadan va boshqa materiallardan tayyorlanishi mumkin.





## 5.9. YUMALASH PODSHIPNIKLARINING SHARTLI TASVIRLANISHI

Yumalash podshipniklarining turlari va o'lchamlari tegishli standartlarda belgilangan. Eng ko'p ishlatiladigan podshipniklar turi 26-jadval, a da ko'rsatilgan. Yumalash podshipniklari quyidagi qismlardan iborat: 1) sirtqi va ichki halqalar; 2) sharik yoki roliklar; 3) sharik yoki roliklarni bir-biridan ajratib turuvchi separatorlar.

Yumalash podshipniklarining o'q bo'ylab qirqimi, odatda, yig'uv chizmalarida GOST 2.420-69 ga muvofiq soddalashtirib tasvirlanadi va uning tipi hamda konstruksiyasiga xos xususiyatlari ko'rsatilmaydi.

Podshipnikning sirtqi konturi asosiy tutash chiziqlarda chiziladi, ichki qismi esa shartli ravishda ingichka tutash chiziqlar yordamida diagonallar bilan ko'rsatiladi (26-jadval, b). Agar yig'uv chizmalarida podshipnik turini (sharikli, rolikli) ko'rsatish zarur bo'lsa, GOST 2.770-68 ga muvofiq uning konturi ichiga shartli grafik belgi qo'yiladi (26-jadval, d). Podshipniklarning qirqimi yoki kesimini 26-jadvalning e grafasida ko'rsatilgandek tasvirlash mumkin. Bunday hollarda, odatda, podshipnikning tuzilishi soddalashdirib ko'rsatiladi: faskalari va separatori tasvirlanmaydi.

### Yumalash podshipniklarini chizmada tasvirlash

T/r	Bir qatorli radial-sharikli podshipniklar	Bir qatorli radial qisqa silindrik rolikli podshipnik	Bir qatorli sharikli podshipnik	Bir qatorli konus-simon radial-tirak rolikli podshipnik
a				
b				
d				
e				


## 6-bob. TISHLI UZATMALAR

### 6.1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Tishli uzatmalarda aylanma harakat tishli g'ildiraklar vositasida uzatiladi. Tishli uzatmalar mashinasozlikda keng tarqalgan.


Tishli uzatmalar chizmasini tuzish uchun, avvalo, zarur o'lchamlar hisoblanishi kerak. Quyida ayrim tishli uzatma turlari uchun konstruktiv nisbatlar va hisoblash formulalari keltirilgan.

Shponka pazi val, g'ildirak gupchagidagi teshik diametriga qarab, tegishli standartlar bo'yicha tanlanadi. Chizmada shponka pazlari  $b$  harfi bilan belgilangan. Silindrik va konussimon uzatmalar chizmasining bosh ko'rinishdagi qirqimida tishlar ilashmasi tasvirlana-yotgan zonaga alohida e'tibor bermoq zarur, bunda yetakchi g'ildirak (shesterna)ning tishi, yetaklanuvchi g'ildirak tishi oldida tasvirlanadi (165, 166-shakl). Bunday shartli tasvirlash usulidan, yetakchisi chervyak bo'lgan chervyakli uzatmalar ham foydalaniлади (167-shakl).



165-shakl. Silindrik tishli uzatmalar.

## 6.2. SILINDRIK TISHLI UZATMALAR



*166-shakl.* Silindrik tishli g'ildirakning konstruktiv o'lchamlari.

o'zgarmas son;  $Z$  — yetakchi g'ildirak (shesterna)dagi tishlar soni;  $Z_2$  — yetaklanuvchi g'ildirakdagi tishlar soni;  $D_{b1}$  — yetakchi g'ildirak valining diametri, mm;  $D_{b2}$  — yetaklanuvchi g'ildirak valining diametri, mm;  $B$  — tishning uzunligi  $B=(6+8)/m_t$ , mm;  $h_a$  — tish kallagining balandligi,  $h_a=m_t$ , mm;  $h_s$  — tish botig'ining balandligi,  $h_s=1,25 m_t$ , mm;  $h$  — tishning umumiy balandligi,  $h=h_a+h_s=2,25 m_t$ , mm.

*Hisoblab topiladigan qiymatlar.* Yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklar bir xil formula bo'yicha hisoblanadi, lekin bu formulalar tegishli hollarda «1» va «2» indekslar bilan belgilanadi. Bo'lувчи aylana diametri quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$d = m_t \cdot z, \text{ mm.}$$

Tish chiqiqlari aylanasining diametri:

$$d_a = d + 2 h_a = m_t z + 2 m_t = m_t (z + 2), \text{ mm.}$$

Silindrik tishli g'ildiraklar ish chizmasi GOST 2.403-75 ga ko'ra bajariladi. Quyida aylanish o'qlari o'zaro parallel bo'lgan (166-shakl) to'g'ri tishli silindrik g'ildiraklarni chizish va hisoblash uchun ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Tishli uzatma parametrlarini hisoblashda ikkala tishli g'ildirak uchun umumiy bo'lgan ilashish moduli ( $m_t$ , mm) dan foydalilanadi, u GOST 16530-83 ga muvofiq quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$m_t = \frac{P_t}{\pi},$$

bu yerda,  $P_t$  — ilashish qadami, bo'lувчи aylana yoyi bo'yicha ikki qo'shni tishlar orasidan o'lchab olin-gan yoy uzunligi, mm;  $\pi = 3,14$  —

Tish botiqlari aylanasining diametri:

$$d_f = d - 2h_f = m_r, z = 2,5 m_f = m_r (z = 2,5), \text{ mm.}$$

Chizmada  $d$  va  $d_f$  o'lcamlar ko'rsatilmaydi. O'qlar oralig'i:

$$a_{\text{ж}} = \frac{d_1 + d_2}{2} = \frac{z_1 + z_2}{2} \cdot m_f, \text{ mm.}$$

Tishli g'ildiraklarning qolgan o'lcamlari konstruktiv nisbatlarda qabul qilinadi (166-shak!).

1. Gupchak po'latdan ishlanganida uning diametri  $D = 1,6 D_b$  (mm) yoki cho'yandan ishlanganida  $D = 1,8 D_b$  (mm) olinadi.

2. Gupchak uzunligi  $L_g \geq 1,5 D_b$  (mm), lekin to'g'in enidan kam bo'imasligi lozim.

3. Gupchak bilan to'g'in oralig'idagi diskning qalinligi —  $C$ .

$C$  — tish enining 1/5 dan 1/3 qismigacha bo'lgan chegarada tanlab olinadi:  $C = (1/5 \div 1/3) B$ .

4. To'g'in qalinligi taxminan  $\delta = (1,5 \div 2,5) m_f$  qilib olinadi.

GOST 2.403-75 ga muvofiq (165, 166-shaklda) tishli g'ildirakning konstruktiv o'lcamlari tasvirlangan.

### 6.3. KONUSSIMON TISHLI UZATMALAR

167-shaklda konussimon tishli uzatmalar tasvirlangan. Konussimon tishli g'ildirak ish chizmasi GOST 2.405-75 ga muvofiq bajariladi.

G'ildiraklarning kesishuvchi aylanish o'qlari orasidagi burchagi 90° bo'lgan to'g'ri konussimon tishli uzatmalarni hisoblash va chizish uchun quyida ma'lumotlar keltiriladi.


Berilgan qiymatlar:  $m_i$  — ilashish moduli ikkala g'ildirak uchun ham umumiyl, mm hisobida (27-jadval).

$P_i$  — ilashish qadami, u bo'luvchi konus asosidagi aylana yoyi bo'yicha ikki qo'shni tish orasidan o'lchab olingan masofa, har ikkala tishli g'ildirak uchun bir xil, mm;  $Z_i$  — yetakchi g'ildirak tishlari soni;  $Z_2$  — yetaklanuvchi g'ildirak tishlari soni;  $D_{b1}$  — yetakchi g'ildirak vali (gupchagidagi teshigi)ning diametri;  $D_{b2}$  — yetaklanuvchi g'ildirak vali (gupchagidagi teshigi)ning diametri;  $B$  — tishning bo'luvchi konus yasovchisi bo'ylab o'lcangan uzunligi,  $B = (0,25 \div 0,4) L$ ;  $L$  — bo'luvchi konus yasovchisining uzunligi;  $h_a$  — tish kallagining balandligi, u qo'shimcha konus yasovchisidan boshlab o'chanadi;  $h_f$  — tish oyoqchasing balandligi:  $h_f = 1,25 \cdot m_f$  ( $h_f$  kabi o'chanadi);  $h$  — tishning umumiyl balandligi:  $h = h_a + h_f = 2,25 \cdot m_f$ .

## Tishli g'ildiraklar moduli (GOST 9563-60)

T/r	O'chamlar, mm							
	1-qator	2-qator	1-qator	2-qator	1-qator	2-qator	1-qator	2-qator
1	0,4	—	1,5	—	6	—	25	—
2	—	0,45	—	1,75	—	7	—	28
3	0,5	—	2	—	8	—	32	—
4	—	0,55	—	2,25	—	9	—	36
5	0,6	—	2,5	—	10	—	40	—
6	—	0,7	—	2,75	—	11	—	45
7	0,8	—	3	—	12	—	50	—
8	—	0,9	—	3,5	—	14	—	55
9	1	—	4	—	16	—	—	—
10	—	0,125	—	4,5	—	18	—	—
11	1,125	—	5	—	20	—	—	—
12	—	1,379	—	5,5	—	22	—	—

*Eslatma:*  $0,05+0,35$  va  $60\div 100$  mm.gacha bo'lgan modullar jadvalga kiritilmagan. Birinchi qatordagi qiymatlardan foydalangan ma'qul.



167-shakl. Konussimon tishii uzatmalar.

Tishli g'ildirakning hisoblab topiladigan o'lchamlari.

Bo'luvchi konus asosidagi aylana diametri:  $d=m, z \text{ (mm)}$ .

Tish chiqqlari aylanasining diametri:

$$D_f = d + 2 h_a \cos\varphi = m, (z + 2 \cos\varphi), \text{ (mm).}$$

Tish botiqlari aylanasining diametri:

$$d_f = d - 2 h_f \cos\varphi = m, (z - 2,5 \cos\varphi), \text{ (mm).}$$

Chizmada  $d$  va  $d_f$  o'lchamlari ko'rsatilmaydi. Aylanish o'qlari orasidagi burchak  $90^\circ$  ga teng bo'lsa, avvalo, boshlang'ich konus asosining  $d_1$  va  $d_2$  diametrlari aniqlanadi,  $\varphi_1$  va  $\varphi_2$  burchak qiymatlari chizmada grafik usulda yasaladi.

Agar o'qlar orasidagi burchak  $90^\circ$  ga teng bo'lmasa ( $\varphi_1 + \varphi_2 \neq 90^\circ$ , u holda quyidagilarni (168-shaklda ko'rsatilmagan) ham hisobga olish zarur bo'ladi:

1. Bo'luvchi konus yasovchisining uzunligi,  $L$ :

$$L = \frac{d}{2 \sin \varphi}, \text{ mm}; \quad \operatorname{tg} \Delta' = \frac{h_a}{L}.$$


2. Yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklardagi tish kallagining bo'luvchi konus yasovchisi bilan hosil qilgan burchagi —  $\Delta'$ .

3. Yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklardagi tish oyoqchasining boshlang'ich konus yasovchisi bilan hosil qilgan burchagi —  $\Delta''$ .

$$\operatorname{tg} \Delta'' = \frac{h_f}{L}; \quad \varphi_a = \varphi_2 + \Delta'.$$

4. Chiqqlari uchidagi konus burchagi  $\varphi_a$  (tishlar kallagidagi konusli sirt yasovchi bilan g'ildirak o'qi orasidagi burchak).

5. Botiqlar uchidagi konus burchagi  $\varphi_f$  (tishlar oyoqchasidagi konussimon sirt yasovchisi bilan g'il-



168-shakl. Konussimon tishli g'ildirakning konstruktiv o'lchamlari.

dirak o'qi orasidagi burchak)  $\varphi_f = \varphi_i - \Delta'$ . Qolgan o'lchamlari konstruktiv nisbatlarda qabul qilinadi. Konussimon tishli g'ildirakning o'lchamlari 168-shaklda ko'rsatilgandek qo'yiladi.

## 6.4. CHERVYAKLI UZATMALAR

Silindrik chervyak bilan chervyak g'ildiragining ish chizmasi GOST 2.406-79 ga muvofiq bajariladi. Aylanish o'qlari orasidagi burchagi  $90^\circ$  bo'lgan chervyakli uzatmalarni hisoblash va chizish uchun quyida zarur bo'lgan ma'lumotlar keltiriladi. 168-shaklda chervyakli uzatmaning yig'uv chizmalari va o'lchamlari ko'rsatilgan.

Berilgan qiymatlar:  $m_r$  — o'q bo'ylab ilashish moduli —  $m_r = \frac{P_t}{\pi}$ , bu yerda,  $P_t$  — ilashish qadami, mm;  $\pi$  — o'zgarmas son;  $t_b$  — chervyak vint chizig'ining yo'li, mm. Bir qirimli chervyak uchun  $t_b = P_t$ ;  $Z_1$  — chervyak kirimlari soni;  $Z_2$  — chervyak g'ildiragi tishlarining soni;  $D_{b_2}$  — chervyak g'ildiragi vali (gupchak teshigi)ning diametri.

Tishlar o'lchami:  $h_a = m_r$ ;  $h_f = 1,25 m$ ;  $h = h_a + h_f = 2,25 m_r$ .

*Chervyakning hisoblab topiladigan qiymatlari.* Chervyak bo'luvchi silindrining diametri quyidagi chegarada qabul qilinadi:

$$d_r = (10 \div 12) \cdot m_r, \text{ mm.}$$

Vint chizig'ining ko'tarilish burchagi —  $\lambda$ :

$$\lambda = \operatorname{arctg} \frac{m_r z_1}{d_r}.$$

Tish chiqiqlari aylanasining diametri:

$$d_a = d_r + 2h_a = d_r + 2 \cdot m_r, \text{ mm.}$$

Chervyak tishlar botig'i aylanasining diametri:

$$d_{fl} = d_r + 2h_f = d_r + 2,5 \cdot m_r, \text{ mm.}$$

Chizmada  $d_r$  va  $d_f$  o'lchamlari ko'rsatilmaydi.

*Chervyak g'ildiragining hisoblab topiladigan qiymatlari.* Bo'luvchi aylanasi diametri:  $d_2 = m_r z_2, \text{ mm.}$

Tish chiqqlari aylanasining diametri:

$$d_{a2} = d_2 + 2 h_a = m_t \cdot (z_2 + z), \text{ mm.}$$

Tish botiqlari aylanasining diametri:

$$d_{f2} = d_2 - 2h_a = m_t \cdot (z_2 - 2,5), \text{ mm.}$$

Chizmada  $d_1$  va  $d_{f2}$  o'lchamlar ko'rsatilmaydi. O'qlar oraligi:

$$a_{\omega} = \frac{d_1 + d_2}{2} = \frac{m_t}{2} \cdot \left( \frac{z_1}{\operatorname{tg} \lambda} + z_2 \right), \text{ mm.}$$

O'qlar orasidagi  $a_{\omega}$  masofa  $d_1$  va  $d_2$  diametrlar aniqlangandan so'ng, chizmada grafik usulda yasaladi. Chervyak tishli g'ildirakning aylanish o'qi bo'ylab kesuvchi tekislikda tasvirlangan tish chiqqlaridagi egri chiziqli radiusi  $R_e$  quyidagicha aniqlanadi:

$$R_e = \frac{d_1}{2} m_t, \text{ mm.}$$

G'ildirak to'g'inining eni  $B_1$ , chervyakdagagi kirimlar soni  $z_1$  ga qarab belgilanadi, masalan, agar  $z_1 \leq 3$  bo'lsa,  $B \leq 0,75d_a$  (mm), agar  $z_1 = 4$  bo'lsa,  $B > 0,75d_a$  mm olinadi. Shartli o'ralish burchagi:

$$2 \lambda \sin \lambda = \frac{B}{d_{a1} + 0,5 m_t}.$$

